O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

FILOLOGIYA FAKULTETI

O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI KAFEDRASI

# O‘ZBEK TILI PUNKTUATSIYASI

fanidan III bosqich, V semestr uchun
**o‘quv-uslubiy majmua**

| | |
|---|---|
| Bilim sohasi: | 220000 – San’at va gumanitar fanlar |
| Ta'lim sohasi: | 230000 – Tillar |
| Ta'lim yo‘nalishi: | 60230100 – Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili) |

GULISTON -2022

Ushbu o‘quv-uslubiy majmua O‘zbekiston Respublikasi OO‘MTV tomonidan 60230100 – Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili) ta’lim yo‘nalishi uchun 2021- yil “10” 11. dagi 430-sonli qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbek tili orfografiyasi va punktuatsiyasi” namunaviy fan dasturi asosida ishlab chiqilgan.

**Тузувчи:** f.f.n., kat.o‘q. J.Abdullayev.

**Taqrizchilar**: f.f.n., dots. H.Yodgorov.
p.f.n., dots. A. Bolibekov

O‘quv-uslubiy majmua Guliston davlat universiteti o‘quv-uslubiy boshqarma tomonidan 2022- yil “__”- avgustdagi __-sonli qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

## MUNDARIJA

1. Kirish ........................................................................................................... 4
2. Nazariy materiallar (Ma`ruza matnlari)…………………………………………...5
3. Amaliy mashg‘ulot materiallari…………………………………………….......37
4. Mustaqil ta’lim bo`yicha materiallar..................................................................47
5.Glossariy...........................................................................................................48
Ilovalar:
Fan dastiri…………………………………………………………………51
Qo‘shimcha didaktik materiallar..........................................................................59
Test savollari.............................................................. ..................................60

## Kirish

“O‘zbekiston Respublikasining Davlat tili to‘g‘risida”gi Qonuni, Prezidentimiz SH.M.Mirziyoyevning “Buyuk kelajagimizni mard va oliy janob xalqimiz bilan birga quramiz” asari, “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi” to‘g‘risidagi farmoni va “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari” to‘g‘risidagi qarorlari, shuningdek, yurtboshimizning o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganligining 30 yilligiga bag‘ishlangan marosimdagi so‘zlagan nutqidan kelib chiqqan holda talabalarda “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” fanining predmeti, vazifalarini milliy yuksalish, yangi davr, yangi dunyoqarash talablari asosida qayta ko‘rib chiqish, tegishli o‘zgartishlar kiritish, fan doirasida o‘rganiladigan asosiy masalalarning yangicha mazmun-mundarijasini belgilashda dasturilamal bo‘lib hizmat qildi. Zero, “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” 60111400 – O‘zbek tili va adabiyoti va 60230100 – Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili)  ta’lim yo‘nalishlari uchun asosiy poydevor fan hisoblanadi. Buni ilmiy va amaliy asoslashda  hozirgi o‘zbek adabiy tilining ajralmas qismi bo‘lgan “O‘zbek tilining orfografiyasi va punktuatsiyasi”[(Filologiya va tillarni o‘qitish(o‘zbek tili) ta’lim yo‘nalishi uchun] va “ O‘zbek tilining talaffuzi va imlosi asoslari”( O‘zbek tili va adabiyoti ta’lim yo‘nalishi uchun) fanlarini o‘qitsh muhim ilmiy-nazariy va amaliy-pedagogik ahamiyatga ega. Zero, adabiy til, birinchi navbatda, adabiy nutq, adabiy talaffuz, adabiy yozuv me’yorlariga asoslangan til ekanligi bilan xarakterlanadi. Shuning uchun hozirgi o‘zbek adabiy tilini o‘zlashtirish adabiy talaffuz - orfoepiyani va adabiy yozuv – orfografiyani bilishni taqozo qiladi. Orfografiyaning chuqur o‘zlashtirilishida esa punktuatsiya alohida o‘rin tutadi. Punktuatsiya, bir tomondan, noharfiy yozma  belgilar sifatida grafika bilan aloqador bo‘lsa, ikkinchi tomondan, punktuatsiyaning birliklari bo‘lgan tinish belgilarini to‘g‘ri va o‘z o‘rnida ishlatish orfografiya va orfoepiya  bilan bevosita bog‘liqdir. Bu to‘rt lingvistik fan o‘zro uyg‘unlashgan holda o‘zbek yozma nutqining mukammal ifodalanishini ta’minlashga xizmat qiladi. Binobarin, ularning har birini chuqur o‘rganish   mutaxassislik yo‘nalishlari talabalari oldidagi dolzarb vazifadir. Binobarin, “O‘zbek tili punktuatsiyasi” fani Filologia va tillarni o‘qitish(o‘zbek tili) ta’lim yo‘nalishi uchun “O‘zbek tilining orfografiyasi” va “ O‘zbek tilining talaffuzi va imlosi asoslari”( O‘zbek tili va adabiyoti ta’lim yo‘nalishi uchun) fanlari qatoridagi fan hisoblanadi. Shu sababli ushbu fan mazkur yo‘nalishlarning o‘quv rejasiga mutaxassislik fanlari qatorida 2022-2023- o‘quv yilidan boshlab o‘qitiladi.  Ushbu fan asoslarini egallash “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” (HO‘AT) fanining maqsadga muvofiq o‘zlashtirilishini ta’minlashga ham xizmat qiladi. Zero, adabiy til milliy tilning nafaqat fonetik-intonatsion, lesik-grammatik, balki orfoepik, orfografik va punktuatsion jihatdan aniq me’yorlashtirilgan ko‘rinishidir. Shu sababli yozma nutqimizning zamon talablari darajasida  takomillashishining muhim omili bo‘lgan puktuatsiya asoslarini o‘rganish va o‘rgatishga alohida e’tibor berishimiz davr talabidir.

Majmua an’anaviy tilshunoslikning boy tajribasidan   hamda sistem-struktur tilshunoslikning keyingi yillarda qo‘lga kiritgan ijobiy yutuqlaridan unumli foydalangan holda tayyorlandi.

***N A Z A R I Y  M A T E R I A L L A R***
***(Ma'ruza matnlari)***

## 1-*MAVZU:* O'ZBEK YOZUVIDA TINISH BELGILARINING SHAKLLANISHI

*Ajratilgan vaqt : 2 soat*

***Mavzu bo'yicha asosiy masala(savol)lar***

1. Punktuatsiyaga kirish. Punktuatsiyaning maqsad va vazifalari.
2. O'zbek yozuvida tinish belgilarining paydo bo'lish shart-shroitlari va ahamiyati.
3. O'zbek yozuvida tinish belgilari tarixini davrlashtirish.
4. O'zbek tilshunosligida tinish belgilarining ilmiy o'rganiliashi.

***Mavzuga oid tayanch tushuncha va atamalar***

Punktuatsiya, punktuatsiya va grafika, orfografiya, punktuatsiya va sintaksis, punktuatsiya va intonatsiya, tinish belgilari va gap semantikasi, tinish belgilari va gap strukturasi, tinish belgilari va gap uslubi, semantik- sintaktik signal,punktuatsiyaning semantik va funktsional taraqqiyoti, «ta'kid» belgilari «ma'no» belgilari «bezak» belgilari; yordamchi vositalar, punktuatsiya va poligrafiya, punktuatsiya va tarjima san'ati, punktuatsiya tamoyillari va punktuatsiya asoslari,ma'noviy asos, grammatik asos, intonatsion asos, mazmuniy struktural – intonatsion asos, o'zbek tilining grammatik sistemasi, rus punktuatsiyasi sistemasi, etakchi asos.

***Mavzuga oid muammolar***

1.O'zbek tilida tinish belgilarini faol qo'llash asosan 19-asrdan boshlangan. Buning sababi nimada?
2. O'zbek adabiy tilida hozirgi kunda 10 ta tinish belgisi ishlatiladi. Ba'zilar ularning sonini 11taga etkazadi. qaysi fikr to'g'ri? To'g'ri deb bilgan fikringizni izohlang.
3. Fonetik yozuvlarni tinish belgilarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Nima uchun?

### 1-masala: *O'zbek yozuvida tinish belgilarining paydo bo'lish shart-shroitlari va ahamiyati.*

1-masala bo'yicha darsning maqsadi: O'zbek yozuvida dastlabki tinish belgilarining paydo bo'lishi va ularning taraqqiyoti, tinish belgilarini qo'llash tamoyillari to'g'risida ma'lumot berish.

Identiv o'quv maqsadlari.

1.1. Punktuatsiyaning qachon paydo bo'lganini aytib bera oladi.
1.2. Punktuatsiyaning paydo bo'lishi ijtimoiy ongning o'sishi, yozuv taraqqiyoti bilan bog'langanligini tushuntirib bera oladi.
1.3. Punktuatsiya paydo bo'lishining asosiy omillarini sanaydi.
1.4. Punktuatsiya paydo bo'lishining asosiy omillarini tushuntirib beradi.
1.5. O'zbek punktuatsiyasi tarixi, taraqqiyot yo'llari va ilmiy nazariy asoslari masalasi murakkabligini asoslab beradi.

### 1-masala bayoni

**Punktuatsiya** (lot. punctum — nuqta; kichkina dog') — 1) alifbodan tashqari bo'lgan grafik belgilar (tinish belgilari) tizimi bo'lib, grafika va orfografiya (imlo) bilan birgalikda yozma tilning asosiy vositalarini tashkil etadi. P.ning asosiy vazifasi yozma (bosma) matnni qismlarga ajratish, grafik jihatdan shakllantirishdir; 2) yozma matnni punktuatsion rasmiylashtirishni tartibga soluvchi, har bir til uchun tarixan shakllangan qoidalar, me'yorlar; 3)

P. tizimi qonuniyatlarini, shuningdek, tinish belgilarining qoʻllanish meʼyorlarini oʻrganadigan tilshunoslik boʻlimi.

Muayyan milliy til grafikasi (yozuvi) 2 xil vositadan: harflar (alifbo) va tinish belgilari (punktuatsiya) tizimidan iborat. P. tarixi, punktuatsion tizimniig paydo boʻlishi, tinish belgilarining soni turli tillarda turlicha namoyon boʻladi. Mac, punktuatsion tizim hozirgi maʼno va koʻrinishda Gʻarbiy Yevropa tillari yozuvlarida 15—16-asrlarda, rus yozuvida 18-asrda, o’zbek yozuvida esa 19-asrning 2-yarmida paydo boʻlgan. Yoki ingliz tili punktuatsion tizimida apostrof va defis ham tinish belgisi hisoblanib, ularning jami 12 ta boʻlsa, hozirgi oʻzbek P.si quyidagi 10 ta tinish belgisidan iborat: vergul, ikki nuqta, koʻp nuqta, nuqta, nuqtali vergul, soʻroq belgisi, tire, undov belgisi, qavs, qoʻshtirnoq. P.ning qoʻllanishida ham tillararo tafovut boʻlishi mumkin, Masalan, ispan tilida soʻroq va undov belgilari gapning boshida va oxirida qoʻyiladi.

Oʻzbek tili punktuatsiyasining fan sifatida shakllanishi yozuv sistemasida tinish belgilarining paydo boʻlishi bilan bogʻliq.
Tinish belgilari oʻzbek yozuvida XIX asrning II yarmidan soʻng qoʻllana boshlagan. Arab yozuvidagi «yordamchi vositalar», oʻz mohiyatiga koʻra, punktuatsion belgi emas. «Yordamchi vositalar»dan ayrimlarining (masalan, bezak belgilarining) XIX asrning II yarmidan keyin «tinish belgisi» vazifasida qisman ishlatilishi ham oʻzbek tili punktatsiyasi tarixi shu davrdan boshlanganligini koʻrsatadi.

Oʻzbek punktatsiyasi tarixining XIX asrning II yarmidan boshlanish sabablarini koʻrsatuvchi obyektiv tarixiy omillar:
1.XIX asrning II yarmida Markaziy Osiyoning Rossiya tomonidan istilo qilinishi salbiy oqibatlarga olib kelishi bilan birga Markaziy Osiyo halqlari madaniyatining, shuningdek, oʻzbek halqi madaniyatining dunyoviy asosda rivojlanishi uchun muhim omil boʻldi. «Haqiqatan ham, Rossiya Sharqqa nisbatan progressiv rol oʻynaydi. Rossiya hukmronligi qora va Kaspiy dengizlari, Markaziy Osiyo uchun madaniyatlashtiruvchilik rolini oʻynaydi». (F.Engels) Negaki, Markaziy Osiyoga rus kapitalizmi, mustabidlik siyosati bilan birga ilgʻor rus madaniyati – sanʼati, adabiyoti, tili va yozuvi bilan tanisha boshlaydilar; rus halqi madaniyatining Markaziy Osiyo halqlari madaniyatiga taʼsiri kuchayadi. Bunday madaniy aloqa-taʼsir, tabiiyki, madaniyatning bir koʻrinishi boʻlmish yozuvda ham oʻz ifodasini topadi. Rus punktuatsiyasi oʻzbek punktuatsiyasining taraqqiyot yoʻlini 150-200 yilga qisqartdi: oʻzbek punktuatsiyasi sohasida, taxminan, 150-200 yil ichida erishish mumkin boʻlgan yutuqqa atigi chorak asr mobaynida erishildi. Bu ulkan yutuqqa erishishda ilgʻor rus madaniyati – rus yozuvi (rus punktuatsiyasi)ning roli kattadir.
1. XIX asrning II yarmida Markaziy Osiyoda (Oʻzbekistonda) poligrafiya (matbaachilik) vujudga keladi: bosmaxonalar, nashriyotlar paydo boʻlib, kitob, gazeta va jurnallar nashr etish ishlari boshlanadi. Shu munosabat bilan tilning ijtimoiy vazifasi kengayib, yozuvning xoʻjalikdagi roli ortadi. XIX asrning 70-yillarida oʻzbek adabiy tili matbuot tili darajasiga koʻtariladi va turmushning eng muhim tarmoqlarida qoʻllana boshlaydi. Kitob, gazeta, jurnallardagi har bir fikrni oʻquvchiga aniq va toʻgʻri yetkazish zaruriyati tugʻiladi. Shu munosabat bilan kitob va gazeta sahifalarida tinish belgilarini qoʻllash boshlanadi hamda bu jarayon asta-sekin odat tusiga kira boradi. Kitob va gazetalarda tinish belgilaridan foydalanishda ruscha kitoblardagi anʼanalarga rioya qilina boshlaydi. Oʻzbek punktuatsiyasining shakllanishi va rivojida, ayniqsa, 1871- yildan muntazam ravishda va ikki tilda (ruscha va oʻzbekcha) nashr etilgan “Turkiston viloyatining gazeti” muhim ahamiyatga ega boʻlgan.
3.XIX asrning II yarmidan soʻng Oʻzbekistonda tarjima sanʼati juda rivojlanlanadi. Rus tilidan oʻzbek tiliga koʻplab badiiy asarlar tarjima qilinadi. Tarjima jarayonida ruscha tekstdagi tinish belgilari, tabiiyki, oʻzbekcha nushaga ham oʻtadi.
4.XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida turkiy tillar va turkiy yozuvlar haqida turli tipdagi ilmiy asarlar, grammatik qoʻllanmalar paydo boʻladi. Bularning maʼlum qismi rus turkolog

olimlar tomonidan yozilgan bo‘lib, bu asarlardagi tekst parchalarida (misollarda), rus yozuvi an’anasiga ko‘ra, tinish belgilari bilan ajratish holatlari uchraydi.

Demak, XX asr boshlarida o‘zbek punktuatsiyasi to‘liq shakllangan.

Bunda o‘sha davrdagi ijtimoiy-tarixiy va madaniy – siyosiy sharoit muhim rol o‘ynagan.

Yozuv madaniyatini shakllantirish va takomillashtirishda punktuatsiyaning - tinish belgilarining alohida ahamiyati bor.

Tinish belgilari yozuvning boshqa vositalari (harflar, raqamlar, diakritik belgilar) hamda til birliklari (so‘zlar, morfemalar) bilan ko‘rsatish mumkin bo‘lmagan turlicha fikriy munosabatlarni, psixologik va intonatsion holatlarni ifodalashda ham favqulodda muhim ahamiyatga ega.

Punktuatsiya tilning sintaktik qurilishi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, yozma nutqni to‘g‘ri, ifodali, aniq bayon qilishda, uning uslubiy ravonligini, tez tushunilishini ta'minlashda benihoya zaruriy vositadir. Ilmiy manbalarda, o‘quv qo‘llanmalarida tinish belgilarining qo‘llanish usuli va tartibi punktuatsiyaning mantiqiy-grammatik, uslubiy va differensiatsiya (farqlash) tamoyillari asosida belgilanishi ta'kidlanadi. Bunda mantiqiy-grammatik tamoyil nutqning semantik-grammatik tomonini yozuvda to‘g‘ri ifodalashga qaratilgan bo‘lsa, differensiatsiya tamoyili asosidagi qoidalar tinish belgilarining qo‘sh holda qo‘llanishidagi tartibni, gapdagi murakkab mazmunni aniqlashtirish kerak bo‘lganda, ulardan foydalanish yo‘llarini belgilab beradi. Uslubiy tamoyil tinish belgilarining qo‘llanishini nutq uslublari asosida belgilashni nazarda tutadi, lekin bu unchalik to‘g‘ri emas, chunki muayyan bir uslubgagina xoslangan tinish belgisi bo‘lmaydi. Zarurat tug‘ilganda, har qanday uslubda ham xohlagan tinish belgisidan foydalanish mumkin.

Tinish belgilarining qo‘llanish xususiyatlarini puxta bilishi va unga amal qilish yozma nutqni har jihatdan to‘g‘ri, aniq bayon etishda, savodli ifodalashda, yozuv madaniyatini egallashda, yozma nutqni taraqqiy ettirishda muhim ijtimoiy ahamiyatga ega. Punktuatsiya qoidalari hamma uchun (yozuvchi uchun ham, o‘quvchi uchun ham) umumiydir.

Hozirgi o‘zbek tilida tinish belgilarining qo‘llanish doirasi, vazifasi kengayib, punktuatsion normalar stabillashib bormoqda. Bu tire, vergul, qo‘shtirnoq kabi tinish belgilarining qo‘llanish jarayonida ochiq ko‘rinadi. Bu jarayon o‘zbek yozuv madaniyatining, o‘zbek tili sintaktik qurilishining va o‘zbek adabiy tili funktsional uslublarining rivojlanishi, taraqqiyoti va takomillashuvi bilan bog‘liq.

Hozirgi o‘zbek tilida tinish belgilari o‘nta, ularning nomlanishi va shakli quyidagicha:

| № | Nomi | Shakli |
|---|---|---|
| 1. | Nuqta | . |
| 2. | So‘roq belgisi | ? |
| 3. | Undov belgisi | ! |
| 4. | Nuqtali vergul | ; |
| 5. | Ko‘p nuqta (uch nuqta) | … |
| 6. | Vergul (qo‘sh vergul) | , yoki , , |
| 7. | Ikki nuqta (bayon belgisi) | : |
| 8. | Tire (qo‘sh tire) tire – | – yoki – – |
| 9. | qavs (qo‘sh qavs) | ( ), [ ],[(…)] |
| 10. | Tinoq (qo‘shtirnoq) | “ “, « », ‘…’ «”...”» |

Tinish belgilarining yuqoridagi shakllari hozirgi o‘zbek tili yozuv sistemasi uchun qabul qilingan yagona, asosiy, normal formadir. Shunga ko‘ra, barcha nashriyot va bosmaxona ishlarida, o‘quv-o‘qituv sistemasida mazkur tinish belgisining normallashgan shaklidan (asosiy formadan) foydalaniladi. Tablitsada vergul, tire va qavsning ikki xil shakli, tirnoqning esa uch xil shakli ko‘rsatilgan. Bularning birinchisi asosiy forma, qolganlari esa variant (yordamchi forma) sanaladi. Har bir variant o‘z qo‘llanish qonuniyatlariga ega. Masalan, tirnoq (qo‘shtirnoq)

odatdagi shaklidan tashqari «burchak» va «yakka tirnoq» formalarida, qavs esa katta qavs va kichik qavs formalarida ham ishlatiladi. Tinish belgilarining turli shaklda ishlatilishi texnik sababga, nashriy qulaylikka, uslubiy holatga (uslubga) va individual badiiy yozuv uslubiga ko‘ra belgilanadi.

Tinish belgilarining, yozma matn xarakteriga ko‘ra o‘z shaklini o‘zgartgan holda qo‘llanishi muayyan shart-sharoitlar, qonun-qoidalar, ko‘proq uslub talabi bilan bo‘ladi.

Tinish belgilarining miqdori va shakli har bir milliy tilning o‘z normalariga ko‘ra belgilanadi. Masalan, ingliz tilida defis va apostrof ham tinish belgisi hisoblanadi. Ispan tilida so‘roq va undov belgilari gapning boshida va oxirida qo‘llanib, jumla boshida ishlatilganda teskari shaklda qo‘yiladi.

Hozirgi o‘zbek tilida tinish belgilari quyidagi usulda qo‘llanadi: a)yakka holatda; b)qo‘sha holatda.

Yakka holatda qo‘llanganda, bir belgi muayyan matnda alohida vazifani bajaradi: *Tishing qani? qani, o‘g‘lim, kechagi cho‘pchakni ayt!* (Oybek)

Qo‘sha qo‘llanganda esa ular takror holatda yoki ikki va undan ortiq tinish belgisi birgalikda (ketma-ket, yonma-yon)qo‘yiladi: - *O‘lim yovga*!!! (H.O.)

*Qachongacha bizni aldaysizlar?!*

*Bo‘ldi endi!.. Endi toqat yo‘q*!.. (Uyg‘un)

Keltirilgan misollarning birinchisida undov belgisi uchtagacha takror ishlatilgan: ikkinchisida so‘roq va undov, uchunchi va to‘rtinchisida esa undov va ko‘p nuqta birgalikda (qo‘sha) qo‘llangan.

**Muhokama uchun savollar**

4.1.1.Hozirgi o‘zbek adabiy tilida nechta tinish belgisi ishlatiladi?

4.2.1.Hozirgi o‘zbek adabiy tilida tinish belgilari qanday me’zonlarga ko‘ra ishlatiladi?

4.2.2. Tinish belgilarining ishlatilish usullari deganda nimani tushunishimiz kerak?

4.3.1.Tinish belgilarining ishlatilish usullari bilan ularni ishlatish tamoyillari o‘rtasida qanday farqlar bor?

4.3.2. Hozirgi kun matbuoti tilida tinish belgilarini ishlatishda qanday hatolarga yo‘l qo‘yilmoqda, buning sabablari nimada?

## 2-masala bayoni

## O‘zbek yozuvida tinish belgilari tarixini davrlashtirish

O‘zbek punktuatsiyasi taraqqiyotini ikki katta davrga bo‘lib o‘rganish mumkin:

1. Oktyabr to‘ntarishidan oldingi davrda o‘zbek punktuatsiyasi. Bu davr o‘zbek yozuvida tinish belgilarining qo‘llana boshlashi va bu qo‘llashning odat tusiga kirishi hamda o‘zbek punktuatsiyasining shakllanishi bilan xarakterlanadi. Bu XIX asrning II yarmidan to 1917 yilgacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga olib, u ikki bosqichga bo‘linadi: 1)1870-1905 yillar; 2)1905-1917 yillar.
2. Oktyabr to‘ntarishidan keyingi davrda o‘zbek punktuatsiyasi. Bu davr o‘zbek yozuvida tinish belgilarining qo‘llanishi muayyan tartibga kirganligi, o‘zbek punktuatsiyasining sistemalashuvi va o‘zbek grafikasining alohida bir qismi sifatida o‘rganilishi bilan xarakterlanadi. O‘zbek punktuatsiyasini ilmiy asosda o‘rganish oktyabr to‘ntarishidan so‘ng boshlandi. Bu 1917 yildan to hozirgacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi va quyidagi bosqichlarga bo‘linadi: 1) 1917-1930 yillar; 2)1930-1940 yillar; 3)1940 yildan to hozirgacha bo‘lgan davr.

O‘zbek punktuatsiyasi taraqqiyotini bunday davrlashtirish va bosqichlarga bo‘lishda ijtimoiy – tarixiy, madaniy-siyosiy sharoitlar va o‘zbek milliy yozuvi taraqqiyoti hamda undagi o‘zgarishlar hisobga olinadi.

## 3-masala bayoni

## O‘zbek tilshunosligida tinish belgilarining ilmiy o‘rganiliashi.

Muayyan tildagi punktuatsiya an'analarining mustahkamlanishi va takomillashuvida taniqli yozuvchilarning ijodi hamda tinish belgilarining qo‘llanish qoidalarini umumlashtiruvchi va tartibga soluvchi tilshunoslar faoliyati katta ahamiyatga ega. Hozirgi o‘zbek punktuatsiyasining shakllanishi, rivoji, uning o‘rganilishi Fitrat, S.lbrohimov, H.G‘oziyev, O.Usmonov, G‘.Abdurahmonov, K.Nazarov va boshqa tilshunoslarning nomi bilan bog‘liq. Punktuatsiya masalalari bilan bevosita shug‘ullangan H.G‘oziyev («O‘zbek punktuatsiyasining tarixiy taraqqiyoti», 1969, 1979), G‘.Abdurahmonov («Punktuatsiya o‘qitish metodikasi», 1968), K.Nazarov («Tinish belgilari va yozma nutq», 1974; « 0‘zbek tili punktuatsiyasi», 1976) laming asarlari nashr etilganiga ancha yillar bo‘ldi va ulardagi tinish belgilarining ishlatilishi haqidagi fikr-mulohazalar ham bir qadar o‘zgardi. Buning ustiga, «muallif punktuatsiyasi» tushunchasi, ya'ni muayyan muallif tomonidan tinish belgilarining amaldagi qoidalarga bo‘ysunmagan, unga rioya qilmagan holda individual qollash holatlari uchraydiki, bu ham keng o‘quvchilar ommasini chalkashtiradi, shubhalantiradi. Mazkur holatni hisobga olgan holda va tinish belgilarining ishlatilishi bilan bog‘liq ayrim chalkashliklarni bartaraf etish maqsadida prof. N.Mahmudov, dots. A.Madvaliyev, dots.N.Mahkamov tomonidan «0‘zbek tili punktuatsiyasining asosiy qoidalari» ishlab chiqildi. «Qoidalar» « O‘zbek tili va adabiyoti» jurnalining 2015-yil 1-sonida hamda «Ma'rifat» gazetasining 2015-yil 1-, 4-, 8-, 11-aprel kunlaridagi sonlarida e'lon qilinib, taklif va tavsiyalar asosida yanada takomillashtirildi. «O‘zbek tili punktuatsiyasining asosiy qoidalari» O‘z R.XTV Respublika ta'lim markazi ilmiy-metodik kengashi tomonidan ma'qullangan.

**Muhokama uchun savollar**

1. O‘zbek yozuvida punktuatsion belgilar qanday sharoitda va qachon paydo bo‘lgan?
2. Punktuatsiya paydo bo‘lishida qanaqa omillar asosiy rol o‘ynagan?

## 2-mavzu
## Tinish belgilarini ishlatish asoslari va tamoyillari
**Reja:**

1. Tinish belgilarini ishlatish asoslari haqida umumiy tushuncha.
2. O‘zbek tilining grammatik sistemasi tinish belgilarini ishlatishning tayanch ilmiy – nazariy asosi sifatida.
3. Rus tili punktuatsion sistemasi o‘zbek punktuatsiyasining muhim nazariy asoslaridan biri sifatida.
4. O‘zbek tilida tinish belgilarini ishlatish tamoyillari:

4.1.Tinish belgilarini ishlatishning logik-grammatik tamoyili.
4.2.Tinish belgilarini ishlatishning uslubiy tamoyili.
4.3.Tinish belgilarini ishlatishning differentsiatsiya-farqlash tamoyili

**Darsning maqsadi:** talabalarda punktuatsiya asoslari to‘g‘risida aniq tushuncha hosil qilish;

**Identiv o‘quv maqsadlari**.

2.1. Punktuatsiya asoslarini nimalar tashkil qilishini aytib beradi.
2.2. Punktuatsiya asoslarini izohlab beradi.
2.3. Berilgan matndagi tinish belgilari asoslarini aytib beradi.
2.4. Tinish belgilarining sodda va Qo‘shma gaplarda qo‘yilish asoslarining o‘xshash va farqli tomonlarini ko‘rsatib beradi.
2.5. Punktuatsiya asoslarini umumlashtirib ifodalaydi.

### 1-masala
### *Tinish belgilarini ishlatish asoslari haqida umumiy tushuncha*

Punktuatsiya asoslari masalasi faqat o‘zbek tilshunosligida emas, balki turkologiyada ham eng aktual muammolardan hisoblanadi. Punktuatsiya asoslari masalasi bilan punktuatsiya tamoyillari masalasini o‘zaro farqlash lozim.

Punktuatsiya asoslari tinish belgilarining qanday nazariy fundament, tayanch, manba zaminida ishlatilishi, punktuatsiya tamoyillari esa ularning qanday usul va tartibda qo‘llanishidir.

Punktuatsiya nutqning (yozma nutqning)ifoda maqsadiga asoslanadi: tinish belgilari yozma nutqda ifodalanishi lozim va zarur bo‘lgan maqsadga bog‘liq holda ishlatilib, ma’lum kommunikativ vazifa bajaradi. Maqsad har bir til grammatik qurilishiga mos ravishda turli xil forma va usullarda ifodalanadi. Shunga ko‘ra, tinish belgilari tillararo har xil qo‘llanadi.

Tilshunoslik tarixiga nazar tashlasak, punktuatsiya asoslarini belgilashda, asosan, uch xil nuqtayi nazar mavjudligini ko‘ramiz. Bu oqimlar puktuatsiyaga turli jihatdan yondoshish, uning asosiy vazifasini turlicha aniqlash tufayli kelib chiqqan.

1.Punktuatsiyaga ma’noni asos qilib olish. Bu oqim vakillari (masalan, S.I.Abakumov, A.B.Shapiro va boshqalar) punktuatsion qoidalarni belgilashda ko‘proq semantikaga-gapning ma’nosiga, mazmuniga – e’tibor beradilar. Tinish belgilarining qo‘llanishini ma’noga bog‘lab izohlaydilar.

2.Punktuatsiyaga grammatik qurilishni asos qilib olish. Ular (masalan, S.Bulich, N.Grech, Sh.Shoabdurahmonov va boshqalar) tinish belgilarining qo‘llanishini aniqlashda ko‘proq gapning sintaktik qurilishiga diqqat qilib, tinish belgilarining ishlatilishini gap strukturasiga bog‘lab izohlaydilar.

3.Punktuatsiyaga intonatsiyani asos qilib olish. Bu oqim tarafdorlari (L.V.Shcherba, A.M.Peshkovskiy, H.Rustamov va boshqalar)punktuatsion qonun-qoidalarni gapning ohangi, intonatsiyasi bilan bog‘lab tushuntiradilar.

Punktuatsiya asoslarini bunday belgilash bir yoqlama bo‘lib, masalaning mohiyatini to‘liq aks ettira olmaydi. Chunki intonatsiya ham, nutqning sintaktik strukturasi ham, gapning mazmuni

ham alohida-alohida olinganda, ya’ni bir-biridan ajratilgan holda, punktuatsiya uchun asos bo‘la olmaydi, chunki bular bir narsaning uch tomoni – bir hodisaning uch xususiyatidir.

Punktuatsiya asoslarini belgilashda nutq mazmuni, strukturasi va intonatsion xususiyatlari bir butun holatda olib qaralishi zarur.

Punktuatsion asosi deyilganda mazkur tildagi punktuatsion qoidalarning tafsiloti va tinish belgilarining qo‘llanishi nimalarga bog‘liqligi,ya’ni ma’lum tayanch (fundament) zaminida muayyan til punktatsiyasining sistemalashuvi tushunilishi lozim.

Hozirgi o‘zbek tili punktuatsiyasining ikki asosi mavjud: 1. O‘zbek tilining gramatik sistemasi; 2. Rus punktuatsiyasi sistemasi.

## 2-masala

## *O‘zbek tilining grammatik sistemasi tinish belgilarini ishlatishning tayanch ilmiy-nazariy asosi sifatida*

O‘zbek punktuatsiyasi, avvalo, o‘zbekcha nutqning grammatik qurilishiga asoslanadi, ya’ni o‘zbek tilining gramatik strukturasi o‘zbek punktuatsiyasi uchun negiz, etakchi asos bo‘lib xizmat qiladi va u o‘zbek punktuatsiyasining o‘ziga xos xususiyatlarini belgilashda muhim ahamiyatga ega. Gramatik qurilish nutqning mazmun, intonatsion va tuzilish jihatlarining bir butunligi (yahlidligi) dir: bunda (nutqdagi semantik-gramatik munosabatning butunligi, dialektik birligi – mazmun va shakl birligi- tushuniladi. Shu yaxlitlik zaminida konkret fikr – maqsad ifodalanadi. Gapdagi mazmun uning ichki tomonini, grammatik holat esa uning tashqi tomonini belgilaydi.[1]

## 3-masala

## *Rus tili punktuatsion sistemasi o‘zbek punktuatsiyasining muhim nazariy asoslaridan biri sifatida*

Rus tili punktuatsion sistemasi, o‘z navbatida, o‘zbek punktuatsiyasining ikkinchi asosi hisoblanadi. Chunki, birinchidan, o‘zbek tilidagi ko‘pchilik tinish belgilari (so‘roq, undov, qo‘shtirnoq, ko‘p nuqta kabi)rus tilidan o‘zlashtirilgan ; ikkinchidan, o‘zbek tilidagi ayrim punktuatsion qoidalar rus punktuatsiyasi qoidalari asosida tuzilgan; uchinchidan, hozirgi kunda rus tili hamdo‘stlik mamlakatlari millatlararo aloqa vositasiga aylangan.

O‘zbek yozuvida tinish belgilarining qo‘shilishida O‘rta Osiyoning Rossiyaga majburan qo‘shib olinishi ko‘plab salbiy oqibatlari bilan birga O‘zbekistonda matbaachilikning paydo bo‘lishiga ham sabab bo‘ldi. O‘zbek halqining ilg‘or rus madaniyati (rus adabiyoti, san’ati va yozuv sistemasi) bilan yaqindan tanishuvi o‘zbek punktuatsiyasi sistemalashuvi uchun zamin hozirladi va uning rivojini tezlashtirdi.

Rus va o‘zbek halqi o‘rtasidagi ijtimoiy – iqtisodiy va siyosiy – madaniy aloqalar Oktyabr to‘ntarilishidan so‘ng yanada rivojlandi: rus tilining ta’siri o‘zbek tilining rivojlanishida, o‘zbek grafikasining sistemalashuvida, orfagrafik va punktuatsiyasi qoidalarini ishlanishida, sintaksisning taraqqiy etishida va ularda punktuatsiya qoidalarining belgilanishida rus tilining ta’siri sezirlarli darajada ko‘rindi.

Keyinchalik rus tili darsliklari asosida o‘zbek tilida darsliklar yaratilishi o‘quv – o‘qituv sohalarida ham punktuatsiyaning takomillashuvini taqozo etdi. Shuningdek, ruscha kitoblar o‘zbekchaga tarjima qilindi: bunda ruscha tekstlardagi ayrim tinish belgilari, shubhasiz, o‘zbekcha tekstlarga ham ko‘chirildi. Bular o‘zbek yozuvida tinish belgilarining keng qo‘llanishida ma’lum omil (vosita) bo‘ldi.

### Muhokama uchun savollar

2.1.1. Punktuatsiya asoslariga nimalar kiradi?

2.4.1. Sodda va Qo‘shma gaplarda tinish belgilarining asoslari qaysi jihatdan o‘xshash va farqli xususiyatlarga ega?

---

1. «Грамматик холат » деганда интонацияни ҳам назарда тутамиз. Чунки интонация синтактик муносабатни ифодаловчи асосий воситалардан биридир.

***O‘zbek tilida tinish belgilarini ishlatish tamoyillari***

1. Tinish belgilarini ishlatishning logik-grammatik tamoyili.
2. Tinish belgilarini ishlatishning uslubiy tamoyili.
3. Tinish belgilarini ishlatishning differentsiatsiya-farqlash tamoyili.

**Darsning maqsadi**: talabalarga tinish belgilari qanday tamoyillar asosida ishlatilishini ko‘rsatib berish.

Identiv o‘quv maqsadlari:

1.1.O‘zbek punktuatsiyasining tamoyillarini tashkil qilishini aytib beradi?

1.2.Punktuatsiya tamoyillarini tushuntirib beradi.

1.3.Punktuatsiya tamoyillarini ko‘rsatib beradi.

1.4.Punktuatsiya asoslari va tamoyillarini farqlaydi.

1.5.Lotin –grammatik tamoyilining etakchi tamoyillarini asoslab beradi.

**Tinish belgilarini ishlatishning logik-grammatik tamoyili**

Punktuatsiya tamoyili tinish belgilarining qanday usul va tartibda qo‘llanishini ko‘rsatadi. Shuning uchun tinish belgilarining qo‘llanishidagi barcha qonun-qoida va tartiblar punktuatsiya tamoyillari asosida belgilanadi; punktuatsiya tamoyillari tinish belgilarining ma‘lum asosiy usullar zaminida sistemalashuvini ta’minlaydi.

Hozirgi o‘zbek tilida tinish belgilarining qo‘llanishiga doir quyidagi tamoyillarni ko‘rsatish mumkin:

1. **Logik-grammatik tamoyil**. Bu tamoyil nutqning semantik-grammatik tomonini aks ettiradi: bunda tinish belgilari gapning (nutqning) mazmuniy, tuzilish va intonatsion jihatlarga bog‘liq holda qo‘llanadi. Shuning uchun logik-grammatik tamoyil quyidagilarga asoslanadi:

1) **nutq mazmuniga**. Bunda tinish belgilarining gap mazmuniga bog‘liq holda qo‘llanishi tushuniladi. So‘roq ma’nosini anglatsa, bunday gaplar oxirigi so‘roq belgisi qo‘yiladi: *Kimning iltimosi bu? Nima gap o‘zi*? Gap habar ma’nosini anglatsa, uning oxiriga nuqta, buyruq yoki turli xil emotsional munosabatlar ifodalasa, undov belgisi qo‘yiladi: *Hamma o‘z vazifasini bajarsin! Yo‘q! Bu iflosni otgan men bo‘laman! Yashashdan yuz asr oltin qafasda – yashash afzal bir oy erkin nafasda!* (Uyg‘un)

Tinish belgilari nutqning ma’no jihatiga ko‘ra ishlatilganda, ular bir gapdagi yoki gaplar orasidagi mazmuniy munosabatni, shuningdek, gap bo‘laklarining va gapdagi ayrim qismlarning ham o‘zaro mazmuniy munosabatini ifodalash uchun xizmat qiladi: *It huradi – karvon o‘tadi.*

2) **nutq tuzilishiga**. Bunda tinish belgilarining gap strukturasiga bog‘liq holda ishlatilishi tushuniladi. Ma’lumki, gaplar tuzilish jihatdan bir necha turli. Shuningdek, gapni tashkil etuvchi vositalar (gapning tarkibiy qismlari) bir-biri bilan turlicha munosabatda bo‘ladi. Bu munosabatlar yozuvda tinish belgilari vositasida aks ettiriladi. Masalan, kiritma konstruktsiyalarning ayrimlari asosiy gap bilan zich bog‘langan bo‘lsa, ba’zilari kuchsizroq bog‘langan bo‘ladi. Shunga ko‘ra, ular birinchi holatda asosiy gapdan qavs bilan (qo‘sh qavs – ikki qavs bilan), ikkinchi holatda tire bilan (qo‘sh tire – ikki tire bilan) ajratiladi.

Gaplar tarkibiy jihatdan murakkab bo‘lib, uning qismlari orasidagi leksik-grammatik munosabatlar ham har xil bo‘lishi mumkin. Bunday holatlarda ham sintaktik munosabat, ulardagi ma’no va ma’no ottenkalari tinish belgilari vositasida aniqlanadi.

Tinish belgilari nutq strukturasiga ko‘ra qo‘llanganda, tubandagi maqsadlarda ishlatiladi: a) uyushiq bo‘laklar munosabatini ko‘rsatish uchun; b) kirish va kiritma konstruktsiyalarni asosiy gapdan ajratib ko‘rsatish uchun; v)gapdagi undov so‘z, tasdiq va inkorni bildiruvchi so‘zlarning asosiy gapdagi o‘rni va leksik-grammatik xususiyatlarini ko‘rsatish uchun; g)ajratilgan bo‘laklarni asosiy gapdan ayirish uchun; d)qo‘shma gap qismlarini ajratish, chegaralash uchun va boshqalar.

3) **nutq intonatsiyasiga**. Bunda tinish belgilarning gap intonatsiyasiga muvofiq ishlatilishi anglashiladi. Intonatsiya sintaktik munosabatni ifodalovchi, gapni shakllantiruvchi asosiy grammatik vositalardan biri bo‘lib, tinish belgilarning qo‘llanishi,o‘z navbatida, intonatsiyaga ham bog‘liq bo‘ladi. Masalan: *Yuring, Ochil o‘quv zaliga borib birpas Begimovni o‘qiylik (ular*

*ko'p fanlarni o'qituvchining nomi bilan atab o'rgangan edilar).* (P.Qodirov) Bundagi kiritma gap pasayuvchi intonatsiya bilan – kirish intonatsiyasi bilan – aytiladi, shunga ko'ra, qavsga olingan; *E, yaqinda rais eshikdan kirsa, qorni derazadan chiqadigan bo'ladi.* (A.Q.) *Baribir kechikdik, eh*! (Yashin) Birinchi gapda undov so'z kuchsiz intonatsiya bilan, ikkinchi gapda kuchli intonatsiya bilan aytilgan, shuning uchun ulardan so'ng ikki xil tinish belgisi (vergul va undov) qo'llangan.

Intonatsiya nutq ohangi, temp, pauza kabi hodisalarni o'z ichiga oladi. Tinish belgilarning gap ohangi, gapdagi emotsionallik va gapdagi pauzalar asosida qo'yilishi intonatsiyaga bog'liqligini ko'rsatadi. Masalan, gapning uyushiq bo'laklari sanash intonatsiyasi bilan aytiladi: bundagi sanash intonatsiyasi uyushiq bo'laklarning bir-biridan qisqa pauzalar orqali ajratib talaffuz etilishidan tug'iladi.

Nutqning mazmuniy, tuzilish va intonatsion jihatlari o'zaro zich bog'liq bo'lib, nutqning har qanday parchasida (gapda) shu uch xususiyat mujassamlashgan bo'ladi. shu jihatdan quyidagi gapni tekshirib ko'raylik: *Xo'p, soat oltiga etib boraman*. (A.Qahhor)Bu gapdagi: a) *mazmuniy jihat*: xabarni anglatish, voqeani konstattsiya qilish; b) *tarkibiy jihat*: sodda gap shaklida, tarkibida gap bo'laklari bilan sintaktik aloqaga kirishmaydigan, tasdiq ma'nosini anglatuvchi so'z (xo'p)bor; v) *intonatsion jihat* : pasayuvchi intonatsiya – darak intonatsiyasi bilan aytiladi, tasdiq bildiruvchi so'z qisqa pauza bilan asosiy gapdan ajratib talaffuz etiladi. Gapdagi bu uch tomonning dialektik birligi quyidagi misollarda ham yaqqol ko'rinadi: Onajonlarim, nechuk shamol uchirdi? (A.q.)Yugur, qo'zim, bolalarni chaqirib kel. (A.Makarenko)Yo'q, yo'q! U menga bir og'iz ham so'z aytmadi! (Sh.R.) U qo'shnisini – bir kampirni – chaqirdi. (A.q.)

## Tinish belgilarini ishlatishning uslubiy tamoyili

**Uslubiy tamoyilda** tinish belgilari nutq uslublariga bog'liq holda ishlatiladi. Ma'lumki, gap shakllari xilma- xil bo'lib, bu holat, asosan, nutq uslublariga ko'ra belgilanadi. Hozirgi kunda tillarning funktsional uslublari rivojlanib, turmushda keng ko'lamda rivojlanishi va turli xil janrlarda ko'plab nashr ishlarining olib borilishi, kishilar madaniy saviyasi va savodxonligining oshishi, shu tufayli ularning nutqning u yoki bu uslubidan o'z faoliyatlarida keng foydalana olishlari punktuatsiyaning taraqqiy etishiga olib keladi va uning uslubiy vazifasini kengaytiradi.

Demak, uslubiy tamoyil tinish belgilarining barcha nutq uslublarida qo'llanish qonuniyatlarini aniqlash uchun xizmat qiladi.

Uslubiy tamoyil keng ma'noda bo'lib, punktuatsiya qoidalarining barcha nutq uslublari uchun mushtarak bo'lgan umumiy qonuniyatlarini belgilaydi. Tinish belgilarining individual uslubga ko'ra qo'llanishi mazkur uslubiy tamoyilning bir ko'rinishi hisoblanadi va shunga asoslanadi.

Uslubiy tamoyil tinish belgilarining qo'llanishidagi nutq uslublariga xos umumiy holatlarni aniqlashda va konkret uslubga doir tipik jihatlarni belgilashda muhim ahamiyatga egadir. Ma'lumki, ko'p nuqta, vergul, nuqta, so'roq va undov belgilari kabi tinish belgilarining qo'llanishi barcha yozuv uslublarida (ilmiy, badiiy, ommaviy –siyosiy kitoblarda, gazeta va jurnallarda) deyarli bir xildir. Lekin ba'zi tinish belgilarining qo'llanishida farqlanadi. Masalan, ilmiy tekstlarda fikrning davomliligini anglatuvchi gaplar oxiriga doim ikki nuqta qo'yiladi. Badiiy asarlarda esa bunday gaplar oxiriga ko'pincha nuqta ishlatiladi; ko'chirma gap o'rtasida kelgan avtor gapi barcha holatlarda (ilmiy,ilmiy-ommaviy, badiiy, publitsistik tekstlarda) ikki tomondan ikki tire va ikki vergul bilan ajratiladi. Gazetalarda esa faqat ikki vergul bilan ajratilishini ko'ramiz. (Gazetalarda tinish belgilarining bunday qo'llanishi ulardan foydalanishda soddalikka, ixchamlikka intilishini ko'rsatdi): Toshkent Deklaratsiyasi, d e y i l a d i ya n a r e z o l yu ts i ya d a, Hindiston va Pokiston halqlarining do'stona munosabatlar o'rnatish yo'lida astoydil qilinayotgan harakatlariga mos bo'lib tushadi.

Nutq uslublariga xos barcha yozma tekstlarda dialoglar tire bilan boshlanganligini ko'ramiz. Ammo drammatik asarda har bir dialog (shaxsning so'zi) tire bilan boshlanmaydi. Bu holat drammatik asarlardagi dialoglarning berilishidagi uslubga ko'ra belgilanadi: drammatik asarda har bir dialogni aytuvchi shaxs alohida – alohida ta'kidlanganligi uchun (dialogdan oldin shaxsning nomi keltirilgan bo'ladi) dialoglarni o'zaro tire bilan ajratishga ehtiyoj qolmaydi.

Individual uslubda tinish belgilari, asosan, turli sub'ektiv maqsadlar, emotsionallik uchun qo'llanadi: Yoz. Quyosh hamma yoqni qizdiradi. (O.) Yoz! Pishiqchilik - to'kinchilik fasli! (U.) Ko'rinadiki, yoz so'zidan tashkil topgan bir sostavli gap orqali ikki yozuvchi ikki xil maqsadni, ikki xil munosabatni ifodalagan. Bu munosabatlar tinish belgilari (nuqta va undov) vositasida reallashtirilgan, ya'ni yozuvchilar tinish belgilaridan o'z maqsadlariga muvofiq foydalanganlar. Lekin bundan «har bir yozuvchi tinish belgilaridan o'z istagicha foydalanaveradi» degan xulosa kelib chiqmaydi. Tinish belgilarining individual uslubga mos ravishda qo'llanishi umumiy normaga, uslubiy tamoyilga bo'ysunadi. Yozuvchining u yoki bu tinish belgisini qo'llashi uning maqsadi, nutq holati (obstanovkasi), qaysi uslubda, qandayi janrda va temada asar yozayotganligi bilan belgilanadi. Masalan, Uyg'unning asarlarida, ayniqsa, lirik asarlarida undov, so'roq,so'roq- undov, undov- ko'p nuqta kabi tinish belgilarining ko'proq qo'llanganligini ko'ramiz:

*Chindan ham bekinib turgan bo'lsa-chi,*
*Keksa majnun tolning soyasida u!...*
*Soyda kim shivirlar? Oh, hayol! Hayol!!*
*Aldama?! Yor bo'lib shivirlama, suv!...* (U.)

Tinish belgilarining qo'llanishidagi bunday holatlar nutq uslublarining vazifasi, strukturasi va spetsifikasiga bog'liq holda aniqlanishi lozim.

***Tinish belgilarini ishlatishning differentsiatsiya-farqlash tamoyili***

Differentsiatsiya tamoyiliga ko'ra, tinish belgilari yozuv texnikasi (formasi)ni farqlash, tinish belgilarining qo'sha qo'llanishidagi tartib va sistemani belgilash, gapdagi murakkab mazmunni konkretlashtirish uchun qo'llanadi. Shuningdek, tinish belgilarining o'z shaklini o'zgartgan holda qo'llanishi ham shu tamoyilga asoslanadi.

Ba'zan jumla boshida yoki oxirida ikki qo'shtirnoqning parallel (barobar) ishlatilishi zarur bo'lib qoladi va bu ikki tinish belgisi ham barobar ishlatiladi. Bunday holatlarda ulardan biri (yonma-yon turgan ikki qo'shtirnoqdan birinchisi) boshqacha shaklda ishlatiladi: « "Q*utlug' qon"romani Oybekning birinchi yirik prozaik asaridir*», - dedi o'qituvchi. Bu misolda birinchi qo'shtirnoq «burchak» shaklida qo'llanib, ko'chirma nutqning boshlanish va tugallanish chegarasini aniq belgilash uchun ishlatilgan; ikkinchi qo'shtirnoq esa, odatdagidek qo'llanib, asarning nomini chegaralab ko'rsatgan.

Agar ikki qavsning birgalikda ishlatilishi lozim bo'lsa, ularning birinchisi katta qavs (kvadrat qavs) shaklida, ikkinchisi esa odatdagidek (kichik qavs) shaklida ishlatiladi: *Ikki komanda [«Paxtakor» (Toshkent) – «Qayrat» (Olma–ota) o'rtasidagi uchrashuv maydon egalarining g'alabasi bilan tugadi.* qavsning ikki xil shaklda ishlatilishi tasodifiy hodisa emas; bu bilan yozma nutqning uslubiy ravonligi, o'zaro aloqador qismlarning chegarasi, sintaktik munosabatlari aniq ko'rsatiladi.

Ilmiy uslubda, jumla ichida so'zlarni qisqartirishda, tsitatalarning manbaini ko'rsatishda, havolalarda, kitob muqovalarida nashriyot nomi va nashr vaqtini ko'rsatishda tinish belgilari differentsiatsiya tamoyiliga asosan ishlatiladi. Masalan: *Toshkent* – 1965 yoki T., 1965; «*Fan*» *nashriyoti, Toshkent – 1966 yoki «Fan» nashr., T.,1966*. Misollardan ko'rinadiki, so'zlar qisqartirilmaganda faqat tire ishlatilsa, ular qisqartirilganda tirening o'rniga ikki tinish belgisi – nuqta va vergul qo'yiladi. Demak, tinish belgilarining yozuv formalariga bog'liq holda odatdagidan farqli ishlatilishi differentsiatsiya tamoyili asosida yuz beradi.

Demak, hozirgi o'zbek tilida tinish belgilari uch tamoyil – logik-grammatik, uslubiy va differentsiatsiya tamoyillari asosida qo'yiladi. Bulardan logik-grammatik tamoyil etakchi bo'lib, keyingi ikki tamoyil shunga asoslanadi.

**Muhokama uchun savollar**

3.1.1. Punktuatsiya tamoyili nima?
3.1.2. O'zbek punktuatsiyasi tamoyillariga nimalar kiradi?
3.1.3. Tamoyil va usulning farqi.

### *4-mavzu*

### *Tinish belgilarni ishlatish qoidalari: tinish belgilarining gap oxirida qo'llanishi*

### *Reja*

1. Nuqtaning gap oxirida qo'llanishi.
2. So'roq belgisining gap oxirida qo'llanishi.
3. Undov belgisining gap oxirida qo'llanishi.
4. Ko'pnuqtaning gap oxirida qo'llanishi
5. Ko'p nuqta, undov va so'roq belgilarning birikkan holda kelishi

**Darsning maqsadi**: talabalarda tinish belgilarining qo'llanish qonun-qoidalari, tartib- usullari , xususan, ularning gap oxirida qo'llanishi to'g'risida aniq tushuncha hosil qilish va ularni chuqurlashtirish

**Identiv o'quv maqsadlari**

1.Berilgan matndagi tinish belgilarining qo'llanish usullarini aniqlaydi.
2.Qaysi usul yetakchi ekanligini asoslaydi.

1-masala

**Nuqtaning** ***gap oxirida qo'llanishi.***

1. Tugallangan darak gaplarning oxiriga nuqta qo'yiladi: Qo'qon tomon ketyapmiz. Hozirgina bizni kuzatib qolgan bu ajoyib inson to'g'risida o'ylayapmiz. Uni birinchi marta korishimiz. Faqat bir soatgina u bilan hamsuhbat bo'ldik. (S.Ahmad) 2. Darak mazmunidagi gaplar tuzilishi jihatidan qanday bo'lishidan (sodda, qo'shma, to'liqsiz, atov, ilova va sh.k.) qat'i nazar, ularning har qanday tipi oxiriga nuqta qo'yiladi: Har yil bir keladigan bahor sevinchi yana ko'ngillarni qitiqlay boshladi. (Cho'lpon) Dunyoda qanday yaxshilik va xayriyatlik bo'lsa, hammasini shu birgina qizi uchun istarva orzu qilardi. (Cho'lpon) Qo'chqor: Bolalaring qani? Qumri: Maktabda. Undan chiqib, to'g'ri shu yoqqa kelishadi. (Sh.Boshbekov) Shavkatning xonasi. Karavotda Binafsha pishillab uxlab yotibdi. (Sh.Boshbekov) Jalil aka deraza tagida yotardi. To'shakda. Bolishi baland. (Sh.Xolmirzayev) 3. Agar alohida emotsionallikka ega bo'lmasa, buyruq gaplar oxiriga nuqta qo'yiladi: Foyda chiqadigan tomonini ko'zlayvering. (A.Qahhor) Bolalarga biron narsa olib ber. (A.Qahhor) Erkalikni Begimqulga qiling. (O.Yoqubov) Eson-omon xizmatni bajarib kel. (O.Yoqubov) 4. Gaplar sarlavha vazifasida qo'llanganda, darak (va nominativ) mazmunida bolishiga qaramasdan, ularning oxiriga nuqta qo'yilmaydi: Mustaqillik o'zlikni tanimoqdir (B.Qosimov); Ular xalqning yuragida yashaydi. Ammo sarlavha ikki gap (qism)dan iborat bo'lsa, mazmun shuni talab qilsa, birinchi qismdan keyin nuqta qo'yiladi: Hukmlarning son va sifat jihatidan birlashgan klassifikatsiyasi. Hukmlarda terminlarning bo'linishi («Logika» o'quv qo'llanmasi). 5. Muayyan tasnif tarkibidagi tartibni bildiruvchi raqamlardan keyin nuqta qo'yilgan bo'lsa, bu raqamlar bilan ko'rsatilgan gaplardan keyin ham nuqta qo'yiladi: Kelishik shaklidagi so'zlar gapda boshqa so'zlar bilan quyidagicha munosabatda bo'ladi: 1. Qaratqich kelishigi ot bilan otni grammatik aloqaga kiritadi: kitobning varag'i, odamning gavdasi. 2. Tushum, jo'nalish, o'rin, chiqish kelishiklari otni fe'l bilan aloqaga kiritadi: kitobni o'qidi, bozorga bordim, maktabda ko'rdim, institutdan keldim. («Hozirgi o'zbek adabiy tili» darsligi.) Ammo mazkur tartibni bildiruvchi raqamlar (yoki harflar) qavs bilan ajratilgan bo'lsa, ular bilan ko'rsatilgan gaplarning so'ngisidan boshqalari oxiriga nuqta emas, balki nuqtali vergul (ba'zan vergul) qo'yiladi: Dialektologiya fanining obyekti mahalliy lahja va shevalar bo'lib, maqsadi va vazifasi quyidagilardan iborat: 1) ayrim sheva va dialektlarning fonetik, morfologik, sintaktik va leksik xususiyatlarini har tomonlama tavsif qilish; 2) milliy tilning paydo bo'lishi va taraqqiyotida shevalarning tutgan o'mini va shu milliy tilga asos bo'lgan shevalarni aniqlash; < ...> 5) umumiy o'xshash lingvistik xususiyatlarini belgilash asosida shevalaming ma'lum hududlarda tarqalish xaritalarini tuzish va shevalarni tasnif qilish. («O'zbek dialektologiyasi» darsligi.)

2-masala

**So‘roq belgisining gap oxirida qo‘llanishi**

1. So‘roq mazmunidagi gaplar oxiriga so‘roq belgisi qo‘yiladi: Hay, nima bu hammayoq jimjit bo‘lib qoldi? Zebinisaxon qanilar? Saltanatxon, aylanay, o‘rtoqjoningizni topmaysizmi? (Cho‘lpon) Odamlar ko‘ngliga Sen ham bitta nihol ekdingmi? Bahra ololdimi bir zot yuragi? Biror qalb g‘uborin yuva oldingmi? Sen ham o‘z she'rlaring zamiridagi Sho‘r suvlarni quva oldingmi? (E.Vohidov) 2. So‘roq mazmunidagi gaplar qanday vositalar yordamida shakllangan bo‘lishidan (so‘roq olmoshlari, so‘roq-taajjub yuklamalari, so‘roq intonatsiyasi va sh.k.) qat'i nazar, ularning har qanday ko‘rinishi oxiriga so‘roq belgisi qo‘yiladi: Sizlar amal talashgan chog‘da Kim turg‘izar burchakka sizni? (E.Vohidov) Janob Pakavira, Hindistonga qachon kelgansiz? Uch yil? Uch yildan buyon qayerda istiqomat qilmoqdasiz? (P.Qodirov) - Xo‘p, Binafsha. Familiyasi? -A ? .. Kimni?.. - O‘zingizning bolangizmi, axir? (Sh.Boshbekov) Yo‘q, familiyangiz? Qurbonov? Aha, yaxshi, yaxshi! Sog‘liq qalay, o‘rtoq Qurbonov? Otday bo‘lib yuribsizmi? (TMurod) lchingda armonlaring bordir, axir? (S.Ahmad) 3. So‘roq mazmuni ifodalangan sodda gaplaming ham, qo‘shma gaplaming ham oxiriga so‘roq belgisi qo‘yiladi: Sen... bu yerda nima qilib yuribsan? (O.Yoqubov) Esingizdami, bir marta ikkalamiz yalpiz tergan edik? (OMJmarbekov). Ammo gapda kuchli emotsionallik, hishayajon mavjud bo‘lganda, so roq belgisidan keyin undov belgisi ham qo‘yiladi: **Qachon jilovlab qo‘yiladi bu ig‘vogar, g‘alamislar-a?!** Qachon bartaraf bo‘ladi bu anonimchilar-a?! (TMurod) O‘tgan bozor kuni yegan anoringni o‘ynashing olib kelganmidi?! (A.Qahhor) Asqarali tog‘a, bas endi, shu choyni ichaymi-yo‘qmi?! (T.Malik) O‘g‘lingiz ot olmoqchi edi bu pulga, sizda insof degan narsa bormi?! (T.Malik) 4. Qo‘shma gaplar (bog‘lovchisiz bog‘langan, bog‘- lovchili bog‘langan, ergashgan) komponentlarining har ikkisida ham so‘roq mazmuni ifodalanishi mumkin, ammo so‘roq belgisi faqat yaxlit qo‘shma gapning oxiriga qo‘yiladi: Nega yerda uchrashdilar bu ikki malak, Nega suhbat qurmadilar fazolar aro? (E.Vohidov) O‘rniga kim ekan - bilsak bo‘ladimi? (E.A’zam) Biz, rahbariarga ishonasizmi yo mana shunga o‘xshagan podachiga ishonasizmi? (T.Murod) Bu o‘zingning fikringmi yo biror ko‘rsatma bormi? (T.Malik) Rang-ro‘yingga nima bo‘ldi, tuzukmisan o‘zi? (E.A’zam) 5. Qo‘shma gaplar (bog‘lovchisiz bog‘langan, bog‘- lovchili bog‘langan, ergashgan) komponentlarining faqat bittasida so‘roq mazmuni ifodalanishi mumkin, ammo so‘roq mazmunini ifodalagan komponentning oldin yoki keyin turishidan qat'i nazar, so‘roq belgisi yaxlit qo‘shma gapning oxiriga qo‘yiladi: Otasi ham hayron: kimga tortgan bu qiz? (0 ‘.Hoshimov) Avval menga ayting, shu qishloq qizidan olim chiqadimi? (S.Ahmad) Shu ahvolda o‘lib-netib ketsang, shuncha bola chirqillab qolishini o‘yiadingmi? (S.Ahmad) Darhaqiqat, tuyaning ustiga g‘am yukini ortsa, nega kofirlar ozod bo‘iadi? (S.Ahmad) Esingizdami, bir marta ikkalamiz yaipiz tergan edik? (OMJmarbekov) Jalil ota karaxt tortib qoldi: qayoqdan paydo bo‘idi bu dard? (Sh.Xolmirzayev) Qanday donishmand odamsizki, qalbimni darhol bildingiz? (Sh.Xolmirzayev) 6. Ritorik so‘roq gaplar oxiriga, asosan, so‘roq belgisi qo‘yiladi: Biron orzusi bo‘lmagan, biron narsaga intilmagan odamning mushukdan nima farqi bor? (A.Qahhor) Ammo gapda kuchli emotsionallik, his-hayajon mavjud bo‘lganda, so‘roq belgisidan keyin undov belgisi ham qo‘yiladi: Xalqini sevgan qaysi farzand Vatanini ozod ko‘rishni xohlamaydi?! (E.A’zam) 7. So‘roq mazmunidagi gaplar sarlavha vazifasida qo‘llanganda, ulardan keyin so‘roq belgisi qo‘yiladi: Toshpo‘lat tajang nima deydi? (A.Qodiriy) Shamol nimadan paydo bo‘ladir? (Cho‘lpon) Men nechun sevaman O‘zbekistonni? (A.Oripov) Vatanni nega sevadilar? (B.Qosimov) 0 ‘zbekistonda kim yaxshi yashaydi? (ShJabborov) 8. O‘zganing fikr-mulohazasiga shubha yoki e'tiroznorozilikni ifodalash uchun ba'zan matnda mazkur fikrmulohaza bayon qilingan iqtibosdan keyin qavsga olingan so‘roq belgisi qo‘yiladi: Nasriyifoda bo‘lsa: «BuZarafshon daryosi tepalikda joylashgani uchun (?) «Ko‘hak» deb 53 www.ziyouz.com kutubxonasi pot berdilar... Shu tepalikdan pastga qarab quyilgani uchun ham (?) Zarafshonni Ko‘hak daryosi deydilar»( 104- bet). Samarqand Afrikada yoinki Amerika qit'asida emas, shundaygina ikki qadam joyda, ko‘pchiligimiz ko‘rganmiz va Zarafshonning

qayerdan, qanday oqishini bilamiz. Hech zamonda daryo tepalikdan pastga qarab oqqanmi? (N.Komilov. «Tarjimami yo talqin?» maqolasi.)

**3-masala**
**Undov belgisining gap oxirida qo‘llanishi**

1. Undov gaplar oxiriga undov belgisi qo‘yiladi: Buni qarang, unashtirishni to‘y deb yursa-ya! Qo‘ying, domlasi, hozir unashtirishdan ham aynidim! Vaqt-soati yetganda bo‘lar! Vaqt-soati yetganda, kuyovni 0‘zingiz topasiz! To‘yga o‘zingiz bosh bo‘lasiz! (A.Qahhor) 2. Tarkibida emotsionallikni kuchaytiradigan qanday, qanchalik, qanchalar, qanaqa, naqadar, muncha, bunchalik kabi so‘zlar mavjud bo‘lgan gaplar oxiriga undov belgisi qo‘yiladi: Yashash qanday yaxshi, tag‘in shunday katta, go‘zal shaharda! (0 ‘.Umarbekov) Qara, u qanday yaxshi yigit! (0 ‘.Umarbekov) Hayot! U naqadar murakkab va naqadar uiug‘! (0 ‘.Umarbekov) Bu yo‘l naqadar ulug‘, sehrli va muqaddasdir! (U.Hamdam) Chand bibi Humoyunga tegmasdan oldin qanchalik sho‘x va quvnoq edi! (P.Qodirov) Muloyim qo‘Harda ivib, suvga aylangandan keyin go‘zal ko‘zlarning supasida yonboshlashni muncha yaxshi ko‘rar ekan bu ko‘kat! (Cho‘lpon) Ohanrabongiz bunchalik zo‘r bo‘lmasa! (E.A’zam) 3. Emotsionallik darajasi kuchli bo‘lgan ritorik so‘roq gaplar oxiriga ba'zan undov belgisi qo‘yiladi: Ona o‘z bolasiga yomonlikni ravo ko‘radimi! (A.Qahhor) 4. Buyruq, talab, undash mazmuni emotsional shaklda buyruq maylidagi fe'l yoki boshqa vositalar orqali ifodalangan buyruq gaplar oxiriga undov belgisi qo‘yiladi: Shukur qiling! Sevining! Mundoq bir kuling! Kulimsirang! Iljaying! (Cho‘lpon) Baxt xususida uni yanglishtirmang! Yanglishtirmang qiz bechorani! (A.Qahhor) Qizingizning baxtini birovlarning ostonasidan qidirmang! (A.Qahhor) Oyijon, qani, bu yoqqa! (S.Ahmad) 5. His-hayajon intonatsiyasi bilan talaffuz qilingan nominativ gaplar oxiriga undov belgisi qo‘yiladi: Favqulodda manzara! (Kitlar osmonda uchib ketayotgan turnalar kabi o‘tkir uchburchak hosil qilib suzib borishar edi.) (Ch.Aytmatov) Ana turmush! Ana kuyov-qayliq! (Poshshaxon bilan Sultonxon qayliq bo‘libdimi?) (Cho‘lpon) Shunday go‘zalga musht ko‘tarish! (O.Yoqubov) Ammo bu og‘riq, bu xo‘rliklarga chidamoq! (E. A'zam) 6. Murojaat obyektini ko‘rsatuvchi, ya'ni vokativ gaplar odatda emotsionallikka ega bo‘ladi va ular oxiriga undov belgisi qo‘yiladi: Ona tilim! Mehring bu qadar O‘rtaguvchi ekan jonimga. (E.Vohidov) Do‘stlar! Siz ham Matmusa Hikmatin unutmanglar. (E.Vohidov) Enaxon! Jonim o‘rtog‘im! Bormisiz? (Cho‘lpon) 7. Emfatik urg‘u olgan so‘zni emotsionallikni kuchaytirish maqsadida takrorlash holatlari mavjud bo‘lgan gaplar oxiriga undov belgisi qo‘yiladi: Ha, otsurmoq darkor, ot surmoq! (O.Yoqubov) Yonib yasha to tanda jon bor, Quyosh bo‘lgin, azizim, quyosh! (E.Vohidov) Zebixonni qarang, Zebixonni! (Cho‘lpon) 8. Emotsionallikni kuchaytirish maqsadida bo‘laklari inversiv holatda (odatdagi tartibdan farqli) qo‘llangan gaplar oxiriga undov belgisi qo‘yiladi: O‘lganim yaxshi mening! - dedi u. - Ko‘ngildagidek bir siylay olmasam mehmonlarimni! (Cho‘lpon) Orzusiga endi yetdi u! (0 ‘.Umarbekov) 9. Undovlar alohida gap vazifasida kelganda, undan keyin undov belgisi qo‘yiladi: Oh! U yoqda xo‘rladilar, bu yoqda kaltakladilar (R.Haydarova) Hoy! Ovqatlaringdan darak bormi? (0 ‘.Umarbekov) Obbo! Yana kutarkanmizda! (0 ‘.Umarbekov) Kisht! Kisht-e, qirilibgina ketgur!.. (Sh.Boshbekov) 10. Tarkibida his-hayajon undovlari mavjud bo‘lgan gaplarda emotsionallik yorqin ifodalanadi va bunday gaplar oxiriga undov belgisi qo‘yiladi: O ayol qalbi! Dunyoda 55 www.ziyouz.com kutubxonasi mavjud barcha fojialar sel bo‘lib yopirilsa chidar-u, ammo erining xiyonatiga sira-sira chiday olmas! (T.Malik) Ey Odam farzandlari! U o‘limni va hayotni sizlarning qaysi bidaringiz amalda yaxshiroq ekanliklaringizni sinash uchun yaratgandir. (T.Malik) Eh, xo‘rlik qursin! (Oybek) O‘sha lahza ona bilan farzand orasi, Oh, naqadar yaqin edi, naqadar uzoq! (E.Vohidov) 11. Salomlashish-xayrlashish, tabrik, minnatdorlik, tashakkur, uzrxohlik, ma'qullash, rag‘batlantirish kabi muomala odatlarini bildiradigan gaplarda ham ko‘pincha emotsionallik yorqin ifodalanadi va ularning oxiriga undov belgisi qo‘yiladi: Men ketdim! Xayr! (0 ‘.Hoshimov) Xayriyat! (Bu kimsasiz orolda bittagina insofli tirik odam bor ekan!) (T.Malik) Marhamat! (Ulug‘sifat bo‘lib ko‘rinish uchun — o‘ttiz yoshdaman demoqchi edi.) (Ch.Aytmatov) Ofarin! Haq gapni aytayotir! (Ch.Aytmatov) (Bunga

chidash mumkinmi?!) Yo‘q! (T.MaPk) Balli! Ot aylanib qozig‘ini topadi! (A.Qahhor) Awalambor, to‘ylaring muborak bolsin! (Sh.Xolmirzayev) 12. Gapda emotsionallik darajasining behad ortiq ekanligini ko‘rsatish uchun ba'zan gap oxiriga birdan ortiq (uchtagacha) undov belgisi qo‘yilishi mumkin: Voydod! AyajonH - qichqirdi kimdir. - Meni tashlab ketmang, ayajon!!! (OMJmarbekov) Ha, men o‘g‘riman!!! Shu yo‘l bilan kun ko‘raman! Sen tug‘ilguninggachayam shunaqa edi (Sh.Boshbekov) 13. Undov gaplar sarlavha vazifasida qo‘llanganda ham ularning oxiriga undov belgisi qo‘yiladi: Ko‘klam keladir! (Cho‘lpon. She'r sarlavhasi) Qovun tushiray debman-ku! (S.Ahmad. Hajviy hikoya sarlavhasi) 14. 0 ‘zganing fikr-mulohazasiga muallifning o‘ta ma'qullash, alohida ta'kidlash, rozilik yoki kinoya,achchiqlanish, ajablanish munosabatini ifodalash uchun ba'zan matnda mazkur fikr-mulohaza bayon qilingan iqtibosdan keyin qavsga olingan undov belgisi qo‘yiladi: Iqtisodiy yuksalish natijasida, turmush darajasi sezilarli ravishda yaxshilangan - onalar o‘limi 2 barobar, bolalar o‘limi 3 barobar kamaygan, odamlarning o‘rtacha umr ko‘rishi 67 yoshdan 73 (!) yoshga, jumladan, ayollarning o‘rtacha umr ko‘rishi 75 (!) yoshga yetgan. (AJbrohimov. «Umrimiz boqiydir, boqiy!» maqolasi) Lekin bu fikdarga kelguncha she'rning markaziy qismidagi vaqtning yangi tufli kiyib o‘tishi-yu lirik qahramonning eti (!) eski tuflilardek teshilib ketishi nimani anglatadi, harchand tirishmay, idrok etolmadim. (B.Nazarov. «Yigirma yoshdagi shoirlarimiz» maqolasi.)

**4-masala**

**Ko‘pnuqtaning gap oxirida qo‘llanishi**

1. Mazmunan tugallanmagan darak gaplar oxiriga ko‘pnuqta qo‘yiladi: To‘yni kelasi yil qilsak qilarmiz... (A.Qahhor) Poyezdga bilet olib qo‘ygan bo‘lsak, poyezd uch soatdan keyin ketsa... (A.Qahhor) Bo‘lmasa, kunda nima ayb, xudoning hamishagidek karami keng birkuni... (A. A'zam) 2. Gapdagi turli uzilishlarni ko‘rsatish uchun ko‘pnuqta qo‘yiladi: Hay-hay, ukam, shundoq baobro‘ odam sizni ko‘rgani kelsa-yu, siz xursand bo‘lish o‘rniga... (A. A'zam) 3. Gap muallifining o‘ylanib qolish, ikkilanish, hayajonlanish kabi holatlarini ko‘rsatish uchun ko‘pnuqta qo‘yiladi: 0 ‘zing tengi bolalar lager palatkalarida maza qilib uxlab yotganida, sen suv sepib, uoChka supurishing... Nima desam ekan... Sal alam qiladi kishiga. (0 ‘.Hoshimov) Mayli, chavgonni... ertaga peshindan so‘ng tamosho qilg‘aymiz. (P.Qodirov) Hazratim, ijozat bering, - dedi. - Men qizni... ko‘rib, rizoliginiolmaguncha... kimliginiaytmay turay. (P.Qodirov) 4. Nutqda kutilmaganda bir fikrdan boshqasiga o‘tib ketishni ko‘rsatish uchun gapda ayni o‘tish o‘rniga ko‘pnuqta qo‘yiladi: Seni siypab, erkalatib, Asta-sekin ko‘kartirgan Go‘zal ko‘klam... o‘tib ketdi. (Cho‘lpon) Yarim kechada uyga qaytsam... hammayoq jimjit. (0 ‘.Hoshimov) 5. Gapda berilgan sanoqdagi qatorni yana davom ettirish mumkinligini, uning tugamaganligini ko‘rsatish uchun ko pnuqta qo‘yiladi: Gullarning nomini juda topib qo‘yishadi-da, - dedi, - tugmachagul, gulibeor, qirqog‘ayni, oqqaldirg‘och... (N.Eshonqul) Bolaligimda ko‘p kasal bo lardim: qizamiq, ko‘kyo‘tal, bezgak... (0 ‘.Hoshimov) 6. Mazmuni aniq ochilmagan gaplardan keyin ko‘pnuqta qo‘yiladi va undan keyin shu mazmunni ochadigan gap keltiriladi: 1914-yil... Shu yildan o‘zbek she'riyati osmonida «Cho‘lpon» degan mitti yulduz charaqlay boshladi. (N.Karimov) 7. Matnda muayyan sabab bilan uzilib qolgan fikr bayonining davom ettirilganini ko‘rsatish uchun gap boshiga ko‘pnuqta qo‘yiladi: ...Bolaligimni eslasam, iliq yoz kechalari ko‘z oldimga keladi. (0 ‘.Hoshimov) ...Bu tushning oxiri emas edi. Bu ibtidosi edi. (N.Eshonqul) 8. Sarlavha vazifasida qo‘llangan gaplardan keyin mazmun taqozosiga muvofiq ko‘pnuqta qo‘yiladi: Bir yigit kuylar ekan... (Oybek. She'r sarlavhasi) Yoshlikni eslab... (Oybek. She'r sarlavhasi) Iztirob ekan-ku muhabbat!.. (X.Do‘stmuhammad. Hikoyalar turkumining nomi.)

5-masala

**Ko‘p nuqta, undov va so‘roq belgilarning birikkan holda kelishi**

1. So‘roq mazmuniga qaraganda his-hayajon kuchli bo‘lgan so‘roq gaplardan keyin undov va so‘roq belgisi birikkan holda (!?) qo‘yiladi: *Go‘zallik olamni qutqarishiga kim ishonmaydi!?*

2. Kuchli his-hayajon bilan berilgan savolni ifodalaydigan so‘roq gaplardan so‘ng so‘roq va undov belgisi birikkan holda qo‘yiladi: - *A?! – Xonkeldieva turgan erida surat bo‘lib qoldi. - Direktorimiz-a?! (H.G‘.)*

3. Kuchli his-hayajon ifodalangan va mazmunan tugallanmagan gaplardan keyin undov belgisi va ko‘p nuqta birikkan holda (!..) qo‘llanadi: *-Nafisa!.. Nafisaoy!.. – dedi Aziz o‘pkasi yumshab, ko‘zlariga qaynoq yosh keldi.(H.G‘.)*

4. Mazmunan tugallanmagan so‘roq gaplardan so‘ng so‘roq belgisi va ko‘p nuqta birikkan holda (?..) ishlatiladi: - *Nima dedingiz? Bularning hammasi men uchun?...*

***5- mavzu***

***Tinish belgilarining gap ichida qo'llanishi. Ko'chirmali nutq birliklarida tinish belgilarining qo'llanishi.***

Reja

1.Vergulning gap ichida qo'llanishi.
2.Nuqtali vergulning gap ichida qo'llanishi.
3.Tirening gap ichida qo'llanishi.
4.Ikki nuqtaning gap ichida qo'llanishi.
5.Qavsning gap ichida qo'llanishi.
6.Qo'shtirnoqning gap ichida qo'llanishi.
7.Ko'chirma gapli qo'shma gaplarda tinish belgilarining qo'llanishi.
8. Ko'chirma va dialoglarda tinish belgilarining qo'llanishi.

***1-masala***

***Vergulning gap ichida qo'llanishi.***

1. Gapda bog'lovchisiz, tenglanish intonatsiyasi bilan bog'langan uyushiq bo'laklar bir-biridan vergul bilan ajratiladi: Kitob, qalam, daftarbo'lsin yo'ldoshing. (Habibiy) Bir kuni avliyoning huzuriga baland bo'yli, uzun sochlari yelkasiga tushgan, yalangoyoq bir odam kirib keladi. (LSulton) Stolga ikkita muzqaymoq, bir shisha limonad, ikkita bo'sh stakan qo'yildi. (Sh.Boshbekov) 2. Zidlovchi teng bog'lovchilar vositasida bog'langan uyushiq bo'laklar ishtirok etgan gaplarda mazkur bog'lovchilardan oldin vergul qo'yiladi: Dadam sekin, ammo tahdidli ohangda dedi. (0 '.Hoshimov) Oqto'sh Xo'jayinning rahmi kelayotganini, lekin ilojsiz ekanini tushundi. (B.Murod Ali) Mingboshi bu birgina, lekin kutilmagan so'zga biroz hayron bo'ldi. (Cho'lpon) 58 www.ziyouz.com kutubxonasi 3. Takror qo'llanuvchi teng bog'lovchi yoki bog'lovchi vazifasidagi birliklar (biriktiruvchi, ayiruvchi, inkor) vositasida bog'langan uyushiq bo'laklar vergul bilan ajratiladi: Odam bir uoCha ham muhabbatidan, ham do'stidan ajralib qolsa yomon bo'larkan. (0 '.Hoshimov) Yo qayg'u, yo sevinch ko'zga berar yosh. (LMirzo) O'ldiradir bir kun meni yo unisi, yo bunisi. (A.Obidjon) Oyim goh menga, goh Hoji buvaga qarar edi. (OLHoshimov) Yo'lchi ba'zan yolg'iz, ba'zan o'z yoniga birovni hamroh qilib, suv keltirar edi. (Oybek) Bunda bor na ofat, na g'urbat, na g'am. (G'.G'ulom) Lekin hozir bu haqda o'ylashga uning na imkoni, na xohishi boredi. (OLUmarbekov) 4. Murojaat obyektini ifodalovchi undalmalar gapning boshida kelganda, undan keyin, gap o'rtasida kelganda, har ikki tomonidan, gap oxirida kelganda esa undan oldin vergul qo'yiladi: O'g'lim, gapimga diqqat bilan quloq sol. (LSulton) Xudoning dargohi keng, o'g'lim, tavba qil. (LSulton) 0 'zingiz ayta qoling, Matlubaxon. (O.Yoqubov) 5. Undovlar gapning boshida kelganda, undan keyin, gap o'rtasida kelganda, har ikki tomonidan, gap oxirida kelganda esa undan oldin vergul qo'yiladi: Ajabo, sening qismating biznikidan farqli emasmidi? (LSulton) Voy, muncha ochilib ketibsan! (O.Yoqubov) Kuzatishda foydalaniladigan zamonaviy uskunalaming rivojlanib ketgani esa, eh-he-e, alohida mavzu. (X.Do'stmuhammad) Shu tobda bir g'aram bedaning ustiga chiqib cho'zilsang bormi, oh, buning gashtiga nima yetsin! (M.Mansur) Vaqtsoati yetganga o'xshayapti, uf-f. (X.Do'stmuhammad) Ammo gapda undalmalardan oldin kelgan undovlar odatda undash, murojaatni kuchli darajada ifodalash uchun xizmat qiladi, shuning uchun undalmalar oldidan kelgan undovlardan so'ng odatda vergul qo'yilmaydi: Kel, ey Furqat, suxanni muxtasar qil. (Furqat) Ey qotil, nega shunday azim terakni nobud qilding? («El desa Navoiyni» kitobi.) Kunlar g'animat, e og'a, bu davr-u davron qaytmagay. (A.Obidjon) Hoy egachi, shu yerlikmisiz? (0 '.Hoshimov) Chuh jonivor, chuh (Ch.Aytmatov) 6. Kirish so'z va kirish birikmalar (so'zlovchining bayon qilinayotgan fikrga munosabatini ifodalaydi) gapning boshida kelganda, undan keyin, gap o'rtasida kelganda, har ikki tomonidan, gap oxirida kelganda esa undan oldin vergul qo'yiladi: Afsuski, u haqiqatning yuza qatlaminigina ko'ra oldi. (LSulton) Nihoyat, mo'ljallagan joyiga yetib keldi. (Sh.Boshbekov) Juvonning toqati toq bo'ldi, shekilli, dumalayotgan o'g'lini yerdan yulqib ko'tardi. (0 '.Hoshimov) Oftobni ona deyishlari, ehtimol, shundandir. (0 '.Hoshimov) Hali hech kim bilmaydi, menimcha. (A.Namozov) Ulaming fikricha, Akbaming shuhrati va obro'si davlat manfaatlariga xizmat qiladi. (P.Qodirov)

Ma'lumotlarga ko‘ra, o‘smidar olamidagi jinoyatning 70 foizi aynan shu badmastlik oqibati ekan. (T.Malik) Mavlono Majdiddinning aytishiga ko‘ga, xazinada atigi ikki tuman ham pul qolmabdur. (LSulton) Ko‘p emas, bir-ikki kun birga ulfatchilik qilib, o‘z ta'biri bilan aytganda, «jinnilik» qilib ketadi. (O.Yoqubov) 7. Kirish gaplar (so‘zlovchining bayon qilinayotgan fikrga munosabatini ifodalaydi) ham asosiy gapning boshida kelganda, undan keyin, o‘rtasida kelganda, har ikki tomonidan, oxirida kelganda esa undan oldin vergul qo‘yiladi: O‘ylab qarasam, pastkashlikning katta-kichigi bo‘lmas ekan. (Said Ahmad) O‘zingiz bilasiz, nimaiki yangi gap chiqsa, avval shofyor xalqi biladi. (S.Ahmad) Men sizga aytsam, o‘rtoq Eshquvvatov, asrimizning o‘ziga xos kasalliklaridan biri ham shu... asab kasalligi bo‘lyapti. (Sh.Xolmirzayev) Bamisoli qalam emas, men sizga aytsam, ovozsiz o‘qday gap bu. (A.Muxtor) Chorva ham, o‘zingiz bilasiz, haminqadar. (S.Ahmad) Bir parcha qog‘ozga yozilgan jo‘ngina xat har qanday odamning boshiga yetardi, men sizga aytsam. (A.Muxtor) Sizni dog‘da qoldirmaydi, ishonavering! (ILUteuliyev) 8. Gapda qani, nima, xo‘sh kabi so‘zlar gap bo‘laklari bilan grammatik aloqaga kirishmagan holda turli modal ma'no nozikliklarini ifodalashga xizmat qilib, asosiy gapning boshida kelganda, undan keyin, o‘rtasida kelganda, har ikki tomonidan, oxirida kelganda esa undan oldin vergul qo‘yiladi: Qani, Yo‘ldoshali, oshga 60 www.ziyouz.com kutubxonasi qarang. (O. Jorqinboyev) Nima, men go‘dakmidim? (Sh. Xolmirzayev) Men qachon non-u tuz ko‘tarib, yovuzlarga peshvoz chiqqan ekanman, qani, ayt! (A. Muxtor) Xo‘sh, nima qilish kerak endi? (Sh. Xolmirzayev) Suvi bir xil, yeri bir xil, lekin ikkita baravarini topib ber, qani? (A.A’zam) Tushundim, xo‘sh? (T. Murod) Ba'zan mazkur so‘zlar yonma-yon kelsa, ular ham birbiridan vergul bilan ajratiladi: Xo‘sh, qani, bizga qanday xabarlar keltirdingiz? (E.Vohidov) Qani, xo‘sh, masalan, choynakning qopqog‘ini ruscha nima deydi? (A.Qahhor) 9. Salomlashish-xayrlashish, tabrik, minnatdorlik, tashakkur, uzrxohlik, ma'qullash, rag‘batlantirish kabi muomala odatlarini bildiradigan so‘z va qoliplashgan birikmalar gap boshida kelsa, undan keyin, o‘rtasida kelsa, har ikki tomonidan, oxirida kelganda esa undan oldin vergul qo‘yiladi: Salom, Amirqul aka, hormang! (O‘. Umarbekov) Xayr, siz bilan kechqurun ko‘rishamiz. (T. Malik) Uzr, tajribasizlik qilibman. (A. Meliboyev) Og‘ayni, tegib ketgan bo‘lsa, uzr, kechiring. (A. Obidjon) Rahmat, do‘stlar, buning hojati yo‘q. (P. Qodirov) Marhamat, keling, o‘rtoq Abdurahmonov! (Sh. Xolmirzayev) Xudoga shukr, qo‘shnilarim tillo odamlar. (T.Malik) Shukur, sog‘, ba'zi ishlar bilan bo‘lib kelolmadi. (A. Qodiriy) Men esam, shukur, yuzdan o‘tdim. (A. Abdullayev) 10. Gapda tasdiq (ha, xo‘p, mayli) va inkor (yo‘q) ni bildiradigan so‘zlar alohida gap yoki gap bo‘lagi vazifasida qo‘llanmagan va boshqa gap bo‘lagi bilan grammatik aloqaga kirishmagan hollarda ular vergul bilan ajratiladi: Ha, balli, buni fahmlab yetibsan. (T.Malik) Xo‘p, men shug‘ullanaman bu bilan. (0 ‘.Umarbekov) Mayli, yaxshi o‘qish bo‘lsa, bora qolsin. (0 ’.Umarbekov) Yo‘q, u ertaga uchrashuvga bormaydi. (O.Yoqubov) Sen-ku, mayli, o‘zimiznikisan. (U.Hamdam) Tasdiq bildiruvchi so‘zlar yonma-yon qo‘llanganda, ular vergul bilan ajratiladi: Ha, mayli, bir piyola choy ichsak ichibmiz-da. (U.Hamdam) Xo‘p, mayli, agar Otani sizning makoningizga olib borsam, yaxshi kuta olasizmi? (O.Yoqubov) 61 www.ziyouz.com kutubxonasi 11. Gapda takrorlangan so‘zlar orasiga vergul qo‘yiladi: Qani, qani, mehmonlarning qo‘iiga suv quyvoringlar. (A.Obidjon) Kelib, mana, Farhodning uyqusini buzishibdi, uzr, uzr. (E.A’zam) Rahmat, rahmat, o‘zlari ko‘raversinlar. (E.A’zam) Hozir, hozir mo‘yqalamni olaman-u... mana bunday qilib... (OJorqinboyev) Bas, bas! Buyog‘ini eshiting, opa. (Sh.Xolmirzayev) Yo‘q, yo‘q, siz meni jentlmenlik yoshidan o‘tgan deb o‘ylamang. (P.Qodirov) 12. Muayyan ikkinchi darajali bo‘lakni mazmun va mantiq jihatidan odatdagiga qaraganda kuchli, ta'sirli, emotsional qilib berish, uning ma'nosini izohlash, aniqlashtirish maqsadi bilan mazkur bo‘lak gapda ajratiladi va bunday ajratilgan bo‘laklarning har ikki tomoniga odatda vergul qo‘yiladi (ba'zan ifoda maqsadiga muvofiq tire ham qo‘llanadi, bu haqda quyiroqda aytiladi): Enaxonning onasi, o‘zi pakana va uning ustiga bukchaygan kampir, o‘yin qilgan bo‘lib, hammani kuldirdi. (Cho‘lpon) Onam uvushgan oyoqlarini uqalagancha orqaga, bola yig‘layotgan tomonga, qarab ketdi. (OMHoshimov) Qayerdadir, yaqin joyda, daryo shovullaydi. (OMHoshimov) Haligi yigit, qo‘lida tuguni bor edi-ku, sartarosh, ertaga ta'tilga chiqar ekan. (A.G‘ulomov) Nasihatimni, otangning so‘zini, esingda tut. (A.G‘ulomov) Kechqurun,

yotarpaytda, kampir ikkovini yoniga chaqirib, o‘z fikrini aytdi. (Cho‘lpon) 13. Gapda -(i)b qo‘shimchasi bilan yasalgan ravishdoshlar o‘ziga tobe boshqa so‘zlar bilan kengayib kelganda, ulardan keyin vergul qo‘yiladi: Uni kim quchoqlab, kim o‘padi? (Cho‘lpon) Binafsha uzoqdan yugurib kelib, dadasining bo‘yniga osilib oldi. (Sh.Boshbekov) Ular soy bo‘yiga chodir tikib, bir-ikki hafta turishgan edi. (O.Yoqubov) Qaysi bir yil olis bir qishloqdan o‘gay akasi kelib, uch-to‘rt kun qo‘nib ketgan edi. (Cho‘lpon) Siz, axir, men bilan bir shapaloq yerni talashib, shu to‘g‘rida nariberi bo‘lishib, shu tufayli shaharga kelib qolgan edingiz... (Cholpon) Ammo -(i)b qo‘shimchasi bilan yasalgan ravishdoshlar o‘ziga tobe boshqa so‘zlar bilan kengaymagan bo‘lsa, ravishdoshlar odatdagi ravishlar bilan bir xil ma'noviy grammatik maqomda bo‘ladi va shuning uchun ulardan keyin vergul q o‘yil m ayd i: Qo‘shni xonada turadigan bir qiz yugurib kirdi. (O.Yoqubov) Divanda g‘ujanak bo‘lib uxlab yotar edi. (O.Yoqubov) Kotiba ko‘zlarini pirpiratib chiqib ketdi. (A.Namozov) Biroq kengaymagan ravishdosh bilan fe'l kesim orasida to‘ldiruvchi yoki hol vazifasidagi so‘zlar kelganda, shu bo‘limning 13-bandidagi kabi, ravishdoshdan so‘ng vergul qo‘yiladi: Matluba bir-bir bosib, orqaga qaytdi. (O.Yoqubov) Ko‘klamning sayroqi qushlari tabiat ko‘rinishlarini kuylamoqdalar, ko‘m-ko‘k ko‘katlar silkinib, qushlarni olqishlamoqdalar. (Oybek) Shuningdek, -(i)b qo‘shimchasi bilan yasalgan ravishdoshli qurilmalar tilda idiomatik, frazeologik iboralarga aylanib qolgan bo‘lsa, ulardan keyin vergul qo‘yilmaydi: Bugun... yeng shimarib ishlab o‘tirsam, qo‘ng‘iroq bo‘lib qoldi. (A.Meliboyev) Og‘zingga qarab gapir, men Vatan uchun jang qilib edim! (T.Murod) Ammo ko‘zingga qarab ishla. (T.Murod) Zum o‘tmay qo‘lini yuvib chiqdi. (0 ‘.Hoshimov) 14. Gapda -gach qo‘shimchasi bilan yasalgan ravishdoshlar o‘ziga tobe boshqa so‘zlar bilan kengayib kelganda, ulardan keyin vergul qo‘yiladi: Bir marta qaysi bir to‘y bir haftaga cho‘zilib ketgach, oltinchi kuni bizning so‘fi eshondan so‘ramay qochib kelgan! (Cho‘lpon) So‘fming baqirishidan so‘ng bir oz shoshib turgach, ular yugurgancha uyga kirdilar. (Cho‘lpon) Hech natija bo‘lmagach, uni bo‘shatishga qaror qilindi. (T.Sodiqova) Maydonga to‘rtta nazoratchi kirib kelgach, gazetchilar shaqirlatib suratga tushira boshlashdi. (N.Eshonqul) 15. Gapda -gan qo‘shimchasi bilan yasalgan va o‘rin-payt kelishigining qo‘shimchasini olgan sifatdoshlar o‘ziga tobe so‘zlar bilan kengayib kelganda, ulardan keyin vergul qo‘yiladi: Otam cho‘ponlik qilganda, men qo‘zi-uloq boqqanman. (Sh.Xolmirzayev) Ular dabdurustdan o‘rinlaridan turishganda, tag‘in xijolat hissi ezdi meni. (Sh.Xolmirzayev) Qosimjon mashinada xotinini bir aylantirmoqchi bo‘lib turganda, eshik taqillab qoldi. (S.Ahmad) O‘yin tamom bo‘lib, palov dasturxoni yozilganda, oy ancha balandga ko‘tarilgan edi. (Cho‘lpon) Ammo gapda -gan qo‘shimchasi bilan yasalgan va o‘rin-payt kelishigi qo‘shimchasini olgan sifatdoshlar o‘ziga tobe so‘zlar bilan kengayib kelmagan bo‘lsa, ulardan keyin vergul qo‘yilmaydi: Kutilmaganda yaqinginada Eronga otlangan Amir Temur Ko‘ragondan chopar yetganini aytdilar. (M.AIi) Kulganda ham silkinib-silkinib kuladi. (S.Ahmad) O‘n so‘m qarz berib turing, xotinim kelganda beradi. (S.Ahmad) Qariganda gina-kuduratni unutib, bordi-keldi qilaylik. (T.Malik) Shuningdek, -gan qo‘shimchasi bilan yasalgan va o‘rin-payt kelishigi qo‘shimchasini olgan sifatdoshli qurilmalar tilda idiomatik, frazeologik iboralarga aylanib qolgan bo‘lsa, ulardan keyin vergul qo‘yilmaydi: Ko‘pam hovliqavermanglar, kelinni kelganda ko‘r, sepini yoyganda ko‘r. (S.Ahmad) U kun bo‘yi saroydagi do‘kondan chiqmas, uyga qosh qorayganda qaytardi. (T.Malik) Noinsofning kech kirganda uxlashini qarang! (Cho‘lpon) Bir yilgacha marosimlarni o‘tkazaman deb, qoqqanda qozig‘im, osganda xurmacham qolmaydi. (S.Ahmad) 16. Bog‘lovchisiz bog langan qo‘shma gap tarkibidagi gaplar o‘rtasida alohida mazmuniy munosabatlar mavjud bo‘lmay, bu gaplar bir paytda yoki ketma-ket sodir bo‘lgan (bo‘ladigan, bo‘layotgan) voqea-hodisalarni ifodalasa, odatda ular o‘rtasiga vergul qo‘yiladi: Ko‘klamning sayroqi qushlari tabiat ko‘rinishlarini kuylamoqdalar, ko‘m-ko‘k ko‘katlar silkinib, qushlarni olqishlamoqdalar. (Oybek) Botirlari kanal qazadi, shoiriari g‘azal yozadi. (H.OIimjon) Sohibqironning bug‘doyrang yuzi xiyol qoraydi, ko‘zlari katta-katta ochildi. (M.AIi) Avval ular bizga yetib olishsin, keyin birga jo‘naymiz. (X.To‘xtaboyev) Sidiqjon to‘xtadi, orqasidan kimdir kelayotgan edi. (A.Qahhor) 17. Boglangan qo‘shma gap tarkibidagi gaplar o‘zaro ammo, lekin, biroq kabi zidlovchi bog‘lovchilar bilan bog‘langanda, bu bog‘lovchilardan oldin vergul qo‘yiladi: Kunlar ilib qolgan, ammo yerdan hali qishning zahri

ketmagan. (OMHoshimov) U xuddi shu shaharga kelayotgan yo‘lovchiday chaqqon tushdi, lekin qayerga kelganini hali bilmasdi. (A.Muxtor) Havo aytarii sovuq emas, biroq kuchsiz izg‘irin badanni junjiktiradi. (T.Malik) Hammasini tinglardim, ammo O‘xshashini topmasdim aslo. (H.OIimjon) 18. Bog‘langan qo‘shma gap tarkibidagi gaplar o‘zaro -u (-yu), -da yuklamalari vositasida bog‘langanda, bu yuklamalardan keyin vergul qo‘yiladi: Mevasini yeng-u, bog‘ini surishtirmang, jonidan! (O.Yoqubov) Termometr hamshiraning qo‘lidan tushib ketdi-yu, bir tomchi simob yaltirab polga dumaladi. (S.Ahmad) Zum o‘tmay qo‘lini yuvib chiqdi-da, mehmonlarni kutib olish uchun shoshildi. (0 ‘.Hoshimov) Lo‘li yigit Hikmatilloning kaftini chap qo‘liga olib, o‘ng qo‘li bilan sharaqlatib urdi-da, poyezdga qarab yugurib ketdi. (O.Yoqubov) Bu holat mazkur yuklamalardan keyin zidlovchi bog‘lovchilar qo‘llanganda ham saqlanadi: Bu holat shuv etib o‘tib ketdi-yu, lekin kayfiyatimni buzdi. (A.A’zam) Soqchilar yaqinlashayotgan qora sharpani ko‘rishdi-yu, ammo uxlab qolganlarini o‘zlari ham sezishmadi. (T.Malik) 19. Bog‘langan qo‘shma gap tarkibidagi gaplar o‘zaro takrorlangan ayiruvchi bog‘lovchilar (yo..., yo...; goh..., goh...; dam..., dam... kabi) bilan bog‘langanda, takrorlanayotgan bog‘lovchidan oldin vergul qo‘yiladi: Yo mehmon kelganini bilmaydi, yo o‘zini bilmaganlikka soladi. (NJaloliddin) Dam jahlim chiqadi, dam kulgim qistaydi. (Oybek) Nuri goh sevinib, shirin xayollarga boradi, goh butun vujudini qo‘rquv bosadi. (Oybek) Goh katta shaharlarga borib qolaman, goh daryolarda suzaman. (0 ‘.Hoshimov) 20. Bog‘langan qo‘shma gap tarkibidagi gaplar o‘zaro takrorlangan inkor bog‘lovchisi (na..., na...) bilan bog‘langanda, takrorlanayotgan bog‘lovchidan oldin vergul qo‘yiladi: Na bironta odamning sharpasi ko‘rindi, na bir shitirlagan tovush eshitildi. (OMJmarbekov) Na savdo-sotiq qiladi, na dehqonchilikka urinadi, na kosib-hunarmandlik peshasini tutadi. (Cho‘lpon) 21. Ergashgan qo‘shma gaplarda ergash gap bosh gap bilan chunki, negaki, shuning uchun, go‘yo kabi bog‘lovchilar yoki bog‘lovchi vositalar bilan bog‘lansa, ulardan oldin vergul qo‘yiladi: Ular mening aytganimni qilishadi, chunki men oilamizning kenjatoyiman. (E.A’zam) Hozircha shunday deymiz, negaki uning o‘zi shu uchrashuvni uzoq vaqtgacha baxtim deb yurdi. (OMJmarbekov) U Mingbuloqqa kelganidan xursand, shuning uchun xayollari Mingbuloqdek tiniq edi. (OMJmarbekov) Tamara sahnada qushday uchadi, go‘yo go‘zal tovus o‘ynab uchadi. (G‘.G‘ulom) 22. Ergash gap bosh gapga -ki yordamida bog‘lansa, undan keyin vergul qo‘yiladi: Odam bolasi borki, barhayotlikni orzu qiladi. (LSulton) Bu hol shu qadar tez sodir bo‘ldiki, Shavkat biron nima tushunishga ham ulgurmadi. (Sh.Boshbekov) Shuni mamnuniyat bilan ta'kidlaymanki, mening kasb tanlashimga otamning do‘mbirasi sababchi bo‘lgan. (M.M.Do‘st)

23. Kesimi shart maylidagi fe’l (-sa qo‘shimchasini olgan) bilan ifodalangan ergash gapli qo‘shma gaplarda mazkur kesimdan keyin vergul qo‘yiladi: Kasalni yashirsang, isitmasi oshkor qiladi. (Maqol) Qayerda ahillik bo‘isa, o‘sha yerda qut-baraka bo‘ladi. («Tafakkur gulshani») Kim yalqov bo‘lsa, uning qo‘lida obod yer ham xarob bo‘ladi. (S.Abdulla) Ko‘ziga nima ko‘rinsa, shu uni qiziqtira boshladi. (Oybek) Dunyoda qanday yaxshilik va xayriyatlik bo‘lsa, hammasini shu birgina qizi uchun istar va orzu qilardi. (Cho‘lpon)

24. To‘siqsiz ergash gaplarning kesimi ( -sa ham shaklida ifodalangan)dan keyin vergul qo‘yiladi: Shahodat xola ko‘nglida qarshi bo‘lsa ham, erining ra'yini qaytara olmadi. (OMJmarbekov) Yarim tunda yotsa ham, ertalab tong otar-otmas uyg‘onar edi. (P.Qodirov) U o‘g‘lining tirishib o‘qiyotganini bilsa ham, talabni yanada qattiqroq qo‘yaverardi. (T.Malik) 66 www.ziyouz.com kutubxonasi 25. Ergash gap bosh gapga deb vositasida bog‘lansa, undan keyin vergul qo‘yiladi: Hovlidagi supaga to‘shalgan bo‘yra ustiga yoyilgan turshaklarni qush talamasin deb, qo‘riqlab otirdim. (0 ‘.Hoshimov) Vatan uchun jangga bor deb, qurol berdim qo‘lingga. (H.OIimjon) Yubkaga mos tushsin deb, yo‘g‘on poshnali qora amirkon tuflisini ham berdi. (OMJmarbekov) 26. Ba'zan deb shakli gap tarkibida sababli, tufayli, uchun kabi yordamchi so‘zlarning sinonimi kabi qo‘llanadi, bunday holatlarda deb so‘zidan keyin ham, oldin ham vergul qo‘yilmaydi: Arzimagan oshiq-ma'shuqning xati deb butun pochta ovora bo‘ladi. (OMJmarbekov) Yur, seni deb men ham kechikyapman. (A.Namozov) Bu dunyo deb u dunyoni bahosiz pulga sotdim-ku. (Cho‘lpon) - Nega... Nega o‘ldiribdi? - Sizning ishingiz deb. - Mening ishim? - hayron bo‘ldi Rahim Saidov. - Ha. 1-109 S deb. Ular preparatingizni yo o‘gtrlamoqchi,

yo yo‘q qilmoqchi botishgan. Xotiningiz... Munisxon bosh tortgan. (OMJmarbekov) 27. Ba'zan deb shakli gap tarkibi sifatida yordamchi so‘zining sinonimi kabi qo‘llanadi, bunday holatlarda ham deb so‘zidan keyin ham, oldin ham vergul qo‘yilmaydi: Uyga ham, xotiniga ham o‘z institutining, o‘z hayotining bir qismi deb qarardi. (OMJmarbekov) Saidbuni sovg‘alarning debochasi deb bilardi. (U.Hamdam) U senga odam deb qaraydi. (Cho‘lpon) Albatta, bu unga Mirazim oldida o‘zini gunohkor deb his etmasligi uchun yetarli emasdi. (U.Hamdam)

***2-masala***

***Nuqtali vergulning gap ichida qo‘llanishi.***

1. Gapda uyushiq bo‘laklar meyoridan ortiq ko‘p bo‘lganda, ularni muayyan bir tarzda guruhlab berish zarurati tug‘iladi va ayni shu guruhlarning har biri nuqtali vergul bilan ajratiladi: Demak, bu daraxt ro‘dapo boyar choponlarini-yu xipcha kamzul, yasama sochlarni; qora 67 www.ziyouz.com kutubxonasi frak va silindrlar-u charm kurtka va budyonovkalarni; shalviragan ishtonlar-u torpocha shimlarni ko‘rgan. (R.Hamzatov) 2. Muayyan tasnif tarkibidagi tartibni bildiruvchi raqamlar (yoki harflar) yarim qavs bilan ajratilgan bo‘lsa, ular bilan ko‘rsatilgan so‘z, so‘z birikmasi va gaplar oxiriga (eng so‘ngisidan tashqari) nuqtali vergul (ba'zan vergul) qo‘yiladi: Nutq ham til va yozuv kabi ikki xil shaklga ega: a) og‘zaki nutq; b) yozma nutq. («Hozirgi o‘zbek adabiy tili» darsligi) To‘liqsiz gaplar bir qancha ko‘rinishda bo‘ladi: 1) ega aytilmagan bo‘ladi ; 2) kesim aytilmagan bo‘ladi ; 3) ega ham, kesim ham aytilmagan bo‘ladi ; 4) ikkinchi darajali bo‘laklar aytilmagan bo‘ladi . (A.G‘ulomov) 3. Bog‘lovchisiz yoki murakkab qo‘shma gap tarkibidagi gaplar mazmunan sezilarli mustaqil bo‘lib, birbiriga mazmunan bevosita yaqin bo‘lmaganda, odatda ular orasiga nuqtali vergul qo‘yiladi: Hamidaning boshi og‘irlashib ketdi; ikki marta sekin, og‘zini ochmasdan esnadi. (A.Qahhor) Faqat pashsha g‘ing‘illaydi, bemor inqillaydi; har zamon yaqin-yiroqdan gadoy tovushi eshitiladi. (A.Qahhor) U otasi singari baland bo‘yli, keng yag‘rinli; otda ko‘p yurgani uchun oyog‘ini kerib tashlaydi, ovda ko‘p bo‘lganidan fikrini qo‘l harakati bilan ham tushuntirib gapiradi. (Sh.Xolmirzayev) 4. Bog‘lovchisiz yoki murakkab qo‘shma gap tarkibidagi gaplar bir nechta bo‘lsa, ularning mazmunan bir-biriga yaqinlari vergul bilan ajratilib, qolgan muayyan bir yoki bir nechtasi nuqtali vergul bilan ajratiladi: Xotin uzoq yig‘ladi, eriga qattiq gapirganiga pushaymon bo‘ldi, o‘zini qarg‘adi, oiirn tiladi; yig‘idan tolib, tashqariga chiqdi. (A.Qahhor) Unsin ko‘kragiga nihoyatda og‘ir bir narsa bilan urilganday ko‘ngli ozib tentirab ketdi-yu, yiqilmadi, lekin oyoq uzra turib hushidan ketdi; oradan qancha vaqt o‘tganini bilmadi, ko‘zini ochib qarasa, jonvor yelkasidan tushipti, emaklab boyagi sag‘ananing orqasiga o‘tib ketdi. (A.Qahhor) Yigit 68 www.ziyouz.com kutubxonasi pochasini shimarib olgan, ikkisi ham oftobda pishib, yuzlari bo‘g‘riqib ketgan; buloqni topib borib, uzala tushgancha rosa suvga to‘yishdi, yuzlarini chayib, bir-birlariga suv sachratib o‘ynashdi, yayrab ketib, xoli joyda ekanliklarini unutishdi, shekilli, xuddio‘z uylaridagiday qiy-chuv qilishdi. (A.Muxtor) 5. Bog‘lovchisiz yoki murakkab qo‘shma gap tarkibidagi gaplarda ifodalangan voqea-hodisalarni solishtirish, qiyoslash mazmuni aniq ifodalanganda, ular orasiga nuqtali vergul qo‘yiladi: Ba'zilar ularning juda-juda inoq yashashlarini aytisharmish; ba'ziiar esa aksincha, gap tarqatisharkanki, osmondan tushib, yerdan chiqqandek ko‘payishib ketgan odamlarning bir-birlarini ko‘rishga ko‘zlari, otishga o‘qlariyo‘q. (Sh.Bo‘tayev) Hovuznio‘ragan pastak devor ortidagi tosh ko‘chadan qachon o‘tsangiz, changalzordan qushlar chug‘urini eshitasiz; hovuzning u tarafidagi supada esa oq tug‘i o‘ngib ketgan tanho qabr ko‘rinib turadi. (Sh.Xolmirzayev) 6. Bir qancha gaplar uyushganday bo‘lib, yaxlit bir bog‘lovchisiz qo‘shma gapni tashkil etganda, ular orasiga nuqtali vergul qo‘yiladi: Razzog so‘fming sovuq yuzlari uning ko‘zlaridan yiroqlashgan; nasihat yo‘li bilan minglarcha marta aytilgan va ta'kidlangan so‘zlar unutilgan; sovuq sofilarning «harom» degan da'volari sinib, parcha-parcha bo‘lgan; «nomahramlik» safsatalari ot oyoqlari ostida yanchilgan; to‘rt devoming bu tutqun qizi o‘ziga o‘xshagan tutqunlardan boshqa hech bir guvoh va tilchi bo‘lmagan shu keng dalaning quloch yetmas bag‘rida yillardan beri tugilib kelgan alamlarini kuyga aylantirib, cheksiz bo‘shliqlarga yoyib yuborgan edi. (Cho‘lpon)

***3-masala***
***Tirening gap ichida qo'llanishi.***

1. Ot kesim ot, son, olmosh, harakat nomi, taqlidiy so'zlar yoki ular hokim bo'lgan so'z birikmalari bilan ifodalanib, bog'lamasiz qo'llanganda, ega va kesim orasiga tire qo'yiladi: Ulug' ustozlarim so'zi - qoida. (LMirzo) 69 www.ziyouz.com kutubxonasi 0 'g'ilni uylantirish - otaning vazG'7asG'.(A.Mamarasulov) Uyqu - umrning tanobi! (Cho'lpon) Samarqand - olamning sayqali, ko'rki. (I.Mirzo) Bu - hayvonlarga xos oChtadap xislat. (H.Shayxov) Dunyo go'zali- sen, qadoqqo'l singlim. (LMirzo) Ikki o'n besh - bir o'ttiz. (Maqol) Lekin hozir bizni qiynayotgan birdan bir masala - siz bilan bevosita tikr almashish metodikasini aniqlash. (H.Shayxov) Oyoq osti - «chilip-chilip», Zirqiraydi eski yaralar... (A.Muxtor) Shabnam, bu - tunda oy to'kkan achchiq yosh, Hovur, bu - quyoshning ko'ksida alam. (I.Mirzo) 2. Ammo ot kesim inkor shaklida (ya'ni undan keyin inkor ifodalovchi emas so'zi kelgan) bo'lsa, ega va kesim orasiga tire q o'y il-m a y d i: Harqalay, er xotinning yugurdagi emas. (A.Mamarasulov) Salim Karimovich yomon odam emas. (O.Yoqubov) Odam bolasi quyon emas-ku! Yiliga o'n-o'n beshtadan tug'sa. (S.Ahmad) 3. Agar ega bilan ot kesim orasida kirish so'z, undovlar kelsa, ular orasiga tire qo'yilmaydi: Rashk, avvalo, kuchli muhabbat belgisi. (0 '.Hoshimov) Tantana qahramoni, albatta, Bahrom Farang. (M.Xo'jayev) 4. Ega bilan ot kesim orasida ham, faqat kabi yuklamalar kelgan bo'lsa, ot kesimdan oldin tire qo'yilmaydi: Rahmat ham o'qituvchi. Velosiped ham transport vositasi. Mening bilganim faqat Sunnatullayev. (T.Malik) 5. Ot kesimli gap tilda idiomatik, frazeologik iboralarga aylanib qolgan bo'lsa, ega va ot kesim orasiga tire qo'yilmaydi: Insonning qo'li gul. (Maqol) 6. Ega kishilik olmoshlari bilan ifodalanganda, odatda ot kesimdan oldin tire qo'yilmaydi: Sen Lutfiyning so'lim g'azali. (A.Oripov) Sen urush qatnashchisi. (T.Murod) Ammo qarshilantirish ma'nosi voqelanganda, tire qo'yiladi: Men - o'qituvchi, sen - talaba. 7. Ot kesim (yoki ega) so'roq olmoshlari bilan yoki yuklamali so'zlar bilan ifodalanganda, ega va ot kesim orasiga tire qo'yilmaydi: Do'sting kim? Do'sting nechta? To'y qachon? Oralaringda chaqqon va bilag'on Botirmi? Suv sening shaxsiy mulkingmi? (E.A'zam) 8. Ot kesim sifat, ravish, tartib son yoki egalik olmoshi bilan ifodalanganda, ega va kesim orasiga tire q o 'yilmn ayd i: Dalalar ko'm-ko'k. Havo toza, musaffo, zangor. (E.Vohidov) Issig'i baland, alahsiraydi. (T.MaIk) Ammo Miryoqub akaning yurishi ko'p! (Cho'lpon) O'sha amal seniki, xijolat tortma. (A.Namozov) Mana shu uy-joy turish-turmishi bilan seniki. (T.Murod) Eti sizniki, suyagi meniki, deb uyiga tashlab kelaman. (S.Ahmad) Mening o'g'lim hamisha birinchi... (T.Murod) 9. Makon, zamon va miqdor chegaralari {«...dan ...gacha»)ni ko'rsatuvchi so'zlar orasiga tire qo'yiladi: Andijon - O'sh yo'lini quyuq tuman bosgan. (S.Ahmad) XII - XVI asrlarda bu shahar Yassi deb yuritilgan. (N.Karimov) Yosh Mirtemirning eski maktabda o'qigan davri 1914- 1915-yillarga to'g'ri keladi. (N.Karimov) 10. Gapda uyushiq bo'laklardan keyin kelgan umumlashtiruvchi so'zdan oldin tire qo'yiladi: Yozuvchining shaxsiga, qanaqa asarlar yozayotganiga, qanday yozishiga, hatto kechasi yo kunduzi yozishigacha - hammahammasiga qiziqadilar. (S.Ahmad). Ovozidagi boyagi bolalarcha hayrat, uyqusiz ko'zlarida porlagan quvonch, batareyalarni silagandagi bolakcha mehr - hammasi birdan so'nib, ovozida, xatti-harakatlarida kutilmagan bir horg'inlik paydo bo'ldi. (O.Yoqubov) 11. Gapda umumlashtiruvchi so'zdan keyin kelgan uyushiq bo'laklar aniqlashtirish, izohlash, ilova mazmuniga ega bo'lsa, umumlashtiruvchi so'zdan keyin ikki nuqta emas, balki tire qo'yilishi mumkin: Olloh taolo bul yulduzlarni uch maqsadda - osmonga ziynat, shaytonlarga otiladirgan tosh hamda bandalariga yo'l ko'rsatuvchi alomatlar bo'lmog'i uchun yaratdi. (NJaloliddin) Aytib beraversa barchaga barin - Omad-u judolik va yonganini, Rashk, umid, alami va afsuslarin, Aldagani, quvonganini. (A.Muxtor) Zotan, ziyolikka birqarashingizdayoq unda uzoq asrlarmobaynidagi murakkab taraqqiyot jarayonida yuzaga keluvchi fikrlovchi mavjudotga xos hamma sifatlar - aql, farosat, bahodirlik, ko'tarinki ruh, oliyjanoblik, yumor va hokazolami payqab olish sira qiyin emasdi. (H.Shayxov) 12. Gapda umumlashtiruvchi so'zdan keyin kelgan uyushiq bo'laklarni kuchli ta'kidlash zarurati mavjud bo'lgan yoki ular ajratilgan izohlovchiday qo'llangan hollarda uyushiq bo'laklar ikki tomonidan tire bilan ajratilishi mumkin: Sudda juda

ko‘p narsalar — tergovchilarning jinoyatkorona xatti-harakatlari-yu dastlabki sudning yuzakiligi, tergov va sudning protokolidagi qalbakiliklar - aniq isbotlar bilan fosh qilindi. (N.Aminov) Ikkala yosh - yuzlari kulgan, ko‘ngillari yozilgan – qo‘ltiqlashib ayvonga bordilar. (Cho‘lpon) 13. Gapda aniqlashtirish, izohlash mazmunidagi ajratilgan bo‘laklardan oldin tire qo‘yilishi mumkin: Gangrenaga - qorasonga aylanib ketsa nima boladi? (S.Ahmad) Bu masalani hal etish, chamasi, hushyor, dovyurak, idrokli, aqli raso, iste'dodli yoshlarimiz - kelajak avlodlar zimmasiga tushadi. (M.Hasaniy) Alibek eng asosiysi - majaqlangan inni yerga tashlagandan keyin darhol tepkilash kerakligini esdan chiqargan ekan. (A.Mamarasulov) Xalqaro savdo yo‘li - Buyuk ipak yo‘li Temur va temuriylar davrida juda serqatnov oChdap. (B.Ahmedov) Tashqarida - gulzor tomonda esa ola qorong‘ilik hukm surardi. (Cho‘lpon) 14. Ajratilgan bo‘laklarni gapda alohida ta'kidlash zarurati bo‘lganda, ular har ikki tomonidan tire bilan ajratilishi mumkin: Toy hammadan uzoqdan - Beshqo‘rg‘ondan - o‘ziga o‘xshash yuvosh sigirini oldiga solib kelardi. (0 ‘.Hoshimov) Oyim ko‘p tayinlagani uchun biz - bolalar - unga tegmasdik. (0 ‘.Hoshimov) Shuhrat Salimovich - mening sobiq yordamchim, meditsina fanlari kandidati, dotsent - xonamga kirib keldi. (H.Shayxov) Shu topda uning juda ehtiyot bilan - hech bir sharpa chiqarmay - bosgan qadamlarining bo‘shang shitirlashi ham o‘tirganlarga malol kelgan kabi edi. (Cho‘lpon) 15. Kirish va kiritma birliklar gapda har ikki tomonidan tire bilan ajratilishi mumkin: Bittasi - ularning kattasi bo‘lsa kerak - yonidagi sherigiga «beshikni yo‘qot» deganday ishora qildi. (Sh.Boshbekov) Chaqaloq - tonggi salqinda 72 www.ziyouz.com kutubxonasi sovuq qotganmi yo qorni ochganmi - big‘illab yig‘lardi. (Sh.Boshbekov) Gulmiraning onasi - og‘zi to‘la tilla tish, pakana, semiz ayol - barmoqlari bilan stolni asabiy chertib o‘tiribdi. (Sh.Boshbekov) Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li - boyagi o‘n to‘qqiz yashar yigit - shunday xatti-harakatga jur'at etgandi. (N.Karimov) Miryoqub - birjoyda bir nafas o‘tirolmaydigan narsa - olti-yetti kundan beri mingboshi yonidan jilmaydi. (Cho‘lpon) 16. Bog‘lovchisiz qo‘shma gap qismlari orasida o‘xshatish munosabati ifodalanganda, ular orasiga tire qo‘yiladi: Hamal keldi - amal keldi. (Maqol) Qor yog‘di - don yog‘di. (Maqol) Yulduz o‘chadi - Yo‘qlik dunyosiga ko‘chadi. (A.Muxtor) 17. Bog‘lovchisiz qo‘shma gap qismlari orasida savoljavob munosabati ifodalanganda, shuningdek, faqat birinchi qismi savoldan iborat bo‘lganda, ular orasiga tire qo‘yiladi: Atrofda nima ko‘p - kimyo zavodlari ko‘p. (H.Shayxov) Yetimliknima- mendan so‘rayver. (Sh.Boshbekov) Xayolidan ne o‘ylar o‘tdi - yolg‘iz xudoga ayon. (Sh.Boshbekov) 18. Bog‘lovchisiz qo‘shma gap qismlari orasida zidlash, qarshilantirish munosabati ifodalanganda, ular orasiga tire qo‘yiladi: Yulduzlarni xayolida har xil rangga bo‘yab ko‘rdi - yulduzlar o‘z rangida xira miltillab turaverdi. (A.Muxtor) It huradi - karvon o‘tadi. (Maqol) Jismimiz yo‘qolur-o‘chmas nomimiz. (H.OIimjon) 19. Bog‘lovchisiz qo‘shma gap qismlari orasida shart munosabati ifodalanganda, ular orasiga tire qo‘yiladi: Birovga ayta ko‘rmang - ikkovimiz ham baloga qolamiz. (S.Ahmad) To‘g‘ri bo‘ling - bexavotir bo‘lasiz. (Maqol) Qo‘shning tinch - sen tinch. (Maqol) Odamlarni biriktir - har birining yuragida bo‘ron qo‘zg‘aladi. (Oybek) 20. Bog‘lovchisiz qo‘shma gap qismlari orasida sabab-oqibat, asos-xulosa munosabati ifodalanganda, ular orasiga tire qo‘yiladi: Sen borsan - men uchun bu hayot go‘zal, Sen borsan - men uchun dilbar koinot. (A.Oripov) Endi nima bo‘lib shundoq bo‘lganini aytib o‘tirishga fursatim yo‘q - idorada odamlar kutib o‘tiribdi. (A.Qahhor) Uyda qadam bosgani joy yo‘q - hamma yoq o‘yinchoq. (Sh.Boshbekov) Keyingi kunlarda daryo qirg‘og‘ini chumchuq bosib ketdi - kanal miroblari suvi chekinib, ochilib qolgan orolchalarga sholi ekishgan. (S.Ahmad) Qarasam, oshxona tomondan gup-gup etgan tovush kelyapti - oyim o‘g‘irda tolqon qilyapti. (0 ‘.Hoshimov) Narigi tomonda taraq-turuq boshlandi - quruvchilar ishga tushdilar. (NJaloliddin) 21. Bog‘lovchisiz qo‘shma gap qismlari orasida payt munosabati ifodalanganda, ularorasigatireqo‘yiladi: Arava notinch bo‘ldi - qo‘shquloqdagi sut chayqaladi, to‘kiladi. (A.Qahhor) Yon tarafdagi salobatli eshik ohista ochildi - yordamchi kerakli qog‘ozlarning barchasini olib kiradi. (AToshmatov) Chala-chulpa u gapirdi - men angladim, chin ko‘ngildan men gapirdim - u angladi. (Cho‘lpon) 22. Bog‘lovchisiz qo‘shma gapning ikkinchi qismi izoh, ilova xarakteriga ega bo‘lsa, ular orasiga tire qo‘yiladi: Esladi - u sevgilisi Layli haqida gapirgandi. (NJaloliddin) Uning sarkash fe'li bor edi - birovning o‘ziga bo‘lgan munosabatining

ma'nosini oydinlashtirmaguncha tinchimasdi. (N.Jaloliddin) 23. Bog‘lovchisiz qo‘shma gap tarkibidagi ikkinchi gapning kesimi tushib qolgan hollarda ikki gap vergul bilan ajratilib, ikkinchi gapdagi egadan keyin tire qo‘yiladi: To‘rg‘aydashtda kuylar, bulbul-chamanda. (LMirzo) Oltin o‘tda bilinadi, odam - mehnatda. (Maqol) Yaxshidan ot qoladi, yomondan - dod. (Maqol) 24. Ko‘chirma gapli qo‘shma gaplarda muallif gapidan oldin tire qo‘yiladi («Ko‘chirma gapli qo‘shma gaplarda tinish belgilari» deb nomlangan qismda bu haqda batafsil aytiladi). 25. Dialoglarning replikalari ketma-ket bir qatorda emas, balki ulaming har biri alohida abzas shaklida yangi qatordan berilsa, replikalar oldidan tire qo‘yiladi: - Jadiding nimasi? Nima degan gap o‘zi? - Maktabini yoptirgan vaqtingizda aytib bergan edim-ku. - Esda qolgan deysanmi? - Jadid degani «yangi» degani bo‘lsa kerak. Yurt orasida yangilikni rasm qilarmishlar... Yangi o‘qish, yangi maktab, yangi urf-odat, yangi kiyim - har narsa yangi... - Eskicha bo‘lsa, kimga zarari tegar ekan? - Unisini bilmadim... Ishqilib, jadidlarning qasdi shu emish... (Cho‘lpon)

***4-masala***

***Ikki nuqtaning gap ichida qo‘llanishi.***

1. Muayyan fikr-mulohaza, hukm, ilmiy ta'rif, qoida kabilarni ifodalovchi gaplardan keyin ayni fikr-mulohaza, hukm, ta'rif, qoidalarning to‘g‘riligini asoslash uchun keltirilgan birdan ortiq daliliy faktlarni ta'kidlab ko‘rsatish maqsadida ikki nuqta qo‘yiladi: U (gap) ega va kesimdan yoki ega-kesim va ikkinchi darajali bolaklardan iborat bo‘ladi: Saida kuldi. Qalandarovning ko‘zlari olayib ketdi. (A.Qahhor) Tong. Havo salqin. Yumshoq shamol mayingina esib turibdi. (A.G‘ulomov) Ba'zan bunday hollarda mazkur gaplardan keyin masalan, misol, dalil, chunonchi kabi so‘zlar qo‘llanishi mumkin, bunda ikki nuqta ayni so‘zlardan keyin qo‘yiladi: U (gap) ega va kesimdan yoki ega-kesim va ikkinchi darajali bo‘laklardan iborat bo‘ladi. Masalan: Saida kuldi. Qalandarovning ko‘zlari olayib ketdi. (A.Qahhor) Tong. Havo salqin. Yumshoq shamol mayingina esib turibdi. (A.G‘ulomov) 2. Tasniflash qoliplari aks etgan gaplarda tasnif asosini ifodalovchi gapdan keyin tasniflangan birliklarni ta'kidlash uchun ikki nuqta qo‘yiladi: Bog‘lovchi vositalarsiz birikkan qo‘shma gap o‘z tarkibidagi qismlarning munosabati jihatidan ikkixil bo‘ladi: 1) teng qismli qo‘shma gap; 2) tobe qismli qo‘shma gap. (M.Asqarova) 3. Uyushiq bo‘lakli gaplarda umumlashtiruvchi so‘z bu bo‘laklardan oldin kelsa, umumlashtiruvchi so‘zdan keyin ikki nuqta qo‘yiladi: Bu sirni faqat uch kishi: Abdulla, o‘zi va Samad bilardi. (Q‘.Umarbekov) lchkaridagilar: 75 www.ziyouz.com kutubxonasi chaqaloqning ota-onasi, opa-akalari, Shavkatning ikkita sherigi ham qulab tushgan tom tagida qolib ketdi... (Sh.Boshbekov) Qish bo‘yi allaqaysi go‘r ostlarida junjib chiqg‘an qush zotiari: chumchuqiar, chittaklar, to‘rg‘aylar, sa'valar va boshqa allaqancha qush turkumlari o‘z to‘plari bilan vijir-vijir, chug‘ur-chug‘ur sayrab kuladirlar. (A.Qodiriy) 4. Ba'zan uyushiq bo‘laklarni alohida ta'kidlash maqsadi bilan ular gapdan tashqariga chiqariladi, bunday hollarda bevosita umumlashtiruvchi so‘zdan keyin emas, balki asosiy gapdan keyin ikki nuqta qo‘yiladi: Lekin undan qimmatli narsalar ham bor: obro‘, vijdon, aql, madaniyat. (OMImarbekov) Divan oldidagi uch oyoqli stolchada talay qoqmevalar turibdi: chaqilgan yong‘oq, bir hovuch turshak, bir hovuch qora kishmish. (Sh.Xolmirzayev) Sizlarga faqat shular kerak: yeyish, ichish, kiyinish, pul... (Sh.Xolmirzayev) Abdulla ko‘prikka yetganda, Gulchehraning eshigidan ikki kishining hovliqib chiqqanini ko‘rdi: bittasi Samad, bittasi esa Gulchehra edi. (0 ‘.Umarbekov) Erkak zotining bari birxil: Amerikada ham, o‘sha Afg‘onida ham! (E.A’zam) Gapda umumlashtiruvchi so‘z bo‘lmagan hollarda ham asosiy gapdan keyin uyushiq bo‘laklarni ta'kidlash uchun ikki nuqta qo‘yiladi: Mana shu qizil «Jiguli»damiz: xotinim, o‘g‘lim, qizim. (Sh.Xolmirzayev) Chiqib keldilar qator: Dante, Shiller va Bayron, Firdavsiy, Balzak, Tagor. (E.Vohidov) U tanidi: otasi, Hafiz, Ubaydulla aka... yana qandaydir ayollar. (0 ‘.Umarbekov) 5. Bog‘lovchisiz qo‘shma gapda keyingi qism oldingi qismdagi olmosh (yoki olmoshga vazifadosh so‘z, gap, odat, narsa, tomon, fikr kabi mazmuni tavsiflanishi lozim bo‘lgan so‘zlar) bilan ifodalangan yoki ifodalanmagan eganing mazmunini izohlab, aniqlab kelsa, oldingi qismdan keyin ikki nuqta qo‘yiladi: Faqat shu esida: ertasi kuni ko‘zini ochganda, yonida Sobirjon yo‘q edi. (A.Qahhor) Masalan, qadimdan qolgan gap bor: ovchi kiyikdan bitta otishikerak... (Sh.Xolmirzayev) Uning g‘alatiodati boredi: birov bilan

suhbatlashganda, ko‘zoynagi bor-yo‘qligidan qat'i nazar, xuddi ko‘zoynak tagidan qaraganday gaplashardi. (Sh.Boshbekov) Militsiyaga bir narsa qorong‘i edi: u tasodifan tushib ketganmi yo o‘zini tashlaganmi?! (0‘.Umarbekov) Pishmagan yong‘oqning bitta yaxshi tomoni bor: og‘ir bo‘ladi. (OUHoshimov) 0‘shanda uning xayoliga yomon fikr keldi: mashina xotininiyoki o‘zini bosib ketganda nima bo‘lardi? (0 ‘.Umarbekov) 6. Bog‘lovchisiz qo‘shma gapda keyingi qism oldingi qismdagi olmosh (yoki olmoshga vazifadosh so‘z) bilan ifodalangan kesimning mazmunini izohlab, aniqlab kelsa, oldingi qismdan keyin ikki nuqta qo‘yiladi: Bu doktorxona to‘g‘risida Sotiboldining bilgani shu: salqin, tinch parkda, daraxtlar ichiga ko‘milgan baland va chiroyli oq imorat; shisha qabzali kulrang eshigida qo‘ng‘iroq tugmasi bor. (A.Qahhor) Men oldinga surayotgan fikming qisqacha mazmuni shu: inson tug‘ilishidan qobiliyatsiz bo‘imaydi. (E.Vohidov) Endi gap bunday: bugundan boshlab siz opkegan harom ovqatingizniyam yemayman. (Sh.Boshbekov) Ravon yo‘1 bitta shu: bu ham yaxmalak. (A.Oripov) Erkak kishi o‘zi shunaqa: bir kun uyda bo‘lsa, o‘n kun ko‘chada. (0‘.Umarbekov) Orzum shul: o‘chmasin yongan chirog‘ing. (A.Oripov) 7. Bog‘lovchisiz qo‘shma gapda keyingi qism oldingi qismdagi olmosh (yoki olmoshga vazifadosh so‘z) bilan ifodalangan yoki ifodalanmagan to‘ldiruvchining mazmunini izohlab, aniqlab kelsa, oldingi qismdan keyin ikki nuqta qo‘yiladi: So‘ngra men birnarsani ko‘rdim, aniqrog‘i, ishondim: bizning o‘zbek bolalari yaxshi urishar ekan! (Sh.Xolmirzayev) Matluba o‘shanda yana bir narsani ko‘ngliga qattiq tugdi: o‘qishi kerak! (O.Yoqubov) Muovinimga ayting: o‘mingizga boshqa birovni tayinlasin! (O.Yoqubov) Sizni ishontirib aytaman: qayerda bo‘imay, doim sizni o‘ylayman. (0 ‘.Umarbekov) 8. Bog‘lovchisiz qo‘shma gapda keyingi qism so‘- roq shaklidagi gapdan iborat bo‘lib, oldingi qismdagi ifodalangan yoki ifodalanmagan to‘ldiruvchining maz77 www.ziyouz.com kutubxonasi munini ochishga xizmat qilganda, oldingi qismdan keyin ikki nuqta qo‘yiladi: Lekin men bir narsani o‘ylab qoldim: bolangni nima qiiasan? (A.Qahhor) Endi sizdan shuni ham so‘rayin: xo‘jasig‘a sodiq bir qul, sizning ta'biringizcha, ma'naviy bir padar o‘z o‘g‘lig‘a yomonlik sog‘inarmi? (A.Qodiriy) Xudoyimni o‘rtaga qo‘yib ayting: astoydil do‘stmisiz? (Cho‘lpon) Aytaman-u o‘ylayman: onaning yosh-qarisi bo‘ladimi? (0'.Hoshimov) Siz ham yotig‘i bilan gapirib bering: nimaga tashqaridan kirar-kirmas, Zebini so‘radingiz? (Cho‘lpon) Endi bir boshdan gapirib ber: kim nima dedi, nima qildi? (Sh.Boshbekov) 9. Bog‘lovchisiz qo‘shma gapda keyingi qism oldingi qismda ifodalangan voqea-hodisaning sababini bildirsa (ikki gap orasiga chunki bog‘lovchisini qo‘yish mumkin bo‘lsa), oldingi qismdan keyin ikki nuqta qo‘yiladi: Soat 12 da institutda bo‘lishim kerak: darsim bor. (Sh.Xolmirzayev) O‘zingga qiyin bo‘ladi: uchta bolang bor, qo‘lingda hunaring yo‘q... (A.Qahhor) Pakavira quvonib ketdi: ikki man oltin hazilakam boylik emas, bunga yangi bir kema sotib olish mumkin! (P.Qodirov) Lekin ancha vaqt shaharda qolib ketdim: Yakkachinorga boradigan bironta ham mashina yo‘q edi. (O‘-Umarbekov) Yanglishasiz: men ko‘klarga berkingan Yer qizidan xayolimni olmaymen. (Cho‘lpon) 10. Bog‘lovchisiz qo‘shma gapda oldingi qism keyingi qismda ifodalangan voqea-hodisaning sababini bildirsa (ikki gap orasiga shuning uchun bog‘lovchi vositasini qo‘yish mumkin bo‘lsa), oldingi qismdan keyin ikki nuqta qo‘yiladi: Omon ovchining ov sarguzashtlari ko‘plami qiziqtirardi: ko‘plari hikoya eshitish uchun kelardi. (Sh.Xolmirzayev) U haligi yuksak qahqahani eshitgach, uning ma'nisini angladi: yugurib Zebining yoniga kirdi. (Cho‘lpon) 11. Bog‘lovchisiz qo‘shma gapda keyingi qism oldingi qismda ifodalangan voqea-hodisaning natijasini, oqibatini bildirsa, oldingi qismdan keyin ikki nuqta qo‘yiladi: Keyin u yoqqa chopdim-bu yoqqa chopdim: uch-to‘rt qop sement topdim. (Sh.Xolmirzayev) U chidayolmadi: so‘richadan turib kelib, uy darpardalaridan birining takkinasiga o‘tirdi. (Cho‘lpon) Istiqlol yillarida bizda Navoiyga munosabat davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi: shoir yangidan qadr topdi, shon-shuhrat shohsupasiga ko‘tarildi. (E.Ochilov) 12. Bog‘lovchisiz qo‘shma gapda keyingi qism oldingi qismdagi olmosh (yoki olmoshga vazifadosh so‘z) bilan ifodalangan yoki ifodalanmagan aniqlovchining mazmunini izohlab, to‘ldirib kelsa, oldingi qismdan keyin ikki nuqta qo‘yiladi: Ey Salomxon, bu eshon pochchamning o‘g‘illari bir yigit bo‘ldi: o‘ktamlikdayam, suqsurlikdayam tengi yo‘q. (M.Mansur) Shoirlardan doimo talab: O‘qimog‘i kerak yangi she'r Va aytmog‘i kerak yangi gap. (E.Vohidov) Sizdan bugun birgina o‘tinch: Yolg‘iz qo‘ying meni,

do‘stlarim. (E.Vohidov) Adolatxondan xunuk bir xabar keldi: u Samarqanddagi maktabni bitirib, Toshkentga ketibdi. (A.Qahhor) 13. Qo‘shma gapning oldingi qismida ko‘rmoq, qaramoq, diqqat qilmoq, eshitmoq, bilmoq, tushunmoq, sezmoq, eslamoq kabi fe'llar qo‘llanib, keyingi qismda keladigan muayyan fakt bayoni yoki muayyan tavsifga semantik ishora qilib tursa, ikki qism orasiga ikki nuqta qo‘yiladi: Ertasiga ko‘rdim: ishkom boshida yoig‘iz bir tup shaftoii qiyg‘os gullab chiqibdi. (M.Mansur) Avval yosh xotinning ko‘zlariga qaradi: horg‘inligi, uyqusiraganligi ochiq ko‘rinib turardi. (Cho‘lpon) Diqqat qildim: ko‘nglida ajib bir olov yona boshlaganga o‘xshaydi. (Cho‘lpon) Rangidan sezgan edim: maishatining mazasi yo‘q. (Sh.Xolmirzayev) O‘zim ham bilgan edim: katta omburga chap berib bo‘lmaydi. (A.Qahhor) Muhammad Churog‘a dodxoh esladi: besh yil awal Samarqandda Bog‘i Bihisht mehmonxonasida ham xuddi shunday voqea yuz bergandi. (M.AIi) Bular darvozadan chiqib, muyulishga yetganda u yoqdan 0 ‘lmasjon ko‘rindi: charchagan otini horg‘inhorg‘in qamchilab, asta-asta sudralmoqda edi. (Cho‘lpon) 14. Qo‘shma gapning keyingi qismi oldingi qismdagi mazmunni umuman izohlab kelsa, ikki qism orasiga ikki nuqta qo‘yiladi: Mana, maqsadiga yetdi: mashhur Otashqalbning sevikli Ma'shuqasi nomini oldi. (E.A’zam) 79 www.ziyouz.com kutubxonasi Daraning aholisi o‘z ishi bilan mashg‘ui: o‘spirinlar podalarni haydab chiqib ketadi, erkakiar qo‘sh qo‘shib shudgor qilmoqda. (S.Ayniy) Musofir muxlis uni darrov tanidi: u tanimay kim tanisin! (E.A’zam) Sobiq maktabdoshini tanibtanimay, noqulayroq birorgapni qo‘zg‘ab qolishidan yuragi taka-puka bo‘lib o‘tirgan Oqsoqol shoir, nihoyat, yengil tortdi: shunisiga ham shukr! (E.A’zam)

5-masala

***Qavsning gap ichida qo‘llanishi***

1. Gap ichida asosiy fikrga qo‘shimcha sifatida beriladigan izoh, ma'lumotni ifodalaydigan kiritma so‘z yoki birikma qavsga olinadi: Uni birinchi marta To‘la aka (T.Xo‘jayev)ning repetitsiyasida ko‘rganman. (A.Meliboyev) Gulya Lagutina ichkarigi xonada o‘ziga o‘xshashib ketadigan (yo armani, yo ozari) birayol bilan achomlashibcho‘lpillashib, pichir-pichir qila boshladi. (E.A’zam) Bunga kaminaning qulog‘ida va tevaragida kuchaygan (botiniy va zohiriy) shovqin ham sabab bo‘ldi-yov. (E.A’zam) Farhodning taxminicha, kinoga bevosita daxldor birikkitasini aytmasa, davradagilarning aksariyati (kelibketuvchilarini ham qo‘shganda) anchayin san'at atrofida o‘ralashib yuradigan, ammo o‘zini uncha-munchadan kam sanamaydigan omadsizroq bir toifa edi. (E.A’zam) Bordi-yu, hushyorlik qilinmaganida, qora bozorga kamida 50 ming so‘mlik (o‘sha yillarning bahosida) zahri qotil mahsulot chiqib ketgan bo‘iar edi. (A.Meliboyev) Jarohat o‘rniga qov (kuydirilgan paxta) qo‘ydi. (G‘.G‘ulom) 2. Gap ichida asosiy fikrga qo‘shimcha sifatida beriladigan ma'lumotni ifodalagan kiritma gap qavsga olinadi: 0 ‘sar Hojarga uylangach (uylanganigayam yigirma yildan oshdi), ana shu eski uychaga taqab bir dahliz va bir mehmonxona-yotoqdan iborat boshpana qurib olgan edi. (Sh.Xolmirzayev) Ota ishongan odamlar (ular orasida Sarkor ham bor) quvg‘unga tushmasa hali! (O.Yoqubov) Matluba indamay park darvozasiga tomon yo‘naidi. Samigjon parkdan chiqishi bilanoq besh panjasini ko‘rsatib 80 www.ziyouz.com kutubxonasi (bu uning «besh so‘m beraman» degani edi), duch kelgan birinchi mashinani to‘xtatdi. (O.Yoqubov) Yana eshitganim (buni menga qishlog‘imizdagi bir mayxo‘r shinavanda asta qulog‘imga shipshib qo‘ygan) jin, alvasti aroq ichgan odamdan sal nari yurar ekan. (A.Meliboyev) 3. Boshqa tildagi gapning yoki boshqa tildagi muayyan bo‘lakning tarjimasi qavsga olinadi: OK. Continue the fly («Yaxshi. Uchishda davom eting»). (LSulton) Yes, sir(Xo‘p bo‘ladi, ser). (LSulton) Mening birinchi maqolalarim qirg‘iz tilida chiqadigan «Emgek danqi» («Mehnat shuhrati») nomli tuman gazetasida bosilgan. (A.Meliboyev) 4. Gap ichida asosiy fikrga muallifning subyektiv munosabatini ifodalaydigan kirish so‘z yoki birikma qavsga olinadi: Muqaddas esa (ajabo!) go‘yo hech narsani sezmas, u nimagadir sevinib, hadeb kular... edi. (O.Yoqubov) Birov o‘q borib uning qo‘liga tekkan desa, boshqa birov (Asta 'furulloh!) naqd og‘ziga tekkan deydi. (E.A’zam) Menga bitilgan xatni ikki kun (ikki kun-a!) saqlab yuribsiz, o‘sha ikki kun mobaynida xayolan ikki yuz ming ko‘chaga kirib chiqqanimni tasawur qilasizmi? (X.Do‘stmuhammad) Tuyqus yon tomondan qo‘llarida cho‘qmor (ha, ha, rostakam cho‘qmorl), korjoma kiygan ikki barzangi sahnaga kirib keldi. (E.A’zam) 5. Gap ichida asosiy fikrga muallifning subyektiv munosabatini ifodalaydigan kirish

gap qavsga olinadi: Ko‘ngil qo‘yganlari boshqa edi, boshqalar edi. Uni biz bilamiz. (Bilmaylar ketaylik, iloyim!) (E.A’zam) Sizning xayollaringizni ostin-ustun qilgan o‘zimdagi fazilatlarni (Rostdan ham, bormi ular?) topib, ardoqlab yashayman. (X.Do‘stmuhammad) Boylarbo lsa na fuqaronibirchaqaga oladi (bunisi-ku mayii-ya), na mingboshini (mana munisiga chidab bo‘lmaydil). Ochiqdan ochiq so‘kadi, haqorat qiladi... (Cho‘lpon) 6. Sahna asarlari matnidagi turli izoh, remarkalar qavs ichida beriladi: SOHIBQIRON. Yo‘q! Bari Ollohdan. Yaratgan egamning xohishi shul erkan. O‘z jannatidan joy ato qilg‘ayl (Qalqonbekka). Dafn taraddudini ko‘ringlar! 6- 15-688 81 www.ziyouz.com kutubxonasi (Yuziga fotiha tortadi. Saragulni o‘rnidan turg‘izadi). Sen qachon kelding bu maskanga? (O.Yoqubov) OLIMJON (Alomatga qarabturib). lye, buo‘chibqopti-ku... (Robotning yelkasidagi blokni kavlashtira boshlaydi.) (Sh.Boshbekov)

## 6-masala
## Qo‘shtirnoqning *gap ichida qo‘llanishi*

**1**. Har biri alohida abzas ko‘rinishida yangi qatordan emas, balki ketma-ket bir qatorda berilgan dialog replikalari shaklidagi ko‘chirma gap qo‘shtirnoqqa olinadi («Ko‘chirma gapli qo‘shma gaplarda tinish belgilari» deb nomlangan qismda bu haqda batafsil aytiladi). 2. Turli manbalardan olingan iqtiboslar qo‘shtirnoq ichida beriladi: Navoiy umrining oxirlarida yaratgan «Mahbubul-qulub» asarida yozadi: «Yaxshi-yamonning fe'lini bilibmen va yamon-u yaxshi xislatlarin tajriba qilibmen». (N.Komilov) «Odami ersang, demagil odami Onikim, yo‘q xalq g‘amidin g‘ami». (Alisher Navoiy) Cho‘lpon shunday deb hayqirgan edi: «...Kishan kiyma, Bo‘yin egma Ki, sen ham hur tug‘ilg‘onsen!» Yunonlarning Lukian degan yozuvchisi o‘tgan. Eramizdan avval. Uning «Vatan sha'niga» degan asari bor. Undagi birinchi jumla shunday ekan: « 0 ‘z ona-otasini sevmagan farzand o‘zga ota-onalami hurmat qila bilmaydi. Va o‘z vatanini sevmagan kishi o‘zgalar vatanini hurmat qila olmaydi!» (Sh.Xolmirzayev) 3. Ichki nutq shaklidagi birliklar (o‘y-xayol, mulohaza, tasavvur kabi) qo‘shtirnoqqa olinadi: Shavkat sekin oynasi darz ketgan suratga termilib qarar ekan, xayolidan ushbu o‘ylaro‘tdi: «Qiynalib ketdim, Surayyo... Sen bo‘lganingda, bu ko‘rgiliklar yo‘q edi... 0 ‘zing hammasini eplarding...» (Sh.Boshbekov) 4. Gapda odatdagi ma'nosidan boshqa ma'noda qo‘llangan, shuningdek, eski, yangi yoki chet so‘zlar qo‘shtirnoqqa olib beriladi: Borib-borib yirikroq «ish»ga o‘tdi - odamlarning uy-joyi, mol-holini o‘g‘irlaydigan bo‘ldi. (Sh.Boshbekov) Shundagina Shavkat «o‘tlab» 82 www.ziyouz.com kutubxonasi ketayotganini anglab qoldi. (Sh.Boshbekov) Bu turqi sovuqning sho‘rlik Otaga «mehri» tushgan ekan, uni tinch qo‘ymadi. (O.Yoqubov) (Malades, Shayx! Orangutan bo‘p ket-e!) Bunday «maqtovlar» Shayxni battar jazavaga soladi. (0'.Hoshimov) Ko‘p o‘zingdan ketaverma, adang «shishka» bo‘lsa o‘ziga! (Sh.Boshbekov) U kelganimizdan beri allaqanday lug‘atni yonidan qo‘ymaydi, biroq ovqat mahali bor bilimi esidan chiqib ketadimi, nuqul «fish» (baliq), «chiken» (qovurma jo‘ja go‘shti), «ti» (choy) yoki «bia» (pivo) deydi. (E.A’zam) 5. Turli asarlarning, shuningdek, kitob, gazeta, jurnallarning nomlari, sarlavhalar alohida olinganda emas, balki matnda qo‘llanganda, qo‘shtirnoqqa olinadi: A.Qodiriyning «O‘tkan kunlar» romanini o‘qidim; 0'.Hoshimovning «Dunyoning ishlari» qissasi; A.Oripovning «O‘zbekiston» she'ri; «Maftuningman» badiiy filmi; «Hozirgi o‘zbek adabiy tili» darsligi; «Mehnat kodeksi» kitobi; «Xalq so‘zi» gazetasi; «O‘zbekiston adabiyoti va san'ati» gazetasi; «Sharq yulduzi» jurnali; «O‘zbek tili va adabiyoti» jurnali kabi. 6. Muassasa, tashkilot, korxona va shu kabilarning shartli nomlari qo‘shtirnoqqa olinadi: «O‘qituvchi» nashriyoti, «Fan» nashriyoti, «Jahon» axborot agentligi, «Oila» ilmiy-amaliy markazi, «Tasviriy oyina» ijodiy uyushmasi, «Oltin meros» xalqaro xayriya jamg‘armasi kabi. 7. O‘zbekiston Respublikasi orden va medallarining nomi qo‘shtirnoqqa olinadi: «Mustaqillik» ordeni, «Buyuk xizmatlari uchun» ordeni, «El-yurt hurmati» ordeni, «Sog‘lom avlod uchun» ordeni, «Oltin yulduz» medali, «Jasorat» medali, «Shuhrat» medali kabi. Ammo buyuk shaxslar nomi bilan atalgan orden nomlari qo‘shtirnoqqa olinmaydi: Amir Temur ordeni, Jaloliddin Manguberdi ordeni kabi. 8. Turli mahsulotlarning shartli nomlari qo‘shtirnoqqa olinadi: «Qoraqum» konfeti, «Paxta» torti, «Samarqand» sovutkichi, «Neksiya» avtomashinasi kabi.

## *7-masala*
## *Ko‘chirma gapli qo‘shma gaplarda tinish belgilarining qo‘llanishi*

1. Ko‘chirma gaplar alohida abzas ko‘rinishida yangi qatordan emas, balki ketma-ket bir qatorda berilgan bo‘lsa, qo‘shtirnoqqa olinadi: Muning ustiga yana ta'na ham qilib qo‘ydi: «Kim olardi endi u kampirni?» (Cho‘lpon) Ammo agar ko‘chirma gap alohida abzas ko‘rinishida yangi qatordan berilgan bo‘lsa, qo‘shtirnoqqa olinmaydi va uning boshlanishi oldidan tire qo‘yiladi: Shunda keksa olim dedi: - 0 ‘g‘iingizning dunyoda tengi bo‘lmaydi. (O‘.Umarbekov) Birdan u qaddini rostladi va o‘choq boshiga qarab baqirdi: - Oyi! Otini nima qo‘yamiz? (OMJmarbekov) Eshikka yetganda Obid aka: - Teshavoy- deb chaqirdi. (OMJmarbekov)

2. Agar ko‘chirma gap muallif gapidan keyin kelsa, muallif gapidan so‘ng ikki nuqta qo‘yiladi va ko‘chirma gap bosh harf bilan boshlanadi; ko‘chirma gap darak mazmunida bo‘lsa, nuqta qo‘shtirnoqdan tashqarida, so‘roq mazmunida yoki emotsionallikka ega bo‘lganda esa so‘roq yoki undov belgisi, shuningdek, ko‘pnuqta yopiluvchi qo‘shtirnoqdan oldin qo‘yiladi: Barcha dedi barobar: «Ona tilim o‘lmaydi». (E.Vohidov) Otasi gapini ma'qulladi: «Tentirab yurma begona yurtlarda! Kelaver, ochingdan o‘lsang, men kafil». (0'.Hoshimov) Mansuming og‘zidan nogoh chiqib ketdi: «Jo‘ra, bir o‘tirish qilsam, nima deysiz?» (Sh.Xolmirzayev) Shahobiddin gap qotdi: «Otasi sotarmikan bu hurliqoni yo sandiqqa qamab, narxini oshirib o‘tiraverarmikan?» (A.lbodinov) Salim uning qo‘lidan yulqinib, uyga chopdi, zum o‘tmay otasidan qolgan qo‘shtig‘ni ko‘tarib chiqib, Polvonga o‘qtaldi: «Ket, bo‘lmasam, otaman!» Mahfirat miltiqqa ko‘kragini tutdi: «Avval meni otasan!..» (M.M.Do‘st) Dam o‘tmay ko‘chada onaning fig‘oni eshitildi: «Mening bolam o‘g‘ri emas, nega uni qiynaysizlar. Uning jigari kasal...» (T.Malik) 3. Ko‘chirma gap muallif gapidan oldin kelsa, muallif gapidan oldin tire qo‘yiladi; ko‘chirma gap darak mazmunida bo‘lsa, qo‘shtirnoqdan keyin vergul qo‘yiladi, so‘roq mazmunida yoki emotsionallikka ega bo‘lganda esa so‘roq yoki undov belgisi, shuningdek, ko‘pnuqta yopiluvchi qo‘shtirnoqdan oldin qo‘yiladi, muallif gapi esa kichik harf bilan boshlanadi: «Tushunsangiz-chi, aya, o‘z holimga qo‘ying, yosh bola emasman», - dedi. (OMHoshimov) «Sizga bir og‘iz gapim bor edi», - dedim. (Sh.Xolmirzayev) «Kimsan o‘zing?» - dedim jahlim chiqib. (E.A’zam) «Hoy, shu kuningdan o‘lganing yaxshimasmi? » - deb baqirdim. (Sh.Xolmirzayev) «O‘zing panohingda asra, Xudo!» -d e yd i Muyassar xayolan. (0 ‘.Hoshimov)

4. Muallif gapi ko‘chirma gapning ichida kelganda, muallif gapi ikki tomonidan tire bilan ajratiladi; bo‘laklangan ko‘chirma gap qismlarining har biri emas, balki yaxlit ko‘chirma gap qo‘shtirnoqqa olinadi, ya'ni ichida muallif gapi mavjud bo‘lgan ko‘chirma gapning boshida qo‘shtirnoq ochilib, uning oxirida yopiladi; bo‘laklangan ko‘chirma gapning birinchi qismi bo‘laklangunga qadar vergul, nuqtali vergul, ikki nuqta, tire kabi tinish belgilarini taqozo etgan yoki hech qanday tinish belgisini taqozo etmagan bo‘lsa, ko‘chirma gapning ayni uzilgan joyida vergul qo‘yiladi va muallif gapidan keyin ham vergul qo‘yilib, muallif gapi, shuningdek, ko‘chirma gapning ikkinchi qismi kichik harf bilan boshlanadi: «Kim astoydil harakat qilsa, - deydi keksalar, - o‘sha har qanday maqsadiga erishadi». (Gazeta) «Shuni ham aytib qo‘yay, - so‘zida davom etdi Ibrohimov, - hozirgi zamonda xotin baxtini erdan kutmaydi». (A.Qahhor) «Lekin qobiliyat keyin ham yuzaga chiqishi mumkin, - deb o‘zicha to‘ng‘illadi Zokir O‘rin nihoyat. - Buyam talantday gap». (Sh.Xolmirzayev) «Talabalar, - deydi ustozlar, - o‘z ustlarida muntazam ishlamoqlari lozim». (Gazeta) 5. Agar bo‘laklangan ko‘chirma gapning birinchi qismi bo‘laklangunga qadar nuqtani taqozo etgan bo‘lsa, ko‘chirma gapning ayni uzilgan joyida vergul qo‘yiladi va muallif gapi kichik harf bilan boshlanib, undan keyin nuqta qo‘yiladi; ko‘chirma gapning ikkinchi qismi bosh harf bilan boshlanadi: «Ma, - dedi mashinaning qiya ochiq eshigidan uzatib. - Gulandomniyam og‘zi tegsin». (0 ‘.Hoshimov) «Uch yildan beri shu gapni kutar edim sizdan, - dedi Omon iymanib. - Qiling. Bir yonini o‘zim ko‘taraman...». «Yo‘q, hammasi o‘zimdan, - kesib ta'kidladi Mansur. - Armonim shu edi, jo ‘ra». (Sh.Xolmirzayev) «Kambag‘alning ekkani unmaydi, bolasi ko‘payadi o‘zi, - deb o‘yladi Shoikrom ijirg‘anib. - Shu kunimdan ko‘ra urushga borib, o‘lib keta qolganim yaxshiydi». (0 ‘.Hoshimov) 6. Agar bo‘laklangan ko‘chirma gapning birinchi qismi bo‘laklangunga qadar so‘roq yoki undov

belgisini taqozo etgan boʻlsa, koʻchirma gapning ayni uzilgan joyida soʻroq yoki undov belgisi qoʻyiladi va muallif gapi kichik harf bilan boshlanib, undan keyin nuqta qoʻyiladi; koʻchirma gapning ikkinchi qismi bosh harf bilan boshlanadi: «Nahotki, Sultonmurod akam? - deyman. - 0 ʻzi qolib, sherik boshlab keptimi endi?.. Boʻlakdir-e, oʻlibdimi?!» (M.Mansur) «Tavba! - deyman. - Bu qanaqasi boʻldi!» (Sh.Xolmirzayev) «Menga desa, otib yubormaydimi?! - deb oʻyladi u ayvon labiga choʻqqayib oWganicha usti yopiq simni ochiq simga ildam ularkan. - Hama bitta haromxoʻmi oʻldirganim». (0 ʻ.Hoshimov) 7. Koʻchirma gap muallif gapining ichida kelganda, u bosh harf bilan boshlanib, qoʻshtirnoqqa olinadi va uning oldidan ikki nuqta qoʻyiladi; koʻchirma gapdan keyin uning mazmuniga muvofiq vergul (yopiluvchi qoʻshtirnoqdan keyin) yoki soʻroq, yoki undov, yoki koʻpnuqta (yopiluvchi qoshtirnoqdan oldin) qoʻyiladi, bu belgilardan keyin esa tire qoʻyiladi: Kampirni uygʻotib: «Tur, karomatingni koʻrsat», - dedim. (Oybek) Bunga qarshi oʻjar choʻloq: «Avval quda qilib, keyincha oʻzim ham shaharga koʻchmoqchiman», - deb javob berdi. (Choʻlpon) Mehmonlarga: «Zerikmadingizlarmi?» - deb, supaning bir chetiga oʻtirdi. (Oybek) Toʻn kiyib, belbogʻ bogʻlagan bolakaylar koʻzidan duv-duv yosh oqib: «Buvijonim, buvijonim!» - deb chirillashar edi. (0 ʻ.Hoshimov) Ona esa: «Bolam, qishlogʻimiz, odamlarimiz yana ham yaxshi boʻlib ketdi, mana, kelsang koʻrarsan...» - derdi. (S.Ahmad) Qizaloq: «Otam sizni yoʻqiayotuvdi. Zerikkanlar...» - dedi. (Sh.Xolmirzayev) 8. Koʻchirma gap mazmunan muallifning oʻy-xayoli, ichki kechinmasi, ichki fikr-mulohazasi kabilarga daxldor boʻlib, bevosita talaffuz qilingan nutq maqomida boʻlmasa, ya'ni muallif gapining sintaktik asosini ...deb oʻyladi, ... deb xayol qildi, ...deb fikr-mulohaza qildi, ...deya xavotir oldi, ...deya qoʻrquvga tushdi kabi, shuningdek, ...degan fikrdaman, ...degan gap, ...deganday boʻldi, ...deganday ishora qildi kabi soʻz shakllari tashkil etgan boʻlsa, koʻchirma gap kuchsizlangan, undagi voqeani nomlash darajasi esa kuchaygan boʻladi, shuning uchun mazkur «koʻchirma gap» qoʻshtirnoqqa olinadi, undan keyin yoki oldin esa hech qanday tinish belgisi ishlatilmaydi; faqat agar «koʻchirma gap» emotsionallikka yoki soʻroq mazmuniga ega boʻlsa, yopiluvchi qoʻshtirnoqdan oldin undov yoki soʻroq belgisi qoʻyiladi: «Nahotki, birga oʻqisak, yaxshi qiz ekan» deb oʻylardi. (0 ʻ.Umarbekov) «Yana fe'li aynibdi cholning!» deb oʻyladi kampir. (Choʻlpon) Hozir, birpas nafasni rostlab olay, keyin «Yo pirim!» deb kotaramiz-u, ketaveramiz. (Sh.Boshbekov) «Yoʻq, gaplashish qiyin boʻlsa kerak» deb oʻylayman. (0 ʻ.Umarbekov) «Uyda xotinim bor, qizim bor, ular nima yeydi?» deb oʻylamaydi. (Choʻlpon) «Bu joyda oʻzga maqsad boʻlishi mumkin emas!» deb oʻylardi u. (Choʻlpon) «Bu ketishda, qizim shoʻriik, toʻyga yetarmikan, yoʻqmikan?» degan xayollar onaning bagʻrini tilardilar. (Choʻlpon) «Tashi yaltiroq, ichi qaltiroq» degan gap bor. (Choʻlpon) Zunnun «Yoʻq, yoʻq» degan ma'noda qoʻlini chaypidi. (Choʻlpon) Nizom qayiqni sokin qoʻltiqqa burib kelib toʻxtatganda, Hamidaga ma'yus termilib, «Yana qachon koʻrishamiz?» degandek qaradi. (P.Qodirov) «Men qoʻyib yubordim, siz ham qoʻyib yuboring» degan ishorani bildirdi. (T.Murod) Ulugʻbek «Jim!» deganday oʻng qoʻlini sal kotarib qoʻyib, Abdulvahobga tikildi. (T.Malik) Yigitlar «Kim javob beradi?» degandek bir-biriariga qarab olishdi. (T.Malik) «Sendan yozuvchi chiqadi-yov» degan maqtovdan taltayib, oldidagi qogʻozga battar yopishadi. (E.A’zam)

## 8-masala
## Koʻchirma va dialoglarda tinish belgilarining qoʻllanishi

Biror matndan koʻchirilgan gaplar **koʻchirma** deyiladi. Koʻchirma ikki xil boʻladi:

1. Muallif gapi bilan birga qoʻllangan koʻchirma: *Alisher Navoiy ilm olishga da’vat qilib: "Olim boʻlsang, olam seniki", - degan edi .*
2. Muallif gapisiz qoʻllangan koʻchirma:

*Koinot gultoji insondir azal,*
*Undadir eng oliy tafakkur, amal.*
*U hatto tubanlik ichra ham tanho,*
*YO falak, ijoding buncha mukammal.*

*A.Oripov*

Muallif gapi bilan qo‘llangan ko‘chirma bayon qilinayotgan fikrni asoslash, tasdiqlash yoki inkor etish uchun keltiriladi. SHe’riy parchalar ko‘chirma tarzida keltirilsa, qo‘shtirnoqqa olinmaydi. Ko‘chirma muallif gapisiz qo‘llansa ham, qo‘shtirnoqqa olinmaydi. Bu tarzdagi ko‘chirmalar **epigraf** tarzida qo‘llanadi va qo‘shtirnoqqa olinmaydi.

## 5-§. Dialog

Ikki kishining nutqi **dialog** deb ataladi. Dialogda ko‘chirma gaplardan foydalaniladi, har bir gap tire bilan boshlanadi. (Bunda muallif gapi ishlatilmasligi ham mumkin.): - *Qaysi maktabda o‘qiysan? - 24-maktabda. – Nechanchi sinfda? – Beshinchi sinfda.*

### Takrorlash uchun savollar:

1. O‘zbek tilida jami nechta tinish belgisi bor? 2. Nuqta qaysi o‘rinlarda qo‘yiladi?
3. So‘roq belgisining qo‘yilish o‘rinlari haqida gapiring.
4. Undov belgisining qo‘yilish o‘rinlari haqida gapiring.
5. Ko‘p nuqta qaysi o‘rinlarda qo‘yiladi?
6. Tinish belgilarining birikkan holda ishlatilishi haqida gapiring.
7. Vergulning qo‘yilish o‘rinlari haqida gapiring.
8. Nuqtali vergulning qo‘yilish o‘rinlari haqida gapiring.
9. Ikki nuqtaning qo‘yilish o‘rinlari haqida gapiring.
10. Tirening qo‘yilish o‘rinlari haqida gapiring.
11. Qavsning qo‘yilish o‘rinlari haqida gapiring.
12. Qo‘shtirnoqning qo‘yilish o‘rinlari haqida gapiring.
13. Qaysi tinish belgisi nisbatan ko‘p qo‘llanadi?
14. Qaysi o‘rinlarda vergul doimo ikki marta qo‘llanadi?
15. Qaysi o‘rinlarda tire doimo ikki marta qo‘llanadi?
16. Qaysi tinish belgilari juft(takroriy) ko‘rinishga ega?
17. Qaysi tinish belgilari qisqartirilgan so‘zlar bilan qo‘llanadi?
18. Inson ruhiyati bilan bojliq o‘rinlarda ishlatiladigan tinish belgilarini sanab ko‘rsating.
19. Izoh ma’nosi ifodalangan o‘rinlarda ishlatiladigan tinish belgilarini sanab ko‘rsating.
20. Raqamlar bilan birga ishlatiladigan tinish belgilarini sanab ko‘rsating.

### Modul bo‘yicha yakuniy hulosalar

1. O‘zbek tilida tinish belgilari ikki xil usulda ishlatiladi.a)yakka holda,b)qo‘sha holda**.**

**2.**Nuqta – eng qadimgi va eng ko‘p qo‘llanuvchi tinish belgilaridan biri. Nuqta dastlab yozuv belgisi sifatida arabcha tekstda Abdul Malik halifaligi (hijriy I asr) davridan qo‘llana boshlagan. Keyinchalik, XIX asrning II yarmidan boshlab, tinish belgisi sifatida ishlatilgan. Nuqtaning asosiy vazifasi xabar ma’nosini anglatuvchi muayyan bir fikrning (gapning) tugallanganligini ko‘rsatishdir.

Nuqta gap oxirida qo‘llanadi. Uning qo‘llanishi logik-grammatik tamoyilga asoslanadi.

Ba’zan nuqta shartli qisqartmalardan so‘ng ham ishlatiladi.Bunda uslubiy yoki differentsiatsiya tamoyillariga asoslaniladi. Nuqtaning shartli qisqartmalardan so‘ng qo‘llanishi uning qo‘shimcha (yordamchi) vazifasidir.

3.Vergul o‘zbek yozuvida XX asrdan qo‘llana boshladi. «Turkiston viloyatining gazeti» sahifalarida 1901 yildan, Toshkentda nashr etilgan «Taraqqiy» gazetasida esa 1906 yildan boshlab ishlatilgani maa’lum. Vergul eng qadimgi tinish belgilaridan bo‘lib, o‘zining uzoq tarixiga ega: u G‘arbiy Evropa yozuvlarida XV asrdan tinish belgisi sifatida qo‘llana boshlagan.

Vergul eng ko‘p qo‘llanuvchi va eng ko‘p vazifani bajaruvchi tinish belgilaridan hisoblanadi. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida vergulning qo‘llanish doirasi, vazifasi kengayib bormoqda. Masalan, ilgari ko‘chirma nutq o‘rtasida kelgan avtor gapi ikki tomondan vergul va tire bilan ajratilgan bo‘lsa, hozirgi kunda faqat qo‘sh vergul bilan ajratilmoqda; tirening vazifasini ham vergul bajaryapti: Jamoamiz a’zolari, dedi rais, fidokorona mehnat qilmoqdalar.

Vergul quyidagi funkitsiyalarda keladi: a) gap bo‘laklari va gaplarning o‘zaro birikuvini ko‘rsatadi; b) gap bo‘laklari, gaplar, ayrim so‘zlar va iboralarni ajratadi, ayiradi, bo‘ladi; v) tekstdagi ayrim qismlarni chegaralaydi.

Vergul sodda gap tarkibida ham, qo‘shma gap tarkibida ham qo‘llanadi. Vergul qo‘shma gap tarkibida ko‘proq uchraydi.

4.So‘roq belgisi gap oxirida qo‘llanuvchi asosiy belgilardan hisoblanadi. Bu belgi mazmunidan so‘roq anglashilgan gaplar oxiriga qo‘yiladi; shu gapning tugallanish nuqtasini, uning boshqa gaplardan ajralish chegarasini ko‘rsatadi va mazkur gapning ifoda maqsadiga ko‘ra so‘roq gap egaligini bildiradi.

Undov belgisi gap oxirida qo‘llanuvchi tinish belgilariga kiradi. Undov belgisi o‘z strukturasiga ko‘ra, ikki elementli tinish belgisi.

5.Hozirgi o‘zbek tilida undov belgisi takroriy, oddiy va murakkab qo‘sha (birlikda)qo‘llanish xususiyatiga ega: undov belgisi bir o‘rinda uch martagacha takroriy qo‘llana oladi.

Undov belgisi undov va buyruq, ba’zan darak, so‘roq gaplar oxirida qo‘yiladi. Bunda bu mazkur gaplarning emotsional yoki qat’iy buyruq ma’nosiga ega ekanligini, tugallanganligini ba’zan esa ichki ta’sirchan mazmunga ega ekanligini, boshqa gaplardan chegaralanish nuqtasini ko‘rsatadi. Bunday gaplarda, ko‘pincha, to‘lqinli yoki o‘ziga xos hayajonli intonatsiya bilan aytiladi.

Undov belgisi o‘zbek tiliga rus tili orqali o‘tgan. U, o‘zbekcha yozuvlarda XX asr boshidan boshlab mumtazam ravishda ishlatilgan

6.Nuqtali vergul ustma – ust joylashgan nuqta va verguldan iborat tinish belgisidir:(;) U quyidagi holatlarda qo‘yiladi:

1)tarkibi murakkab gap bo‘laklari orasiga;

2)qo‘shma gaplarning mazmunan bir-biriga yaqin bo‘lgan qismlari orasiga;

6)raqamlash bilan sanalgan parchalar orasiga.

7.Ikki nuqta (:) ustma – ust qo‘yiladigan ikkita nuqta bilan ifodalanadigan tinish belgisi bo‘lib, asosan, quyidagi hollarda qo‘yiladi:

1) uyushiq bo‘laklar oldidan qo‘llangan umumlashtiruvchi bo‘lakdan so‘ng: Suv ochish tantanasiga qorabuloqning butun aholisi: chollar, xotinlar, bolalar chiqishdi. (M.Ismoiliy);

2) bog‘lovchisiz qo‘shma gap tarkibidagi gaplarni ajratishni ko‘rsatish uchun: Yakun qildim: ko‘z yoshlariga ikki bois bor ekan asli. (Uyg‘un); 3)ko‘chirma gapdan oldin kelgan muallif gapidan keyin: Halqimizning sevimli adibasi, suyukli momomiz Tursunoy Soddiqova bir chiqishida ba’zi betgachopar kelinlarga qarata shunday deganlar: « Hay kelinchak shu kojliging bo‘lsa, senga gap uqdirishning iloji yo‘q!»

8. Ko‘pnuqta gorizontal holda qo‘yiladigan uch nuqta bilan ifodaladigan tinish belgisidir(). Ko‘pnuqta asosan quyidagi hollarda ishlatiladi:

a) mazmuni tugamagan gaplar oxirida: Siz otasiz. O‘z gapingizdan qolmas edingiz;

v) tsitata yoki olingan misollarning tushirib qoldirilgan qismi o‘rnida: « Men ,- degan edi mashhur rus pedagogi V.Suxomlinskiy,- tarbiyaning kuchiga ishonaman».

b) so‘zlovchining ichki his-tuygulari, aytolmagan so‘zlari o‘rnida: Men sizga aytsam, sovg‘a ni mengami deb o‘ylab, uni uyga olib borib qo‘yibman .

9.Qavs yangi chiqqan yarim oy yoki yoy shaklidagi ikki qismli(ochiluvchi va yopiluvchi) tinish belgisidir. Qavs asosan quyidagi vazifalarni bajaradi va quyidagi o‘rinlarda qo‘llanadi:

a) ko‘chirmalarning manbaini ko‘rsatish uchun xizmat qiladi. Bunda asosan ko‘chirmadan keyin ishlatiladi. Masalan: Beshikdan to qabrgacha ilm izla.(Hadis);

b) kiritmalarni ajratish uchun xizmat qiladi.

10.Qo‘shtirnoq ikki (ochiluvchi va yopiluvchi) qismli tinish belgisi bo‘lib, yozuv ifodasiga ko‘ra ikki shaklga ega:„ ”, « ». qo‘shtirnoq: a) ko‘chirma gaplar va sitatalarni muallif gapidan; b) gazeta, jurnal va muassasalarning nomlarini ajratib ko‘rsatish; v) kesatiq, qochiriqlarni bildirish uchun ishlatiladi.

**Nazorat savollari va topshiriqlari.**

1.1.3.Punktuatsion belgilar qanday sharoitda va qachon paydo bo‘lgan?
1.3.1.O‘zbek tili punktuatsiyasi qachon paydo bo‘lganini aytib bering.
1.2.1. Punktuatsiya paydo bo‘lishining ijtimoiy til va yozuv taraqqiyoti bilan bog‘liqligini bayon qiling.
3.1.1. O‘zbek punktuatsiyasi tamoyillariga nimalar kiradi?
3.5.1. Nima uchun logik- grammatik tamoyil yetakchi hisoblanadi?

***Nuqta, so‘roq,undov belgilari, ikki nuqta, nuqtali vergul, ikki nuqta, tire, qavs, qo‘shtirnoq bo‘yicha***

*3.6.1. Nuqtaning ishlatilish o‘rinlarini bayon qiling.*
*3.6.2. Nuqta qanday vazifalarni bajaradi?*
*3.6.3.Nuqta qanday usullarda ishlatiladi?*
*3.7.1.Vergulning ishlatilish o‘rinlarini bayon qiling.*
*3.7.2. Vergul qanday vazifalarni bajaradi?*
*41.1. So‘roq belgisining ishlatilish o‘rinlarini bayon qiling.*
*4.1.2. So‘roq belgisi qanday vazifalarni bajaradi?*
*4.2.1. Undov belgisining ishlatilish o‘rinlarini bayon qiling.*
*4.2.2. Undov belgisi qanday vazifalarni bajaradi?*
*5.1.1. Ikki nuqtaning ishlatilish o‘rinlarini bayon qiling.*
*5.1.2. Ikki nuqta qanday vazifalarni bajaradi?*
*6.1.1. Nuqtali vergulning ishlatilish o‘rinlarini bayon qiling.*
*6.1.2. Nuqtali vergul qanday vazifalarni bajaradi?*
*7.1.1. Ko‘pnuqtaning ishlatilish o‘rinlarini bayon qiling.*
*7.1.2.Ko‘pnuqta qanday vazifalarni bajaradi?*
*8.1.1. Tirening ishlatilish o‘rinlarini bayon qiling.*
*8.1.2. Tire qanday vazifalarni bajaradi?*
*9.1.1. Tirening ishlatilish o‘rinlarini bayon qiling.*
*9.1.2. Tire qanday vazifalarni bajaradi?*
*10.1.1. qavasning ishlatilish o‘rinlarini bayon qiling.*
*10.1.2. qavs qanday vazifalarni bajaradi?*
*11.1.1 qo‘shtirnoqning ishlatilish o‘rinlarini bayon qiling.*
*11.1.2. qo‘shtirnoq qanday vazifalarni bajaradi?*

***Tavsiya qilinadigan asosiy adabiyotlar***

1. K.Nazarov. O‘zbek tili punktuatsiyasi.Toshkent, 1976.
2. 3. Sh. Rahmatullaev. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. T., 2006.
4. R.Sayfullaeva. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. T., 2009.
5. Hamroev M. va b. Ona tili. T., 2007.
2.A. G‘ulomov. M. Asqarova. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Sintaksis.T. 1987.

**Foydalaniladigan adabiyotlar**
**Prezident asarlari**

1. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliy janob xalqimiz bilan birga quramiz. –Toshkent: O‘zbekiston, 2017.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi” to‘g‘risidagi Farmoni (Xalq so‘zi. 2017-yil,8-fevral)
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari” to‘g‘risidagi qarori (Xalq so‘zi. 2017-yil,21-aprel)

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganligining 30 yilligiga bag‘ishlangan marosimdagi nutqi.(Xalq so‘zi. 2019-yil,22- oktyabr).
5. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020- yil 20- oktabrdagi “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6084-son farmoni.
6. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022- yil 28 - yanvardagi “ 2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son farmoni. www.uzbekistonmet.uz

## Asosiy adabiyotlar

1. Amanturdiyev J. O‘zbek puktuatsiyasi. –Toshkent: "O`qituvchi", 20017.
2. K.Nazarov. O‘zbek tili punktuatsiyasi.Toshkent, 1976.
3. Nazarov K., Egamberdiev B. O‘zbek tili ishoraimlo qoidalari. (Punktuatsiya). Oliy o‘quv yurtlari filologiya fakultetlari talabalari uchun qo‘llanma. – Toshkent: O‘qituvchi, 1996.
4. O‘zbek tili punktuatsiyasining asosiy qoidalari. Tuzuvchilar: N.M.Mahmudov, A.P.Madvaliev, N.Mahkamov. - Toshkent: «O‘zbekiston» NMIU, 2015. - 88 6.
5. Jamolxonov H. Hozirgi 0‘zbek adabiy tili. Darslik. – Toshkent: O‘zME, 2013.
6. Rahmatullaev Sh.U. Hozirgi adabiy o‘zbek tili.– Toshkent: "Universitet", 2006.
7. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G. va b. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Darslik. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2009.
8. A. G‘ulomov. M. Asqarova. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Sintaksis.T. 1987.
9. Hamroev M. va b. Ona tili. T., 2007.

## Qo‘shimcha adabiyotlar:

10. G‘.Abduraxmonov va boshqalar.O‘zbek tili grammatikasi.T.1999.
11. Jamolxonov H.A. Rus va lotin grafikalari asosidagi o‘zbek yozuvlarining imlo qoidalaridagi tafovutlar G‘G‘"Til va adabiyot ta’limi" jurnali, 1997, 4-son, 58-64-b.
12. Jomonov Ravshan. Bosh harflarning qo‘llanishi tarixiga doir G‘G‘ "Til va adabiyot ta’limi", 1998, 5-son,19-24-b.
13. Zamonaviy o‘zbek tili. Morfologiya. Darslik.– Toshkent: Mumtoz so‘z, 2008.
14. Zamonaviy o‘zbek tili. Sintaksis. Darslik. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2013.
15. Mahmudov Nizomiddin. Mustaqillik, o‘zbek tili va yozuvi ."Xalq so‘zi", 1992, 19-may soni.
16. Rahmatullaev Sh.U. O‘zbek tilining yangi alifbosi va imlosi – Toshkent: "Universitet", 1999
17. O‘zbek tilining imlo lug‘ati. Toshkent: “Akademnashr” 2013.
18. O‘zbek orfografiyasining asosiy qoidalari. – Toshkent: "FAN", 1956.

## Internet ma’lumotlari:

www.ziyo.net
www.thinsan.com
www. uforum.uz
www.literature.uz
https:G‘G‘lex.uz.
https:G‘G‘uz.wikipedia.orgG‘wikiG‘Punktuatsiya
https:G‘G‘samarapedsovet.ruG‘uzG‘finansovyjjG‘punktualnyi-razbor-predlozheniya-chto-znachit-i-kak-delat-punktuacionnyi-razborG‘
https:G‘G‘quiz.directoryG‘quizG‘XG7AQ1xq
https:G‘G‘ru.sputnik.kgG‘20220604G‘ya-tak-vizhu-chem-avtorskaya-punktuatsiya-otlichaetsya-ot-oshibok-1064923806.html
https:G‘G‘aim.uzG‘prezentatsii.html

## Amaliy mashg‘ulotlar materiallari

### *1-mavzu*

**Gap oxirida qo‘llanadigan tinish belgilari yuzasidan mashqlar**

*Ajratilgan vaqt - 4 soat*

1-mashq**. Kerakli o‘rinlarga so‘roq va undov belgilarini qo‘yib, gaplarni ko‘chiring.**

*1. - Voy, bu Nodirginam-ku – titroq ovoz eshitildi ichkaridan. U Risolat xola edi. - Ammang o‘rgilsin, bormisan, jigargo‘sham, tan-joning sog‘mi Har kecha tushlarimga kirib chiqasan. (*J.Abd.*) 2. Oyi – dedi baland ovozda, tepasida turgan Azizga "to‘g‘ri tushdi", deganday ishora qilarkan. – Saltanatman Tinchlik, tinchlik Qo‘rqmang, voy Shunday, o‘zim telefon qilyapman. Uydan Ha, uydan Hozirgina o‘rnatib ketishdi.(*O‘.Usm.*) 3. Bas qiling – dedi Nigora.(O.Yo.) 4. O‘rtoq A'zamov Siz o‘z grajdanlik burchingizni to‘g‘ri anglagansiz. (P.Q.)*

2- mashq**. Kerakli o‘rinlarga ko‘p nuqtalarni qo‘yib, gaplarni ko‘chiring.**

*1. "Unday qilish kerak, bunday qilish kerak", degan bilan hatto odam ham bu hadsiz, sirli olam qarshisida lol qolib, mardchasiga tan olibdi-ku! 2. Oxirgi marta aytyapman: agar hozir yugurib kelib, qo‘limni bo‘shatmasang (Sh.Boshbekov) 3. – Ha, shu o‘g‘limdan bezovta bo‘lyapman, - dedi Nuriddinov, to‘satdan xayoliga kelgan bu fikrdan quvonib. (O.Yo.)*
*4. U Moskvadagi seminarga odam yuborishdan oldin ancha bosh qotirib ko‘rdi. (O‘.Usm.) 5. – Bugun tuni bilan uxlay olmay to‘lg‘anib chiqdim, - dedi. – Yomon tushlar Siz aytgan qurbonlik Chunor (P.Q.)*

3-mashq. **O‘qing. Kirish gaplarni aniqlang va tinish belgilarining qo‘llanishiga e'tibor bering, sabalarini tushuntiring.**

*1. Kecha kampirning qirqidan keyin - bu orada Otaqo‘zi tog‘asini shahardan bus-butun ko‘chirib ham keldi - Normurod Shomurodov qabristonga yana chiqdi.(O.Yo.) 2. "Domlajon (u meni domlajon derdi), yana institutga qaytdim" deb kirib kelishini kutardim.(T.Malik) 3. Yozda qishloqqqa borganlarida kamina...(u mahalda men o‘n uch –o‘n to‘rt yashar bola edim) ularga pochtachilik qilardim...(O.Yo.) 4. O‘tirishi bilan bir necha kishi – Otaqo‘zi buni kuzatib o‘tirardi – sekin uning qo‘lini qisib, tabriklab qo‘yishdi. (O.Yo.) 5. U viloyatdan xat olib kelib - bu xatga viloyatning qishloq xo‘jaligi bo‘yicha rahbari Begmurod Xolmurodov imzo chekkan edi - tumanga tegishli qurilish materiallari hisobidan katta bir qismini o‘marib ketgan edi.(O.Yo.) 6. Uning egnida qadimona tikilgan keng, uzun shohi ko‘ylak (qutli kunda "burma ko‘ylak" kiyishni onasi man etgan), boshida baytlar yozilgan katta «sanama" ro‘mol.(O.) 7. Onasi aytmoqchi, unga ko‘ngil qo‘ygani rost bo‘lsa-ya? (J.Abd.)*

4-mashq. **Ko‘chiring. So‘z-gaplarni aniqlab, ma'nosini va ulardan so‘ng qo‘llangan tinish belgilarining ishlatilish sabablarini izohlang.**

**N a m u n a : *To‘g‘ri!* – qat'iy tasdiq ma'nosida, alohida intonatsiya bilan aytilgan, shu sababli undan so‘ng undov belgisi qo‘yilgan.**

*1. Nizom uning ko‘z ochganidan engil tortib: - Xayriyat! – dedi.(P.Q.) 2. – Biz xonalar keng, baland bo‘lsa, deymiz. Toki xastalar toza havoga muhtoj bo‘lishmasin. - Ma'qul. Rasadxonaga hech yo‘lingiz tushganmi? - Ha. Faqat tashidan ko‘rganman. (T.Malik) 3. Uning chakka tomirlari chiqqan, nafas olishi bejo edi. – Ha? - dedi Haydar ota. - Hech... Chilim elitgandir.(A.Q.) 4. - Kechikmang, o‘g‘lim, biz bunda uzoq turolmaymiz, - dedi Me'mor. - Xo‘p, ustod. (Mirm.) 5. – Ofarin, G‘avvos! - dedi Zavrak yana sakrab aravaga chiqib. (Mirm.)*

*6. - Uylanganmisiz? - Ha. - Bolalaringiz bormi? - Yo'q. (X.T.) 7. Hormang, Do'simboy ota! - dedi Abduqodir o'sha tomonga yurib. - Salomat bormisiz? (O'.Umarbekov) 7. O'rmon aka o'rmak to'qiyotgan ayolning qoshiga keldi. - Qalaysiz opa? Hormang! - Bor bo'ling, uka. Kelib zap ish qildilaring-da...(Sh.X.) 8. Assalomu alaykum, domla! – dedi yugurib kelib uning qo'lidan sumkani olarkan. – Qalay, tuzaldingizmi, domlajon? – Rahmat! - dedi Bashirjon kabinaga chiqib o'tirayotib.(N.Aminov) 9. - Tavba! Arpangizni xom o'rdimmi, mehmonlarning oldida meni muncha uyaltirasiz? (P.Q.)*

5-mashq. **O'qing. Gaplar oxiriga qo'yilgan tinish belgilarining ishlatilish sabablarini izohlang.**

*1. – O'zi-chi? Oilasi-chi? Bu ketishda kelajagi nima bo'ladi? (O.Yo.)*
*2. Taom ustida Rahimov Jayronada so'radi: - Qizim, marshrut o'zgarmaganmi? Mehmonlarni qaerga obormoqchisiz? (S.Ahm.) 3. – Odamlar, Madumar dodhoh hokimga ot mindirib mingboshi bo'lib yuribdi, demaydimi? (M.I.) 4. Yasovul chiqib ketgandan keyin mingboshiga yuzlanib: - Otni kim minib boradi? – deb so'radi. (M.I.) 5. – Qo'ying shu gaplarni uka!.. - Haqiqat-a? Yo'q, siz qo'rqmang. (M.I.) 6. Gulnor nima qilsin? U yaralarini kimga aytsin? (O.) 7. Kun sayin necha gunohsizlarni ostirgan, kestirgan, bolalarimizni etim, onalarimizni qon yig'latgan sen emasmiding? Xanjaringni xayf ko'rib, mahallalarga chayon solig'i solgan, og'alarimizni chayon zahari bilan o'ldirgan kim edi? (A.Qod.) 8. Lekin ko'nglim Omon so'ltining va hazrati domla jihatidan ancha tashvishda edi. Bechoralarning boshiga qanday kunlar keldi ekan?.. Nima bo'ldi ekan, urib o'ldirdilarmikin? (G'.G'.) 9. Ikkinchi majlisi-ngizda, kim hali, Homid dedingizmi, nega yo'q edi? (A.Qod.) 10. Seni ham qo'rboshi yigitlari qidirdilar? (A.Qod.) 11. – Mingboshiga suvni kim berdi? – Men berdim. – Demak, mingboshini o'ldirgan – siz? (Ch.) 12. – Shom vaqtida keldim, - dedi Yo'lchi, - nega muncha hovliqasiz, nega muncha tashvish?.. (O.) 13. Bu qari bakovul ne demoqchi? Niyati pokmi? Yo uni bir baloga mubtalo qilmoqchimi? (O.Yo.) 14. Demak, bizda hali shu A'zamovdan boshqa landshaft arxitektori yo'q? (P.Q.)*

6-mashq. **So'roq gaplarni sof va ritorik so'roq gaplarga ajratib yozing,ulardagi tinish belgilarining qo'yilish sabablarini tushuntiring.**

*1. Pulni olmaganimni, vijdonim pokligini kim bilib o'tiribdi? (T.Malik) 2. Axir ular mardikor emas, hasharchi hisoblansa... mehnatidan azob topib, norozi bo'lib ketishi kerakmi? (T.Malik) 3. Bu ahvolda suvga tushgan bo'lka nonga o'xshab cho'kib o'tirganingdan ruhi ranjimaydimi? (S.Ahm.) 4. O'sha lim-lim daryoni ayyuhannos solgan bilan orqaga qayirib bo'larkanmi? (O'.Usm.) 5. Mayli, tanasi boshqa dard bilmas, deganlaridek, uning dardu hasratlarini bilmaganlar nimalar demaydi? (O.Yo.) 6. Urush qurbonlariga yodgorlik o'rnatishdan savob ish bormi? (O.Yo.) 7. – Men seni ket deyapmanmi? Yaxshi odam bo'lsang, o'zingga foyda! Yoshing yigirma beshdan oshdi.(P.Q.) 8. U chiqadigan vagondan keyingisining qarshisidagi gazeta-jurnal sotish do'konchasi yonida G'ulom aka turardi. Mohidilni kutyaptimikin? Xuddi shu bugun, shu soatda kelishini qayoqdan bildiykin u? (J.Abd.) 9. O'z nomi bilan qora bo'lgan bu qora qishloqda odamlar xoru zorligi buloqday qaynab yotmayaptimi? Ota-buvalari bu erni shuning uchun ham Qorabuloq deb atab ketishmagan-mikan? (M.Ism.) 10. Axir ko'krak ostida gup-gup urib turgan yurakning o'zi hamma sirini bildirib turgandan keyin uni til bilan ifoda etishga hojat qoldimi? (J.Abd.) 11. Dam o'tmay suv ichgani tushaversa, ish unumli bo'larmidi?(J.Abd.)*

7-mashq. **O'qing. Undov so'zli gaplarda ishlartilgan tinish belgilarining qo'yilish sabablarini aniqlang.**

*1. – Hoy, Mehri opa, nima balo, ko'chib ketganmisizlar? (H.G'.) 2. – Xo'sh, - dedi podsho, siz kimsiz, nima tiriklik qilasiz? (G'.G'.) 3. – Be-e? Ertan bizniyam tekshiruvga olmasa go'rgaydi. (J.Abd.) 4. – E, mahmadana qizim, osmon qayoqda-yu, er qayoqda! – dedi ona boshini g'amgin tebratib. (O.) 5. E-he, Bo'zsuvning bo'yida biznikiga o'xshab turgan qancha hovlilar bor edi. (P.Q.) 6. Ana xolos, bu yog'i necha puldan tushdi endi, tavba, e tavba! (X.T.) 7. Qiziq, shishalar ichiga qancha berkitsam, Iblis shuncha aniqroq ko'rinyapti deng. (X.T.) 8. – Taqdirimiz bunday bo'lishini kim bilibdi. Xayr, bekam! (Mirm.) 9. – Bo, ovorasi nimasi, poshshaoy, kunda kelib yurganmidingiz...(J.Abd.) 10. – Rahmat, - dedim qo'limni ko'ksimga qo'yib. "Rahmat" – qanday oson so'z! "Rahmat" – qanday qiyin so'z! (E.A'z.) 11. – Voy, xayriyat-ey, oftob qayoqdan chiqdi! – dedi. (P.Q.) 12. Shuncha vaqt tuzimizni ichib, bizdan aziyat chekmadingiz, inshoollo, bundan buyoq ham shundoq bo'lg'ay. (S.Ahm.)*

## UY ISHI
## SAVOL -TOPSHIRIQLARI

8-mashq. **Alohida olingan guruh so'zlari ishtirok etgan gaplarning oxirida qo'llangan tinish belgilarining qo'yilish sabablari haqida ma'lumot bering.**

**Og'zaki**. *1. – Xo'p... har bir bo'ltakdagi a'zolarning o'zlariga yarasha bog'lari bor, shu bog'larni har bir a'zoning o'zi ishlashi lozim.(A.Qod.) 2. Ot dukurini eshitib ichkaridan Cho'lpon bilan direktor chiqishdi. 3. – Obbo, la'nati, qayoqdan kelib qoldi! – deb Fosiq afandi apil-tapil o'zini olib qochdi. (M.I.) 4. Rasul Olloyorovich qalamini stolga tiq-tiq urib, Azizga tikilgancha: "Tavba... bu bolaga nima bo'ldi o'zi? Tuppa-tuzuk edi-yu... tozayam betgachopar ekan-ku?.." deya o'yladi. (O'.Usm.) 5. – Ha, boring. Zarur uchrashuvdan qolmaslik kerak... Darvoqe... mulla Anvarbek, eshitganlaringiz o'zaro gap-a? (T.Malik) 6. – Sahobaman, degin... Esizgina, voy-voy shuncha bug'doy, shuncha pul! – deydi va tars etib soniga urib qo'yadi. (A.Qod.) 7. Assalomu alaykum! Hormang, usta Qudrat! – dedi Hasan so'fi do'konga yaqin kelib.(M.I.) 8. Aziz, «demak, o'rtada bo'lgan gaplardan Muhiddin Jabborovich ham xabardor ekan-da. Faqat xabardorgina emas, aloqador ham shekilli" deya o'yladi. (O'.Usm.) 9. G'ulom aka: - A? – dedi-yu, o'rnidan sakrab turdi. Aftidan, shu o'tirishda mizg'iyotgan ekan. (J.Abd.) 10. – Xo'p, boshqa gapingiz yo'qmi? – Yo'q! – trubkadan chaqaloqning yig'isiday "big'-big'" ovoz eshitildi. (O.Yo.)*

**Yozma**. *1. Ha, aytgancha, oz bo'lmasa esimdan chiqay degan ekan. (S.Ahm.) 2. – Rahma-a-at, rahma-a-at. Gap bunday, o'rtoq Qurbonov, men siz haqingizda radioocherk yozaman! (T.Murod) 3. Xuddi ana shu to'plardan biri "gurr" etib buzildi-yu, Mohidilni o'rab olishdi: - Salom, opa, tabriklaymiz! (J.Abd.) 4. Qamchili qo'limni alamli siltadim. Go'yo, hay, attang-a, omad kulib boqmadi, dedim... Zirq, zirq!.. Xayriyat, xayriyat-e, ko'pkari sob bo'ldi! (T.Murod) 5. Albatta, mashinaga o'tirib, g'ir etib, ertalab Toshkentga tushib, kechqurun qaytib kelish ham mumkin.(O.Yo.) 6. Yo'q, Po'latxo'ja pismiqlikka pismig'u, ammo chumchuq pir etsa, yuragi shir etadigan qo'rqoq bir odam, - dedi u o'ychan tovushda. (O.Yo.) 7. Farmonov xuddi yuragi paq etib yorilib ketganday "ih" deb ko'kragini ushladi-da, boshini shilq etib yostiqqa tashladi. (O.Yo.) 8. – Odamzod shu ekan-da. Qanaqa yigit edi-ya! E, attang, - dedi bir chol Erali ketgan yo'lga qarab. (S.Ahm.) 9. Fotih peshonasiga "shap" etib urib: - O, bu g'urur o'lsin!.. – degandi qaynab. (O.Yo.) 10. Ammo... eshikdan lip etib kirib, go'yo "pir" etib uchib ketgan bu g'aroyib qushcha...(O.Yo.)*

## *2-mavzu*

**Gap ichida qo‘llanadigan tinish belgilari yuzasidan mashqlar**

*Ajratilgan vaqt – 4 soat*

**1-mashq.** O‘qing. Gaplar tarkibida qo‘llangan vergul va nuqtali vergullarning qo‘yilish sababini izohlang**.**

*1. Faqat klub, oshxonagina emas, baraklarga ham hir xil chaqiriqlar, shiorlar yopishtirib qo‘yildi.(J.Abd.) 2. Yo‘g‘on gavdali Sarimsoq joyidan jilmay, bir mingboshiga, bir hokimga o‘qrayib turaverdi. (M.Ism.) 3. Aziz, ehtimol, boshqa vaqtda bunga ahamiyat bermasdi, ammo hozir ajablandi.(O‘.Usm.) 4. – Ie, ie, buni qarang, Azizjon, qaynanangiz suyar ekan, oshning ustidan chiqdingiz.(O‘.Usm.) 5. Yo‘q, Shoqosim dunyodan umidini uzgani yo‘q hali! (O.Yo.) 6. Qaerda “d” uchrasa, quyrug‘i chapga qayrilgan; qaerda “b” uchrasa, quyrug‘i o‘ngga qayrilgan. (Ch.) 7. Shamol yurmasa, tabiat chehrasiga tabassum yugurmasa, unday yog‘ingarchilikdan, unday momaqaldiroqdan ne foyda? (J.Abd.) 8. - Biz paxta ekamiz, - dedi Rasul qizishib.(O.Yo.) 9. Birov yotoqxonaga muhtoj, birov iqtisod jihatdan kamchil.(J.Abd.) 10. Yo‘lchini dahshatli bir kuch egalladi; insofga, adolatga, haqiqatga yot bo‘lgan bu hayotni, zamonni, hamma narsani oyoqlari ostida ezsa, yiqitib yoqsa! (O.) 11. Bundan uch yil burun, Andijon zilzilasidan keyin, Simxaev zavodidagi erlik ishchilar ish haqining oshirilishini, jarimalarga barham berilishini, ishchilarga odamlarcha muomala qilishini talab etib ish tashladilar.(M.Ism.)*

**2-mashq**. O‘qing. Tushirilgan ikki nuqta va tirelarni aniqlab, to‘rtta gap ko‘chiring.

*1. Rasul sal hushini yig‘ib Kasalxonasi qayoqda ekan? deb so‘radi. (O.Yo.) 2. Endi birdan-bir vazifam shu g‘oyani bekamu ko‘st ro‘yobga chiqarish.*
*( J.Abd) 3. Hamisha o‘zi shunday har bir kashfiyot kollektiv intilishlarning mahsuli! (O‘.Usm.) 4. Osmonda, daraxtlarda, tomlarda, bo‘g‘otlarda hamma erda chumchuqlar chirqillashadi. (M.Ism.) 5. Ana u Mezon yulduzining dumi, mana bu yulduz Etti qaroqchining boshlig‘i, mana bu Hulkar...(G‘.G‘.) 6. Bu yoqda Nasiba, onangiz, qolaversa, men, Vazira hammamiz birgalikda katta oila bo‘lib yuribmiz. (P.Q.) 7. Madumar uni ko‘zi bilan qidirib ko‘rdi topmadi.(M.Ism.) 8. Ammo ushalgan orzu uni yana qancha vaqt baxtiyor qiladi buni u o‘ylamaydi. (M.Ism.) 9. Ayni vaqtda, maydonning sharq tomonida anhor bo‘ylarida hozircha o‘zlashtirilmagan bo‘sh erlar bor. (P.Q.) 10. Ammo-lekin bu dili qing‘ir ustomon men Muzaffarning o‘pka zuryodini aytyapman bir begunoh yigitni qoqib mayib qilsa-yu, yordam berish o‘rniga uni katta yo‘lga tashlab qochsa!(O.Yo.)*

**3-mashq.** O‘qing. Ega va kesimlar orasiga tire qo‘yilish-qo‘yilmasligini izohlang va to‘rtta gap ko‘chiring**.**

*1. Barmoq o‘yini polvonlar san’ati! (T.Murod) 2. Niyati sahroda ham yangi shaharcha barpo etib, cho‘lni bog‘-bo‘stonga aylantirish! (O.Yo.) Demak, shu ishning muallifi uchovimiz!.. (O‘.Usm.) 4. Bu avliyoga esa hali-hali bir gap oz, ikki gap ko‘p. (O‘.Usm.) 5. Choriqdarron jangida xo‘jand-liklar engilib, orqaga chekinishi juda og‘ir alam edi. (Mirm.) 6. U gaplarning bir chekkasini eshitish ham dahshat! (“Sharq yulduzi”dan) 7. Bu erdagilarning yagona mulki tashvish, alam, tahlika... (T.Malik) 8. Bu qum yuzasidan bir qarich ichkarida yotgan, hali sovib ulgurmagan kunduzgi jaziramaning taftidir. (J.Abd.) 9. Axir yaxshi nav yaratish mening oddiy vazifam, burchim. (O‘.Usm.) Ammo orzularingizni tezda qondirish uchun birdan-bir yo‘l orangizga besh-olti o‘rtoqni tarqatish. (A.Qod.) 10. Kutilmaganda nayza o‘qtalib yugurib qolgan mo‘g‘ulga ro‘para kelib halok bo‘lish oddiy voqea. (Mirm.) Yana biz uchun eng zaruri hozir ekayotgan “F” g‘o‘zamizdan olti-etti kun oldin etilishidir. (O‘.Usm.)*

*11. Bitta aql    bitta, ikkitasi    ikkita! (O'.Usm.) 12. Dunyoda suyangan birdan-bir odami men.(S.Ahm.)*

**4-mashq**. Quyidagi ko'chirma gaplarni o'zlashtirma gaplarga aylantirib, to'rtta gap yozing.Gap tarkibidagi tinish belgilarining ishlatilishidagi o'zgarishlarni ayting.

**N a m u n a :** ***- Men ketyapman, o'g'lim, - dedi otasi. q Otasi o'g'liga ketayotganini aytdi.***

*1. – Bu kun xalq juda ko'p, - dedi yosh kotib. (O.) 2. – Kelib xo'p yaxshi ish qildingiz-da, - dedi rais xayrlasharkan, - bizni umidvor qilib ketyapsiz, do'stim. (J.Abd.) 3. Alibek elka qisib: - Men nima qilishim mumkin? – dedi.(P.Q.) 4. Muzaffar to'satdan dir-dir titray boshlagan qo'llarini orqasiga yashirib: - Nimaga shama qilyapsan, tushunmadim, Rasul? – deb so'radi.(O.Yo.) 5. Teshaboy boyagi dag'dag'a bilan emas, ancha past zaif tovush bilan: - Arzinglar bo'lsa, hokimga borib aytinglar,*
*- dedi. (M.Ism.) 6. Buni sezgan katta qizi: - Dada, siz menga qaramay ildamroq boravering, - dedi. (J.Abd.) 7. Sherzod yana bir narsa deb e'tiroz qilmoqchi edi, rais: - O'rtoqlar, bahs tamom, muhokama tugadi,*
*- dedi. (P.Q.) 8. Rasul Olloyorovich xuddi shu daqiqani kutib turganday:*
*- Agar boshqa savollar, takliflar bo'lmasa, shu bilan kengaytirilgan kengashimiz tugadi, o'rtoqlar, - dedi odati bo'yicha ko'zoynagini almashtirib. (O'.Usm.)*

5-mashq. **O'qing. Aralash turdagi qo'shma gaplarni topib, to'rtta gap ko'chiring, ularning har biri tarkibida nechta va qanday tinish belgilari borligini va qo'yilish sabablarini izohlang.**

*1. Erta bilan soat sakkizlarda bulut quyuqlashib, hamma yoqni qorong'ilik bosdi - Toshkentda bu kutilmagan bir hol.(Mirm.) 2. Xudodan bitta- bitta tilagim bor, u ham bo'lsa shuki, bizni ko'rolmaganlarning ko'zi ko'r bo'lsin.(A.Nesin) 3. Kotiba qiz kirishi bilan, ichkaridan g'o'ng'ir-g'o'ng'ir ovoz eshitildi va keyingi daqiqada eshik lang ochilib, Zokir Qo'shmoqovning o'zi chiqib keldi.(O'.Usm.) 4. Tasodifan Pardavoyning ham ko'zlari namlanganday bo'lid, bu Qudratga ham ta'sir qildi shekilli, etlari chumoli o'rmalaganday jimirlab ketdi.(J.Abd.) 5. Har safar savol tushganda, Otaqo'zi tizzasida qizining issiq kaftini sezar, Tohira xuddi hozir yomon bir narsa ro'y beradiganday, otasining pinjiga kirib olardi.(O.Yo.) 6. Oftob botgan bo'lsa kerak, tevarak qorong'ilashib qolgan, havo sovib, yana kechagiday etni junjiktiruvchi izg'irin boshlangan edi.(S.Ahm. ) 7. Uning gaplari Nurmat tog'aning qulog'iga kirmaydi, boshi g'uvillab, ko'zlari tinib, holsizlanib kursiga o'tirib qoladi.(S.Ahm.) 8. Hamma zavq bilan tingladi, chunki ashula so'zlarini o'zi to'qigan, o'lanning mazmuni hozirgi o'tirishga juda monand edi.(J.Abd.) 9. Fazilat yuragi uvishibo'rnidan turdi, lekin shu payt to'rdagi eshik ochilib, Latofat o'zi chiqib keldi.(O.Yo.) 10. Oshnam kasal, borib ko'rsangiz, xursand qilamiz.(T.Malik) 11. Oftob botgan bo'lsa kerak, tevarak qorong'ilashib qolgan, havo sovib, yana kechagiday etni junjiktiruvchi izg'irin boshlangan edi.(S.Ahm.)12. Uning bu gaplari Nurmat tog'aning qulog'iga kirmaydi, boshi g'uvillab, ko'zlari tinib, holsizlanib kursiga o'tirib qoladi.(S.Ahm.) 13. Chaqirsa, it qaradi-yu, Qurbonboy qaramadi.(S.Ahm) 14. Tashqarida shovqin-suron davom etar, uzoqroq joydan qalandarlar talqini eshitilar va do'kon yonidagi bir kallapaz zo'r berib yog'liq hasipni maqtar edi. (A.Qod.) 15. Balki Sultonalining qamalishi yolg'ondir, agar chin bo'lsa, inim bilan albatta kengashish kerak.(A.Qod.) 16. Fil ustidagi kajavada o'ltirgan merganlar uning ko'kragini mo'ljalga olgan, lekin oti tinimsiz harakatda bo'lgani uchun, o'q elkasiga tekkan edi.(P.Q.) 17. Mening hozir qo'lim bo'sh, agar xohishingiz bo'lsa, sizni ham korxonamiz bilan tanishtirib chiqardim.(J.Abd.)*

6-mashq. **Ko‘chiring. Gap tarkibidagi undalmalarni aniqlab, namunadagidek to‘liq tahlil qiling.**

**N a m u n a : Tojiboy *– undalma, ot bilan ifodalangan, yig‘iq undalma, gap boshida kelgan, gap bo‘laklari bilan grammatik aloqaga kirishmagani sababli ulardan vergul bilan ajratilgan.***

*1. Tojiboy, shu bugunoq cho‘lga etib bor.(S.Ahm.) 2. O‘ktam, bu taklif chinmi, yo anchayin odamgarchilikmi, iljayishning ma’nisi ne ekan, deb ichida o‘yladi.(O.) 3. Anvar, qo‘y, bu gapni keyin gaplashamiz.(T.Malik) 4. Jiyan, aqling bo‘lsa, kishining bir tiyiniga xiyonat qilma.(O.) 5. Qobiljon G‘iyosovich, bunaqada sovxoz yana daromad ololmaydi.(P.Q.) 6. Jon singlim, ikki-uch kun kampirning aytganlarini qilib turing. (S.Ahm.) 7. – Hoy, tentakkinalarim, tog‘angni bevoshlik qilib qiynamanglar.(S.Ahm.) 8. Chol yana hayrat bilan qaradi unga: - G‘ulomjon, inim, bormisan? Seni ko‘rar kun ham bo‘larkan-a? (J.Abd.) 9. Ey, taqdir, otani bunda zor, farzandni unda intizor etmasang nima qilardi.(Sh.) 10. Ey, do‘stlarim, nimaiki topgan bo‘lsam, hammasi sizga.(X.T.) 12.*

**7-mashq**. O‘qing. Umumlashtiruvchi bo‘lak qatnashgan gaplardan uchtasini ko‘chiring. Ulardagi umumlashtiruvchi bo‘lakning qanday ifodalanganini hamda ularning qo‘llanish o‘rniga qarab ishlatilgan tinish belgilarini ko‘rsating, sababini tushuntiring.

**N a m u n a : *Biznikiga do‘stlarim: Karim, Salim, Ahmad mehmon bo‘lib keldi.* Umumlashtiruvchi bo‘lak** *do‘stlarim* **– ot bilan ifodalangan, uyushiq bo‘laklardan oldin kelgani sababli undan keyin ikki nuqta qo‘yilgan.**

*1. Hamma narsa – jonli, jonsiz uyquda. (S.A.) 2. Uning bo‘ynidagi marjonlari, sochiga taqilgan chiroyli kumush chochpopuklari, egnidagi atlas ko‘ylagi – hammasi o‘sha boy savdogarning puliga kelgan.(P.Q.) 3. – Janob Qambarbiy, o‘zbek, qozoq, turkman, qirg‘iz – barchasi ham turkiy uluslardir.(P.Q.) 4. Gretsiyaning sofora daraxti, yaponlarning olhirotga o‘xshash qizg‘ish o‘simligi – hammasi markaziy maydonimizni ...bezaydi...(P.Q.) 5. Marg‘ilonlik Xo‘ja Kalonbek, uning ukasi Kichik Xo‘ja, quvalik Tohir qo‘rchi , toshkentlik Saidxon, samarqandlik Majid barlos, Yusuf Andijoniy degan bir navkar – hammalari vatanlarining daragini olib kelgan Xonzoda begimni ko‘rmoqchi bo‘lishar, ammo ichkariga kirishdan istihola qilib turishar edi edi.(P.Q.) 6. Abror bo‘lajak zinapoyalar, favvoralar, hovuzlarning hammasini ko‘z oldiga bir-bir keltirdi-da so‘ng nirigi qarag‘ay, beridagi chinor va emanlarning o‘rnini aniqlay boshladi.(P.Q.) 7. Keksa donishmandning soch-soqoligina emas, qosh-kipriklari, boshidagi kulohga o‘xshagan uchlik taqyasi, egnidagi chakmoni - hammasi qorday oppoq edi! (O.Yo.) 8. Hamma narsa: jangu jadallar, qirg‘inu makrlar faqat shunga etish uchun bo‘lgan tadbirlardan deb qarardi.(Mirm.) 9. Oddiy mehnatkashlar ham hovlilaridan kichkina ariq o‘tkazib, uning bo‘ylariga gulmi, rayhonmi, tokmi, mevali daraxtmi – hammasini tartib bilan o‘stirgan.(P.Q.) 10. Bundan tashqari bog‘ning turli joylarida har xil mevali daraxtlar – nok, o‘rik, behi, jiyda va hokazo anchagina.(O.) 11. Kishilar, xotinlar, bolalar – kutib oluvchilar vagon bo‘ylab chopadilar.(G‘.G‘.) 12. Normurod Shomurodov joyiga o‘tirib, ko‘zini yumdi, yumdi-yu, hamma narsa – avtobusga yopirilib kirayotgan odamlar, derazadan ko‘rinib turgan ko‘p qavatli binolar, jazirama issiq – hamasi yodidan ko‘tarildi.(O.Yo.)*

***8-mashq.* Umumlashtiruvchi bo‘laklarni toping, tushirilgan tinish belgilarni qo‘yib ko‘chiring.**

1. Ishlangan yerlar, yo‘llarning ikki tomonidagi ariqlarda jildirab oqayotgan suv. Ariqlar labida qad ko‘targan yosh teraklar hammasi Olimjonning diliga sevinch-quvonch bag‘ishlardi. 2.

Hovuz bo‘yida o‘tirgan brigadir ikki hovuchini to‘lg‘azib suv olar zavq bilan yuzini, bo‘ynini, ko‘kraklarini barcha qoraygan joylarini yuvar edi. 3. Cho‘lpon umri davomida juda ko‘p narsalarni: qiziq, shirin nash’ali voqealarning guvohi bo‘lgan. 4. Shu yerda Oyqizning buyrug‘i bilan to‘g‘on qurilardi. Sement quyilmoqda uzluksiz shag‘al to‘kilmoqda tosh tashlanmoqda. 5. Shu vaqt ichida hamma hunar o‘rgandi bir xillar transportorga yuk ortish ixtisosini egalladi yana birovlar esa misrang yoki bel bilan ishlashga mutaxassis bo‘ldi. 6. Barcha odamlar fidokorona ishlardilar ularning ba’zilari bir me’yorda borib kelardi, ba’zilari esa haqiqiy ishga berilib ketardi.

## UY ISHI
## SAVOL -TOPSHIRIQLARI

9-mashq. **Berilgan gaplardagi modal so‘zlarni ma’no jihatdan guruhlarga ajratib yozing va ular bilan bog‘liq tinish belgilarining qo‘llanishi sabablarini izohlang.**

**N a m u n a : *aytmoqchi* – eslash ma’nosida, gapda kirish so‘z vazifasida kelgan. Bunday sintaktik bo‘lak gap bo‘laklari bilan grammatik aloqaga kirisha olmaydi. Shu sababli ular boshqa gap bo‘laklaridan vergul bilan ajratilgan holda qo‘llangan.**

*1. Ha, aytgancha, nimasi ko‘p ularning, tug‘ishi ko‘p. (S.Ahm.) 2. Ko‘pga kelgan to‘y ekan, qandoq qilay, qirq yil qirg‘in bo‘lsa, ajali etgan o‘ladi, ishqilib, yolg‘izim sog‘-omon kelsin. (S.Ahm.) 3. Shuningdek, er islohoti natijasida mamlakatimizning iqtisodiyati ko‘tarilishini kim bilmaydi! (A.Q.) 4. Xurosonda bir davr yaratmoq lozimki, o‘zga xalqlar ibrat ola bilsinlar. (O.) 5. Kishi katta bo‘lib, qanday mas’ul mansabni egallamasin, yoshlikda bilim bergan o‘z muallimini unutmasligi kerak. (Mirm.) 6. Nishonga tegmagan o‘qning kimga nafi bor? (O’.Usm.) 7. Yo‘q, kengash ilg‘orlar bilan bo‘lgan qarorni ilg‘orlarga mo‘ljallab qabul qilishgan. (O’.Umarbekov) 8. Hadeb buzilaverganidan keyin u yog‘ini kovlaydi, bu yog‘ini kavlaydi, xullas, ichida nimasi bo‘lsa, barini bilib oladi. (S.Ahm.) 9. Nihoyat, Bashor opa kabinasi derazasidan boshni chiqarib, ovozi boricha baqirishga majbur bo‘ldi. (J.Abd.) 10. Kim bilsin, ehtimol, u ham o‘z taqdirini “oshpichoq”ning qo‘liga topshirib qo‘yganidan pushaymon chekib, ko‘p yillardan beri ich-ichidan zil ketib yurgandir. (O.Yo.) 11. Tasodifan Pardavoyning ham ko‘zlari namlanganday bo‘ldi, bu Qudratga ham ta’sir qildi, shekilli, etlari chumoli o‘rmalaganday jimirlab ketdi. (J.Abd.) 12. Kim biladi, balki, yigit otasiga o‘xshamagandir... (O.) 13. To‘g‘ri, uning qachon bo‘lmasin, kelishini bilishardi. (S.An.) 14. – Qanday so‘z eshitmay, har qachon so‘zlaydir, albatta, men eshitaman. (A.Qod.) 15. Saidiy, haqiqatan, talabalik vaqtida ko‘p she’rlar yozgan, bularning ko‘pchiligi devoriy gazetalarda bosilgan. (A.Q.) 16. Hasanali, Otabekning har bir siriga mahram hisoblanganlikdan, darhaqiqat, Otabekka mahram bo‘lishga loyiq bir mehribonlikka ega bo‘lganlikdan bek bilan ochiq so‘zlashish fikriga keldi. (A.Qod.) 17. Qosimovning tajribalari ham, chamasi, shuning uchun tilga tushib qoldi, shekilli. (O’.Usm.)*

## *3-mavzu*

**Ko'chirma gapli qo'shma gaplar, ko'chirma va dialoglarda tinish belgilarining ishlatilishi**

Ajratilgan vaqt - 2 soat

1-mashq**. O'qing. Tushirilgan qavs va qo'shtirnoqlarni aniqlab, to'rtta gap ko'chiring.**

*1. Bir safar esa buni u hatto Shovvozga ham aytmay, sir tutib keladi uni opqochib ketmoqchi ham bo'lishdi.(O.Yo.) 2. Mayli, Bog'i eram ham xafa bo'lmasin: bir kecha o'sha erda tunaylik, ertaga yana bir harakat qilib ko'ramiz! (O.Yo.) 3. Xushmo'ylov o'zbek esa tilmoch bo'lsa kerak to'raning ikkinchi yonidan joy oldi.(M.Ism.) 4. Bu mening gulzorimda yagona bo'lsa, u mening qalbimda yolg'izdir, deb o'yladi G'ulomjon.(M.Ism.) 5. Shunday bo'ldiki, tanaffus vaqtida ko'pgina muxbirlar unga asalga yopishgan pashshaday yopishib suratga tushirishdi, og'ziga mikrofon tutishib, toza sayratishdi.(O.Yo.) 6. Kesakpolvonga Yur ham demadi, Sen qol , ham demadi.(T.Malik)*

**2-mashq. Quyidagi gaplardagi tinish belgilarining qo'yilish sabablarini izohlang.**

*1. Navoiy shahzodaning iltimosi bilan hammadan yuqori o'tirdi.(O.)*
*2. – Mir janoblarining so'zlari ma'qul... – dedi majlisga qarab qari sarkarda, sodda dag'al tovush bilan. – Ammo ne asosda sulh yasalmog'i kerak – bu jihatni bilsak yaxshi bo'lur edi. (O.)*
*3. Egalik affiksining boshqa biror negiz bilan bog'lanish tufayli qo'shilishi uch xil:*
*1. Qaratqich kelishigidagi negiz bilan bog'lanishda ishlatiladi. 2. Chiqish kelishigidagi negiz bilan bog'lanishda ishlatiladi. 3. Bosh kelishikdagi negiz bilan bog'lanishda ishlatiladi. ("O'zbek tili grammatikasi" dan)*
*4. Terishga berildi 03.11.94. Bosishga ruxsat etildi 10.01.95. ( 10-11 sinf "Ona tili darsligi"dan ) 5. Agradan Humoyunga yordam kelmasligi aniqmi? (P.Q.) Ikromjon unga qarab qahr-g'azab bilan qichqirardi:*
*- Xoin! Qochoq! Nomard! (S.Ahm.) 6. – Uf! - deydi pishqirib Xorud.(Sh.R.) – O'tir! – deb buyurdi Ikromjon. (S.Ahm.) 7. Mehmoningiz edim, chidab eshitdim. Bizni o'zbek (!) deydilar. (T.Malik) 8. ... Oqmoya necha kundan beri Buyuk Sario'zak dashtining qir-adirlari-yu soyliklari bo'ylab pishqirganicha, bir maromda yo'rtib borardi. (Ch.Ayt.) 9. – Yo'qol!! – dedi va uning boshiga urgani bir nima qidirganday u yoq-bu yoqqa alangladi. (A.Q.) 10. O'sha jonman, o'sha qonman va o'sha shonman!!! (U.Nosir) 11. Sening so'ylaganing bunday bo'libdi, Menday faqir nima gunoh qilib-di?! ("Alpomish"dan) 12. Kechagina kimsan, Asadbek (!) edi. Endi-chi... O'z qizi nomusini himoya qila olmagan bir notavon...(T.Malik) 13. – Kechirasiz, Pardavoy aka, - dedi u, - hali boshliq oldida ...(J.Abd. )*

3-mashq. **O'qing. Ko'chirma gaplarning tinish belgilarini qo'ygan holda beshta gap ko'chiring.**

1. Aniqroq ayt, nima gap o'zi dedi Aziz nihoyat (O'.Usm.) 2. To'xta dedi Shovvoz yana cho'yanday qoramtir mushti bilan stolni urib To'xta Meni qo'yib tur Men oshimni oshab, yoshimni yashagan odamman (O.Yo.) 3. Qurilish loyihasiga qanday qimmatli yangiliklar kiritganingizni bilmoqchimiz bosh injener uni siltab tashlaganday, dag'al ohang bilan so'radi (J.Abd.) 4. Birpasdan keyin Saltonbuvi cho'michda suv ko'tarib chiqdi-da G'ulomjon hozir Qudrat taqachining do'konida uch-to'rt kishi bilan gaplashib o'tirgan emish Yana allaqanday qurchoqboz ham bor, deydi dedi (M.Ism.) 5. Tog'asi Voy jigarim, onangdan ayrilib qoldik deb quchoq ochdi (T.Malik) 6. Vazira engil tin oldi-yu Avval masala uzil-kesil hal bo'lsin dedi Men Nabi Sadrievichga yana bir kirganimda maslahat so'rayman (P.Q.) 7. Maqtovingni eshitib yuribmiz bu yoqda dedi o'rtachadan kel-gan, burni puchuqroq qiz ikki oycha bo'ldimi, gazetada o'qib qoldik (J.Abd.) 8. Rasul beixtiyor yoqasini ushlab Yopiray, shunaqa uzuk ham bo'-

larkanmi, a deb yubordi (O.Yo.) 9. Davlat uchun qo‘shinning ne darajada kerakli ekanini biz ham bilurmiz majlisga qarab gapirdi Navoiy (O.) 10. Ota-bobolarim dedi u shavqlanib she’r va musiqiy bilan qilich va yoyni g‘oyat go‘zal jo‘r qilganlar. Men ham shu yo‘lni tanladim (O.)

## UY ISHI
## SAVOL -TOPSHIRIQLARI

**4-mashq. Tinish belgilarining birgalikda qo‘llanish sabablarini izohlang.**

***1***. B o y . *O‘g‘lim, kim ila borasan!? (Behbudiy) 2. So‘ngra buzuq ovoz bilan zo‘rg‘a-zo‘rg‘a: - Bo‘g‘ma, bo‘g‘ma meni!.. – deb qichqirdi. (Ch.) 3. Siz butun xalqni gadoy, tilanchi qilmoqchimisiz?! – Yo‘lchi kinoya, istehzo bilan Abdishukurga tikildi.(O.) 4. Otamning piriday kap-katta sallalik domla o‘tiribdilar. Qanday qarayman?.. (Cho‘lpon)*

**5-*mashq.* Quyida berilgan ko‘chirma gaplarning tinish belgilarini qo‘yib, ko‘chiring.**

1. Yo‘q dedi Matluba ukamnikiga boraman. Sen ham yura qol, joyi bemalol. 2. Voy opa, qarang, bir qarang dedi Nazmi shoxlari chiqibdi. 3. Boya nima deding dedi Sarvar uning pichingini tushunmaganday, — odamni isnodlarga qoldirasiz dedingmi? Men futbolni ko‘rmay shu gapingni o‘ylab o‘tirdim. 4. Eshikni yoping dedi Nafisa zarda bilan. 5. Tuhmatmi? Mana bu ham tuhmatmi? Matluba shunday deb sumkasidan xatni chiqarib uzatdi. 6. Bu ... Tursunali akamning xatlari-ku? Dedi Nafisa ajablanib. — Sizga kim berdi. 7. Agar ishonmasangiz, dedi Nafisa kundoshiga tik qarab, turmaga borib kelamiz. O‘zlaridan so‘raymiz. (*T. Malik*)

## Seminar mashg‘ulotlari mavzularining soatlarda taqsimoti

| T/r | Mavzular va topshiriqlar mazmuni | Ajratil-gan vaqt (soat) | Informatsion uslubiy ta’minot | Bajarilish muddati |
|---|---|---|---|---|
| 1. | Tinish belgilarini ishlatish asoslari va tamoyillari | **2** | 1(6-13);2(5-17); 3(4-6);4(271-275). | Jadval bo‘yicha |
| 2. | Sodda gaplarda tinish belgilarining qo‘llanishi. Ega bilan ot - kesim orasida tirening ishlatilishi. | **2** | 1(9-13);2(7-21); 3(6-14);4(271-273). | Jadval bo‘yicha |
| 3. | Murakkablashgan va murakkab sodda gaplarda tinish belgilari. | **2** | 1(14-26);2(23-31); 3(15-26);4(272-275). | 3-hafta |
| 4 | Qo‘shma gaplarda tinish belgilarining qo‘llanishi. | **2** | 1(21-36);2(25-44); 3(27-42);4(273-276). | 5-hafta |
| 5. | Undov so‘zlar, *va*, *ha*, *yo‘q* so‘zlaridan so‘ng tinish belgilarini ishlatilishi. | **2** | 1(14-26);2(23-31); 3(15-26);4(272-275). | 9-hafta |
| | Jami | 10 | | |

**Seminar mashg‘ulotlarini tashkil etish bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar**

Seminar mashg‘ulot darslari talabalarning mustaqil chiqishlari va unda savol-javob, tahlil, tushuntirish jarayonining ko‘rgazmali qurollar: slaydlar, tarqatma materiallar va maxsus tayyorlangan kartochkalar asosida olib borilishi tavsiya qilinadi.

Bakalavrlar hozirgi o‘zbek tiliga oid nutqiy birliklarning to‘g‘ri imlosi, tinish belgilarining to‘g‘ri ishlatilishi bo‘yicha mustaqil fikrlash, erkin tahlil qilish malakasiga ega bo‘ladilar.

# Mustaqil ta’lim bo‘yicha materiallar

## Mustaqil ishlarni tashkil etish bo‘yicha ko‘rsatmalar

Fan bo‘yicha mustaqil ishlar egallangan nazariy bilimlarni mustahkamlash, talabalarning ijodiy izlanish malakasini o‘stirishga xizmat qiladi. Mustaqil ishlarni bajarish jarayonida ishning rejasini tuzish, nazariy manbalar ustida ishlash, xulosa chiqarish va uni bayon etish malakasi oshadi.

Mustaqil ish mazmuni ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar va seminar mashg‘lotlariga tayyorgarlik ko‘rish masalalarini o‘z ichiga oladi. Ular ilmiy materiallarni o‘rganish va tavsiflashga,nazariy bilimlarning amaliyotga tatbiqiga hamda nazariy bilimlarning amaliy tatbiqi asosida yangi tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilgan bo‘lishi tavsiya etiladi.

## Mustaqil ta’limni tashkil etishning shakli va mazmuni

Mustaqil ta’lim professor-o‘qituvchining talabalarga avvalda berib qo‘yiladigan fanning mavzulari asosida tashkil etiladi. Talabalarning o‘zlashtirishlari amaliy mashg‘ulot va seminar mashg‘ulotlari davomida nazorat qilinadi.

**Mustaqil ta’lim masalalarining soatlarda taqsimoti**

| **№** | **Mustaqil ta’lim masalalari** | **Soati** |
|---|---|---|
| 1. | Amaliy mashg‘ulotlarga tayyorgarlik ko‘rish. | 4 |
| 2. | Seminar mashg‘ulotlariga tayyorgarlik ko‘rish. | 4 |
| 3. | “O‘zbek tili va adabiyoti” jurnalining so‘nggi 5 yil ichidagi nashrlarida orfografiya, orfoepiya, punktuatsiya mavzulariga bog‘liq maqolalarni o‘rganish *(Suhbat)* | 6 |
| 4 | “Til va adabiyot ta’limi” jurnalining so‘nggi 5 yil ichidagi nashrlarida punktuatsiya mavzulariga bog‘liq maqolalarni o‘rganish *(Suhbat)* | 6 |
| 5 | O‘zbek tilshunosligida so‘nggi 5 yil ichidagi nashrlarida punktuatsiya mavzulariga bog‘liq monografiya va dissertatsiyalarni o‘rganish *(Suhbat)* | 6 |
| 6. | Tinish belgilarining ishlatilishi bo‘yicha yuzaga kelgan mmuammolar tahlili ( Zamonaviy matnlar tahlili misolida bu sohadagi ishlarga umumiy baho berish). | 4 |
| **Jami:** | | **30** |

## GLOSSARIY

**DIALOG** (yun. sIa1o§oz — suhbat). Suhbatdoshlarning benosnta bir-biriga qaratilgan nutqi. Nutqning bu turi o‘ziga xos bir «ator belgi-xususiyatla,rga ega. Mas., uning sintaktik qurilishi nisbatan sodda bo‘ladi, har bir shaxsning gapi odatda qisqa bo‘ladi va h.: — Shu erga chaqira qolay? , — Kelarmikan? — Iltimos qilib ko‘ramiz-da. — Ha, mayli... (Uyg‘un).
**YoZMA NUTQ.** Nutq tovushlarini maxsus grafik belgilar vositasida yozish bilan ifoda etiladigan nutq. Qiyos. Og‘zaki nutq.
**EZUV**. 1. Nutqni qog‘ozda (yoki boshqa narsada) aks ettirish uchun xizmat qpladigan harfiy grafik shakllar tizimi, shu tizimga asoslanuvchn aloqa vositasi. 2. ayn. Grafika.
**IKKI NUQTA**. Ustma-ust qo‘ypladpgap iuqta bilan ifodalanadigan tinish belgisi (:) bo‘lpb, asosai quyidagi hollarda qo‘niladi: 1) uyushiq bo‘laklar oldmdap qo‘llapgan umumlashtiruvchi bo‘lakdan so‘pg: Suv achmsh taipshasisa Qorabuloqning butun aholisi: chollar, xotpnlar, bolalar chiqpshdi (M. Ismoiliy); 2) bog‘lovchispz qo‘shma gap tarkpbidagp gaplarni ajratishni ko‘rsatish uchup: Yakun qil.
**INTONATSIYA (**lot. lot.INTONARE — baland tovush bilan talaffuz etaman). Nutqning sintaktik ma’nolarni va ekspressivemotsiopal bo‘yoqlarni ifodalashi uchun xizmat qiluvchi ritmikmelodik tomoni; ovozning baland-pastligi; ohang. Quyidagilar intonatsiyaning tarkibiy unourlari hisoblanadi: 1) nutq melodikasi (h .); 2) n u t q r i t m i (q.); 3) n u t q i n t e nsivligi (q.); 4) n u t q t e m p i (q.); 5) nutq tembri (q.); 6) mantiqiy urg‘u va fraza urg‘usi (q.).
**MUALLIF GAPI**. Ko‘chirma gapli tuzilmalarda muallifning o‘zi aytgan (ko‘chirma gapdan tashqari) gap: Rostdan ham o‘zingizni osmoqchimisiz? — deb so‘radi doktor (A. Eshoiov). Qora b o e v o‘ t i r i sh g a jo y k o‘ r s a ti b , m e h r i b o n l i k oilan murojaat qildi: «Kelganingga xursandman, Oybek.pg‘ Qiyos. O‘zga gapi.
**NUQTA.** Darak gap va tinch ohang bilan aytiladigan undov gap oxirida, shartli |qisqartmalarda qo‘llanadigan tinish belgnsi (.): Quyosh tobora yuqoriga intilmoqda. Baxtli, erkin imoimiz millioncha yil qilsin davom (G’. G’ulom).
**NUQTALI VERGUL.** Ustma-ust joylashgan nuqta va verguldan tashkil topgan tinish belgisi (;) bo‘lib, tarkibi murakkab gap bo‘laklari orasiga, qo‘shma gaplarning mazmunan birbiriga yaqin bo‘lgan qismlari orasiga, raqamlash bilan sanalgan parchalar orasiga qo‘yiladi.
**PUNKTOGRAMMA** (lot. punctum — nuqta;va yun. gramma — yozuv). Yozma nutqda puiktuatsiya qoidalariga muvofiq holda qo‘llangan tinish belgisi.
**PUNKTUATSION TAHLIL**. Gapda tinish belgilarinnng punktuatsiya qoidalariga mos holda yo unga zid holda ishlatilganligi, shuningdek, punktuatsiya qoidalari talab etadigan u yoki bu tinish belgisinnng qo‘llanmaganligini belgilash nuqtai nazaridan bo‘ladigan tahlil.

**Punktuatsiya** (lot. punctum — nuqta; kichkina dog‘) — 1) alifbodan tashqari bo‘lgan grafik belgilar (tinish belgilari) tizimi bo‘lib, grafika va orfografiya (imlo) bilan birgalikda yozma tilning asosiy vositalarini tashkil etadi. P.ning asosiy vazifasi yozma (bosma) matnni qismlarga ajratish, grafik jihatdan shakllantirishdir; 2) yozma matnni punktuatsion rasmiylashtirishni tartibga soluvchi, har bir til uchun tarixan shakllangan qoidalar, me’yorlar; 3) P. tizimi qonuniyatlarini, shuningdek, tinish belgilarining qo‘llanish me’yorlarini o‘rganadigan tilshunoslik bo‘limi.

**SO‘ROQ BELGISI**. So‘roq gaplar oxiriga qo‘yiluvchi tinish belgisi (?): Endi ketib qolmaysizmi? (G’. G’ulom).
**SO‘ROQ OHANGI**. So‘roqni ifodalovchi ohaig; o‘ziga xos tonga, yuqori tonga ega ohang: — Ustingizdan shikoyat tushdi. — Shikoyat? (Yashin).
**TINISh BELGILARI.** Biror tilning umumiy grafik tizimida alohida guruhni tashkil etuvchi va yozma nutqda harflar yoki boshqa yozuv ifodalari bilan berib (ifodalab) bo‘lmaydigan tomonlarni (nutqning sintaktik qurilishi va mazmunzn qismlarga bo‘linishini) ifodalash uchun xizmat qiluvchi belgilar. Tinish belgilari quyidagilardan iborat: nuqta ; «so‘roq b e l g i s i (q. ); u

n d o v b e l g i s i (q.) ; n u q t al i v e r g u l; ko‘ p n u qt a (q.) ; v e r g u l (q.); i k k i n u qt a (q.); tire (q.); q a v s (q.); qo‘shtirnoq (q.).

**TIRE (**fran. tiret — chiziqcha, tireg— tortish, uzaytirish). Defisga niobatan uzunroq chiziq bilan ifodalanadigan tinish; belgisi (— ). Bu belgi gaplar, qo‘shma gap qismlari, gap bo‘laklari orasidagi sintaktik munosabatlarni ko‘rsatish uchun ishlatiladi: Poyonsiz paxta dalalarining husni va barakati, so‘lim bog‘larning sharbati va gullarning ming tovlangan ranglari—barchasi suv tufayli (Oybek). Qo‘shning tinch — sen tinch. — Kecha qaerga bording? — Kinoga va b.

**UNDOV BELGISI.** Bu tinish belgisi (!) asosan quyidagi hollarda qo‘yiladn: ]) undov gaplar oxirida: Unsin uchun, bechora qiz uchun bu qanday falokat, bu qanday mudhish motam! (Oybek); 2) buyruq gaplar oxirida: Onangni qo‘lingda tutsang, singlingni boshingda tut! (Oybek); 3) gap boshida kelib, his-hayajon bilan aytilgan undalmalardan so‘ng: Jamila! Bas, tur o‘rningdan! (H. Hakimzoda)

**FONOGRAMMA** (yun. —rhope—ovoz Q gramma— yozuv, yozish). So‘z va morfemalarning tovush qobig‘ini farqlashga xizmat qila oluvchi nutq tovushlari uchush olingan shakl. Qiyos. Ideogramma.

**FONOGRAFIK YOZUV**. Tovushlarni harflar yordamida aks ettiradigan yozuv.

**O‘ZGA GAPI**. O‘zga shaxsning muallif bayoniga kiritilgap gapi. Leksik-sintaktik vositalari va berilish usullarga ko‘ra o‘zga gapi ikki turga bo‘linadi: I) k o‘ ch i r m a g a p (q.); 2) o‘zlashtirma gap (q.). Qiyos. Muallif gapi.

**QAVS**. Tsitatalarping manbaini, kiritmalarni ajratishda va b. o‘rinlarda qo‘yiladitan ikki (ochiluvchi va yopiluvchi) qismli tinish bslgism: ( )

**QO’ShTIRNOQ**. Ikki (ochiluvchi va yopiluvchi) qismli tshshsh belgisi bo‘lib, yozuvda ko‘chirma gap va tsitatalarni, badiiy asar, gazeta, jurnal va muassasalarning nomlarini, kesatiq, qochiriq kabi ma’iolarda qo‘llaigan so‘zlarni ajratish uchun ishlatiladi. Yozuv ifodasiga ko‘ra qo‘shtirnoq ikki shaklga ega: „ ” va « ».

**«O‘zbek tili punktuatsiyasi»** fanining 2022-2023- o‘quv yili uchun mo‘ljallangan
SILLABUSI

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| **OTMning nomi va joylashgan manzili:** | Guliston davlat universiteti | | | Guliston shahri, 4-mavze | |
| **Kafedra:** | O‘zbek tilshunosligi | | | Filologiya fakulteti | |
| **Ta’lim sohasi va yo‘nalishi:** | 230000 – Tillar | 60230100 – Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili) | | | |
| **Fanni (kursni) olib boradigan o‘qituvchi to‘g‘risida ma’lumot:** | f.f.n., dots. Abdullayev Jumanazar Xudayberdi-yevich | **e-mail:** | | jumanazarxudayberdio‘g‘li _56@mail.ru | |
| **Dars vaqti va joyi:** | P -310, 302 | **Kursning davomiyligi:** | | 02.09.2022 – 10.02.2023 | |
| **Individual grafik asosida ishlash vaqti:** | Seshanba, chorshanba va juma 9.00.00 dan 16.00 gacha | | | | |
| **Fanga ajratilgan umumiy soat -60** | **Auditoriya soatlari** | | | **Mustaqil ta’lim:** | 30 |
| | **Ma’ruza:** 10 | **Amaliyot seminar** | 10<br>10 | | |
| **Fanning boshqa fanlar bilan bog‘liqligi :** | Hozirgi o‘zbek adabiy tili, o‘zbek tili orfografiyasi, orfoepiyasi, o‘zbek tili uslubiyati,o‘zbek tili tarixi, ona tili o`qitish metodikasi, nutq madaniyati, madaniyatshunoslik,falsafa, mantiqshunoslik, semiotika, kompyuter lingvistikasi, axborot-kommunikatsion texnologiyalar. | | | | |

**Fanning mazmuni**

| | |
|---|---|
| **Fanning dolzarbligi va qisqacha mazmuni:** | ***FANNING MAQSADI VA VAZIFALARI***<br>**Fanni o‘qitishdan maqsad** – bo‘lajak filologlarga o‘zbek tilining puktuatsion vositalarini, ulardan to‘g‘ri foydalanishni bilishning amaliy ahamiyatini ilmiy asosda ko‘rsatib berish, shu asosda talabalarning og‘zaki va yozma nutq savodxonligini takomillashtirish, punktuatsion kompetensiyasini shakllantirish.<br>**Fanning vazifasi** – talabalarga hozirgi o‘zbek adabiy tilining tinish belgilari, ularning paydo bo‘lishi, taraqqiyoti, ahamiyatini ilmiy-amaliy asoslash; o‘zbek tili tinish belgilarining vazifalari, ularni ishlatish asoslari, tamoyillari, tinish belgilarini qo‘llash tartib-qoidalari va usullari yuzasidan ilmiy-nazariy bilim berish va ularni amaliyotda qo‘llashga o‘rgatish, ularda punktautsioan belgilarni to‘g‘ri qo‘llash bo‘yicha amaliy bilim, kompetensiya hosil qilish. |
| **Talabalar uchun talablar** | - o‘qituvchiga va guruhdoshlarga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo‘lish;<br>- universitet ichki tartib - intizom qoidalariga rioya qilish;<br>- uyali telefonni dars davomida o‘chirish;<br>- berilgan uy vazifasi va mustaqil ish topshiriqlarini o‘z vaqtida va sifatlibajarish;<br>- ko‘chirmachilik (plagiat) qat’iyan man etiladi;<br>- darslarga qatnashish majburiy hisoblanadi, dars qoldirilgan holatdaqoldirilgan darslar qayta o‘zlashtirilishi shart;<br>- darslarga oldindan tayyorlanib kelish va faol ishtirok etish;<br>- talaba o‘qituvchidan so‘ng, dars xonasiga - mashg’ulotga kiritilmaydi;<br>- talaba reyting bali ( baho)dan norozi bo‘lsa, e’lon qilingan vaqtdan boshlab 1 kun mobaynida appellyatsiya komissiyasiga murojaat qilishi mumkin. |
| **Elektron pochta orqali munosabatlar tartibi** | Professor-o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi aloqa elektron pochta orqali ham amalga oshirilishi mumkin, **telefon orqali baho masalasi muhokama qilinmaydi, baholash faqatgina universitet hududida, ajratilgan xonalarda** va dars davomida amalga oshiriladi. Elektron pochtani ochish vaqti soat 15.00 dan 18.00 gacha. |

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

**GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI**

«Tasdiqlayman»

Rektor _______M.T.XODJIYEV

______ 08. 2022 yil

# O‘ZBEK TILI PUNKTUATSIYASI

## O‘QUV FAN DASTURI

| | |
|---|---|
| **Bilim sohasi:** | 220000 – San’at va gumanitar fanlar |
| **Ta’lim sohasi:** | 230000 – Tillar |
| **Ta’lim yo‘nalishi:** | 60230100 – Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili) |

| | |
|---|---|
| **O‘quv soatlari hajmi:** | 60 soat |
| **Ma’ruza** | 10 s (5-semestr 10s.) |
| **Amaliy** | 10 s (5-semestr 10s.) |
| **Seminar** | 10 s (5-semestr 10s.) |
| **Mustaqil ta’lim** | 30 s (5-semestr 30s.) |

**Guliston-2022**

<table>
<tr><td colspan="2">Fan -modul kodi<br>2.18.O‘TPA 209</td><td>O‘quv yili<br>2022-2023</td><td>Semestr<br>5</td><td colspan="2">ECTS - Kreditlar<br>2</td></tr>
<tr><td colspan="2">Fan/modul turi<br>Tanlov</td><td colspan="2">Ta’lim tili<br>O‘zbek</td><td colspan="2">Haftadagi dars soatlari<br>2</td></tr>
<tr><td rowspan="2">1.</td><td colspan="2">Fanning nomi</td><td>Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)</td><td>Mustaqil ta’lim (soat)</td><td>Jami yuklama (soat)</td></tr>
<tr><td colspan="2">O‘zbek tili punktuatsiyasi</td><td>30</td><td>30</td><td>60</td></tr>
<tr><td></td><td colspan="2"></td><td>Jami: 30 soat</td><td>Jami: 30</td><td>Jami:<br>60 soat</td></tr>
</table>

FANNING MAZMUNI

60230100 – Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha o‘qiyotgan bakalavrlarni yuksak malakali, ijodkorlik va tashabbuskorlik qobiliyatiga ega, kelajakda kasbiy va hayotiy muammolarni mustaqil hal qila oladigan, yangi texnika va texnologiyalardan foydalana oladigan hamda o‘zbek tili punktuatsiyasini to‘g‘ri qo‘llaydigan layoqatli kadrlarni tayyorlashda “O‘zbek tili punktuatsiyasi” kursi ham o‘z o‘rniga ega. Kurs 60230100 – Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha o‘qiyotgan bakalavrlarga tanlov fanlar doirasida o‘qitishga mo‘ljallangan bo‘lib, unda «O‘zbek tili punktuatsiyasi” fani dasturida belgilangan talabalar tomonidan egallanishi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma, malaka va kompetentsiyalarni shakllantirishni, o‘quv jarayonini kompleks loyihalash asosida kafolatlangan natijalarni olishni, mustaqil bilim olish va o‘rganishni hamda nazoratni amalga oshirishni ta’minlaydigan, talabaning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan o‘quv – uslubiy manbalar, didaktik vositalar va materiallar, elektron ta’lim resurslari, o‘qitish texnologiyasi, baholash mezonlarini o‘z ichiga oladi

**FANNING  MAQSAD VA VAZIFALARI**

**1.1. Fanning maqsadi** – davlat ta’lablari asosida bo‘lajak filologlarga o‘zbek tilining puktuatsion vositalarini, ulardan to‘g‘ri foydalanishni bilishning amaliy ahamiyatini ilmiy asosda ko‘rsatib berish, shu asosda talabalarning og‘zaki va yozma nutq savodxonligini takomillashtirish, punktuatsion kompetensiyasini shakllantirish.

1.2. **Fanning vazifasi** – talabalarga hozirgi o‘zbek adabiy tilining tinish belgilari, ularning paydo bo‘lishi, taraqqiyoti, ahamiyatini ochib berish; o‘zbek tili tinish belgilarining vazifalari, ularni ishlatish asoslari, tamoyillari, tinish belgilarini qo‘llash tartib qoidalari va usullari yuzasidan ilmiy-nazariy bilim berish va ularni amaliyotda qo‘llashga o‘rgatish, ularda punktautsioan belgilarni to‘g‘ri qo‘llash bo‘yicha amaliy bilim, kompetensiya hosil qilish.

### 1.3. Fandan o‘tiladigan mavzular va ular bo‘yicha mashg‘ulot turlariga ajratilgan soatlar taqsimoti

### Ma’ruza mashg‘ulotlari

| T/N | Fanning bo‘limi va mavzusi<br>Ma’ruza mazmuni | Ajratil-gan vaqt | Bajarilish muddati |
|---|---|---|---|
| **1.** | Punktuatsiyaga kirish.O‘zbek yozuvida tinish belgilarining shakllanishi | **2** | 1-hafta |
| **2.** | Tinish belgilarini ishlatish asoslari va tamoyillari | **2** | 2-hafta |
| **3.** | Tinish belgilarni ishlatish qoidalari: mazmun, ohang va grammatik qurilish. Gap oxirida qo‘llanadigan tinish belgilari. | **2** | 3-hafta |
| **4.** | Gap ichida qo‘llandigan tinish belgilari. | **2** | 4-hafta |
| **5.** | Ko‘chirma gapli qo‘shma gaplar, ko‘chirma va dialoglarda tinish belgilarining ishlatilishi | **2** | 5-hafta |
| | **Jami** | **10** | |

2. ASOSIY QISM :

### 1.Ma’ruza mavzulari va ko‘riladigan masalalar

**1-modul**

1. Punktuatsiyaga kirish. “Punktuatsiyasi” termini tushunchasi, “Punktuatsiyasi” fani obyekti va predmeti, “O‘zbek tili punktuatsiyasi” fanining shakllanishi. “O‘zbek tili punktuatsiyasi”fanining ahamiyati. Punktuatsiya” fani oldida turgan vazifalar. 1 (9-19 ), 2 (3-8 ), 3 (9-14 ), 5 (4-7 )

2. Tinish belgilarini ishlatish asoslari haqida umumiy tushuncha. 2.1.Tinish belgilarini ishlatishga ma’noni asos qilib olish. 2.2.Tinish belgilarini ishlatishga grammatik qurilishni asos qilib olish. 2.3.Tinish belgilarini ishlatishga intonatsiyani asos qilib olish. 2.4.Punktuatsiya asoslarini belgilashda nutq mazmuni, strukturasi va intonatsion xususiyatlarini bir butun holatda olib qaralishi zarurligi. 1 (3 – 5), 2 (43-47 ), 3 (37-42 ),4( 271-272), 9 (16-42) 1 (9-19 ), 2 (13-22), 3 (31 -42), 5 (40 - 54 ), 7 (28-56). 2.5. O‘zbek tilining grammatik sistemasi tinish belgilarini ishlatishning tayanch ilmiy-nazariy asosi sifatida.3 (15 - 21 ), 4 (272 -274 ),9 (28-88),2.6. Rus tili punktuatsion sistemasi o‘zbek punktuatsiyasining muhim nazariy asoslaridan biri sifatida. 1 (13-22), 2 (31 -42), 4 (272 - 275 ). 3 O‘zbek tilida tinish belgilarini ishlatish tamoyillari. 3 (15 - 21 ), 7 (22 - 29 ), 8 (28-88),9 (16-42) 3.1.Tinish belgilarini ishlatishning logik-grammatik tamoyili. 3 (21- 28 ), 5 (33 - 41 ), 6 (28-88). 3.2. Tinish belgilarini ishlatishning uslubiy tamoyili. 3.3.Tinish belgilarini ishlatishning differentsiatsiya-farqlash tamoyili. 2 (23 – 27 ), 3 (43-47 ), 5 (83-88 )

### 2- modul

2.1Tinish belgilarni ishlatish qoidalari: mazmun, ohang va grammatik qurilish.Tinish belgilarining gap oxirida qo‘llanishi. Nuqta, so‘roq belgisi, undov belgisi, ko‘pnuqtaning gap oxirida qo‘llanishi. 1( 4-11), 2 (8-13 ), 3 (15 - 21 ), 4 (272 - 274 ), 5( 89-91),7(243-245), 9 (16-42).

2.2. Tinish belgilarni ishlatish qoidalari: tinish belgilarining gap ichida qo‘llanishi. Tinish belgilarining sodda gaplarda qo‘lanishi: vergul, nuqtali vergul, ikki nuqta, tire. Qavs, qo‘shtirnoqning gap ichida qo‘llanishi. 1 (9-19 ), 2 (27 - 32 ), 3 (59-63 ), 4 (272-275), 5( 136-145), 7( 247-249), 9 (57-64). 2.4.Gap oxirida va gap ichida qo‘llana oladigan tinish belgilari: ko‘pnuqta, so‘roq belgisi. Undov belgisi.1 (5-12 ), 2 (13-22), 3 (31 -42), 4 (271-275 ), 5( 87-91),79 244-247), 9 (28-56).

**3-modul**

2.3. Ko‘chirma gapli qo‘shma gaplar, ko‘chirma va dialoglarda tinish belgilarining ishlatilishi: qo‘shtirnoq, ikki nuqta, vergul, tire. Vazifadosh tinish belgilari. 2 (8-13 ), 3 (15 - 21 ), 4 (272 - 274 ), 5( 83-89), 9 (16-42)

### 2.2 Amaliy mashg‘ulotlar:

| T-N | Mavzu | Ko‘riladigan masalalar | Ajratil-gan vaqt | Axborot-uslubiy ta’minot |
|---|---|---|---|---|
| 1 | 2 | 3 | 4 | 5 |
| | **1-modul** | | | |
| 1. | Tinish belgilarining gap oxirida qo‘llanishi. | Nuqta, ko‘p nuqta, so‘roq belgisi, undov belgilarining gap oxirida qo‘llanishi. | **4** | 1(9-13);2(7-21); 3(6-14);4(271-273). 9(14-26);3(15-26);4(272-275). |
| **2-modul** | | | | |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 2. | Tinish belgilarining gap ichida qo‘llanishi. | Vergul, ikki nuqta, nuqtali vergul, tirening gap ichida qo‘llanishi.Qavs, qo‘shtirnoqning qo‘llanishi. | **4** | 1(14-22);2(22-32); 3(6-14);4(271-273). 9(27-31); 7( 32-36); 3(15-26);4(272-275). |
| | **3-modul** | | | |
| 3. | Ko‘chirma gapli qo‘shma gaplar, ko‘chirma va dialoglarda tinish belgilarining ishlatilishi | Ko‘chirma gapli qo‘shma gaplarda vergul, ikki nuqta, so‘roq belgisi, undov belgisi,tire, qo‘shtirnoqning ishlatilishi. | **2** | 1(23-35);2(21-26); 3(16-37);4(272-275).5(83-89) 9(32-41,56); |
| | Jami | | **10** | |

**Amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar**

Amaliy mashg‘ulot darslari ma’ruzada o‘tilgan mavzular yuzazidan amaliy topshiriqlarni bajarish, savol-javob, tahlil, tushuntirish jarayonining ko‘rgazmali qurollar: slaydlar, tarqatma materiallar va maxsus tayyorlangan kartochkalar asosida olib borilishi tavsiya qilinadi.

Bakalavrlar hozirgi o‘zbek tilining nutqiy birliklarini amaliyotda to‘g‘ri talaffuz qilish, to‘g‘ri yozish, notanish matnlarni to‘g‘ri o‘qish va to‘g‘ri yozish,tinish belgilarini to‘g‘ri qo‘yish va ularni to‘g‘ri tahlil qilish malakasiga ega bo‘ladilar.

**Seminar mashg‘ulotlari mavzularining soatlarda taqsimoti**

| **T/r** | **Mavzular va topshiriqlar mazmuni** | Ajratil-gan vaqt (soat) | Informatsion uslubiy ta’minot | Bajarilish muddati |
|---|---|---|---|---|
| 1. | Tinish belgilarini ishlatish asoslari va tamoyillari | **2** | 1(6-13);2(5-17); 3(4-6);4(271-275). | Jadval bo‘yicha |
| 2. | Sodda gaplarda tinish belgilarining qo‘llanishi. Ega bilan ot - kesim orasida tirening ishlatilishi. | **2** | 1(9-13);2(7-21); 3(6-14);4(271-273). | Jadval bo‘yicha |
| 3. | Murakkablashgan va murakkab sodda gaplarda tinish belgilari. | **2** | 1(14-26);2(23-31); 3(15-26);4(272-275). | 3-hafta |
| 4 | Qo‘shma gaplarda tinish belgilarining qo‘llanishi. | **2** | 1(21-36);2(25-44); 3(27-42);4(273-276). | 5-hafta |
| 5. | Undov so‘zlar, *va*, *ha*, *yo‘q* so‘zlaridan so‘ng tinish belgilarini ishlatilishi. | **2** | 1(14-26);2(23-31); 3(15-26);4(272-275). | 9-hafta |
| | Jami | 10 | | |

**Seminar mashg‘ulotlarini tashkil etish bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar**

Seminar mashg‘ulot darslari talabalarning mustaqil chiqishlari va unda savol-javob, tahlil, tushuntirish jarayonining ko‘rgazmali qurollar: slaydlar, tarqatma materiallar va maxsus tayyorlangan kartochkalar asosida olib borilishi tavsiya qilinadi. Bakalavrlar hozirgi o‘zbek tiliga oid nutqiy birliklarning to‘g‘ri imlosi, tinish belgilarining to‘g‘ri ishlatilishi bo‘yicha mustaqil fikrlash, erkin tahlil qilish malakasiga ega bo‘ladilar.

2.3. Ta’lim texnologiyalari va metodlari:

Ma’ruza, amaliy, seminar mashg‘ulotlarda modulli, shaxsga yo‘naltirilgan va muammoli ta’lim texnologiyalari qo‘llaniladi.

## 3. MUSTAQIL TA’LIM VA MUSTAQIL ISHLAR

| T/r | Mavzular va topshiriqlar mazmuni | Ajratil-gan vaqt (soat) | Informatsion uslubiy ta’minot | Bajarilish muddati |
|---|---|---|---|---|
| 1. | Amaliy mashg‘ulotlarga tayyorgarlik ko‘rish. | 5x2=10 | 1;2;3;4,5,7,9 www.ziyo.net https:uz.wikipedia.orgwikiPunktuatsiya | Jadval bo‘yicha |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 2. | Seminar mashg‘ulotlariga tayyorgarlik ko‘rish. | 5x2=10 | 1;2;3;4,5,7,9. https:uz.wikipedia.orgwikiPunktuatsiya | Jadval bo‘yicha |
| 3. | “O‘zbek tili va adabiyoti” jurnalining so‘nggi 5 yil ichidagi nashrlarida punktuatsiya mavzulariga bog‘liq maqolalarni o‘rganish *(Suhbat)* | 4 | https://n.ziyouz.com › 146-ona-tili-va-adabiyot | 3-hafta |
| 4 | “Til va adabiyot ta’limi” jurnalining so‘nggi 5 yil ichidagi nashrlarida punktuatsiya mavzulariga bog‘liq maqolalarni o‘rganish *(Suhbat)* | 4 | https://tilvaadabiyot.uz | 5-hafta |
| 5. | Tinish belgilarining ishlatilishi bo‘yicha yuzaga kelgan muammolar tahlili( “ Ma’rifat”,“ Sirdaryo haqiqati”, “ Universitet ovozi” gazetalaridagi zamonaviy matnlar tahlili misolida ). | 2 | **marifat.uz** http://sirdaryo.mintrans.uz › | 9-hafta |
| | Jami | 30 | | |

Izox: Mavzuga oid mustaqil ish topshiriqlari bajarish bo‘yicha ko‘rsatmalar O‘UM da keltirilgan.

## 4. FANNI O‘QITISH NATIJALARI VA SHAKLLANGAN KASBIY KOMPETENTSIYALAR:

3.1. Fan bo‘yicha talabalar o‘zbek tilida tinish belgilarining qo‘llanish jarayonini kuzatishi, tahlil qilishi hamda uni amaliyotda to‘g‘ri, maqsadga muvofiq qo‘llay olish uchun quyidagi bilim, ko‘nikma va kompetentsiyalarni egallashlari lozim.
Bakalavr:

- adabiy yozuv vositalari, tinish belgilari haqida o‘zbek tilshunosligida yaratilgan ilmiy-nazariy asoslarni tushunishi;
- o‘z ixtisosligi doirasida o‘quv fani masalalari bo‘yicha muayyan tadqiqot sohasining obyektlari va jarayonlariga nisbatan shaxsiy ilmiy filologik munosabat bildira olishi;
- “O‘zbek tilining punktuatsiyasi” o‘quv fani doirasida hozirgi o‘zbek tilining punktuatsiyasi muammolari va ularni hal qilish yo‘llari haqida ***tasavvurga ega bo‘lishi;***
- “O‘zbek tilining punktuatsiyasi” o‘quv fanining terminologik-tushunchaviy apparatini;
- O‘zbek tili, o‘zbek yozuvida tinish belgilarining shakllanishi, miqdori, shakllari, taraqqiyoti, ular haqidagi ilmiy-nazariy, amaliy manbalarni ***bilishi***;
- tinish belgilarini tadqiq va talqin etish metod va usullarini amalda qo‘llash;
- olingan nazariy bilimlarni qo‘llagan holda turli tinish belgilarini qo‘llanishi ustida tajriba-sinov ishlari olib borish ***ko‘nikmasiga ega bo‘lishi***;
- punktuatsiyaga oid turli xil zamonaviy tahlil va tahrir usullari, kompyuter texnologiyalarini mustaqil qo‘llay bilish va olingan ma’lumotlar asosida ilmiy va amaliy asosli xulosalar chiqarish, ulardan amaliy hayotda bemalol foydalana olish ***kompetentsiyasi shakllangan bo‘lishi kerak***.

## 5.TALABANING KREDITLARNI TO‘PLASH TARTIBI

Talabala joriy, oraliq nazorat uchun berilgan vazifa va topshiriqlarni o‘z vaqtida bajarishi, Yakuniy nazoratni muvafaqiyatli topshirishi lozim. To‘plangan reyting ballari asosida talabaning bahosi aniqlanadi.

### “ O‘zbek tili punktuatsiyasi” fanidan baholash mezoni

**1. Oraliq nazorat** yozma test va yozma ish tarzida o‘tkazilib, undan 25 ta test yoki 2ta savolga yozma javob berish so‘raladi. Har bir test savol 0,4 ball, yozma ishning har bir savoli javobi **5,6-10** ballgacha baholanadi. **Jami: 10 ball.**

- Topshiriq to‘liq bajarilgan, asosli xulosa chiqarilgan bo‘lsa, kamchiliklari juz’iy yoki yo‘q bo‘lsa– 8,6-10 ball.
- Topshiriq mohiyati ochilgan, natijalar to‘g‘ri, xulosasi bor, kamchiliklar juz’iy bo‘lsa – 7- 8,6 ball.
- Tophiriq mohiyati yoritilgan, natijalar to‘liq asosllanmagan, ayrim kamchiligi bo‘lsa – 5,6- 6,9 ball beriladi.

**2. TMI:** «“O‘zbek tili va adabiyoti” jurnalining so‘nggi 5 yil ichidagi sonlarida punktuatsiya mavzulariga bog‘liq maqolalarni o‘rganish *(Suhbat)»* yuzasidan amaliy ish daftariga konspekt qilib kelish va qisqacha mazmunini so‘zlab berish **(10 ball)**:

- Topshiriq to‘liq bajarilgan, asosli xulosa chiqarilgan bo‘lsa, kamchiliklari juz’iy yoki yo‘q bo‘lsa– 8,6-10 ball.
- Topshiriq mohiyati ochilgan, natijalar to‘g‘ri, xulosasi bor, kamchiliklar juz’iy – 7- 8,5 ball.
- Tophiriq mohiyati yoritilgan, natijalar to‘liq asosllanmagan, ayrim kamchiligi bo‘lsa – 5,6- 6,9 ball beriladi.

**Eslatma**: Ushbu TMIni baholash me’zoni boshqa (– 3-,4-)TMIlarga ham taalluqlidir.

**3. TMI:** «“Til va adabiyot ta’limi” jurnalining so‘nggi 5 yil ichidagi nashrlarida punktuatsiya mavzulariga bog‘liq maqolalarni o‘rganish *(Suhbat*)» yuzasidan amaliy ish daftariga konspekt qilib kelish va qisqacha mazmunini so‘zlab berish **(10 ball)**:

**4. TMI:**«“Tinish belgilarining ishlatilishi bo‘yicha yuzaga kelgan muammolar tahlili(“ Ma’rifat”,“ Sirdaryo haqiqati”, “ Universitet ovozi” gazetalaridagi zamonaviy matnlar tahlili misolida ). *(Suhbat*)» yuzasidan amaliy ish daftariga konspekt qilib kelish va qisqacha mazmunini so‘zlab berish **(10 ball)**:

**5. JN:** Amaliyot darslari bo‘yicha berilgan TMI topshiriqlarining bajarilish hajmi va sifatiga qarab 6 balldan 10 ballgacha beriladi **(jami 10 ball):**

- Topshiriq to‘liq bajarilgan, asosli xulosa chiqarilgan bo‘lsa, kamchiliklari juz’iy yoki yo‘q bo‘lsa– 8,6-10 ball.
- Topshiriq mohiyati ochilgan, natijalar to‘g‘ri, xulosasi bor, kamchiliklar juz’iy bo‘lsa – 7- 8,5 ball.
- Tophiriq mohiyati yoritilgan, biroq natijalar to‘liq asosllanmagan, ayrim kamchiligi bo‘lsa –5,6- 6,9 ball beriladi.

**5. JN:** Seminar darslari bo‘yicha berilgan TMI topshiriqlarining bajarilish hajmi va sifatiga qarab 6 balldan 10 ballgacha beriladi **(jami 10 ball):**

- Topshiriq to‘liq bajarilgan, asosli xulosa chiqarilgan bo‘lsa, kamchiliklari juz’iy yoki yo‘q bo‘lsa– 8,6-10 ball.
- Topshiriq mohiyati ochilgan, natijalar to‘g‘ri, xulosasi bor, kamchiliklar juz’iy – 7- 8,5 ball.
- Tophiriq mohiyati yoritilgan, natijalar to‘liq asosllanmagan, ayrim kamchiligi bo‘lsa – 5,6- 6,9 ball beriladi.

Amaliy va seminar mashg‘ulotlari uchun jami 20 ball beriladi.

**6. Yakuniy nazorat**da har bir talaba 30 ta yozma test yechishi yoki 3 ta nazorat ishi savoliga yozma javob berishi lozim bo‘ladi. Har bir test savoliga 1 ball, nazorat ishining har bir savoliga 10 ball, jami 30 ball ajratiladi.(30x1=30 ball; 3 x10=30 ball ).

**Eslatma:** Talabaning umumiy bali hisoblanganda, sonlar yaxlitlab olinadi. Misol uchun, jaboblar bali: 81,1; 81,2; 81,3; 81,55 bo‘lsa, 81 butunga; 81,56dan 81,9 gacha bo‘lsa, 82 butunga teng bo‘ladi. Yaxlitlab olingan natija quyidagi mezonga ko‘ra baholanadi:

| Baho | Baholash mezonlari | To‘plangan ball |
|---|---|---|
| **“ A’lo”** | Etarli nazariy bilimga ega. Topshiriqlarni mustaqil yechgan. Berilgan savollarga to‘liq javob beradi. Masalaning mohiyatiga to‘liq tushunadi. Auditoriyada faol. O‘quv tartib intizomiga to‘liq rioya qiladi. Topshiriqlarni namunali rasmiylashtirgan. | **90-100** |
| **“ Yaxshi”** | Etarli nazariy bilimga ega. Topshiriqlarni echgan. Berilgan savollarga etarli javob beradi. Masalaning mohiyatini tushunadi. O‘quv tartib intizomiga to‘liq rioya qiladi. | **70-89** |

| “ Qoniqarli” | Topshiriqlarni echishga harakat qiladi. Berilgan savollarga javob berishga harakat qiladi. Masalaning mohiyatini chala tushungan. O‘quv tartib intizomiga rioya qiladi | 60-69 |
|---|---|---|
| “ Qoniqarsiz” | Talaba amaliy mashg‘ulot darsi mavzusiga nazariy tayyorlanib kelmasa, mavzu bo‘yicha masala, misol va savollariga javob bera olmasa, darsga sust qatnashsa bilim darajasi qoniqarsiz baholanadi | 0-59 |

**Eslatma:** Nazorat turlari bo‘yicha olingan ballar kredit tizimiga o‘girib boriladi.

**Asosiy va qo‘shimcha adabiyotlar**

| T-r | Asosiy adabiyotlar | Kutubxonada mavjud soni |
|---|---|---|
| 1. | Amanturdiyev J. O‘zbek puktuatsiyasi. –Toshkent: "O‘qituvchi", 2017.(elektron resurs) | 1 |
| 2. | Nazarov K., Egamberdiev B. O‘zbek tili ishora-imlo qoidalari. (Punktuatsiya).– Toshkent: O‘qituvchi, 1996. (elektron resurs) | 1 |
| 3. | O‘zbek tili punktuatsiyasining asosiy qoidalari. Tuzuvchilar: N.M.Mahmudov, A.P.Madvaliev (elektron resurs) | 1 |
| 4. | Hamroyev M. va b. Ona tili. Toshkent, 2007. (Elekron resurs) | 1 |
| | **Qo‘shimcha adabiyotlar** | |
| 5. | I.Azimov, M. Saparniyazova. Ona tilidan ma’ruzalar va testlar majmuasi. T., 2008. (Elekron resurs) | 1 |
| 6 | Mahmudov Nizomiddin. Mustaqillik, O‘zbek tili va yozuvi. "Xalq so‘zi", 1992, 19 may soni. | 2 |
| 7. | Карима Қосимова, Сафо Матчонов ва б. Она тили ўқитиш методикаси. Т., 2009. | 1 |
| 8. | Oymatova N. Ta’lim jarayonida elektron o‘quv vositalaridan foydalanish. Til va adabiyot ta’limi. 2012 y. 5-son, 8-bet. | 1 |
| 9. | Hojiev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati.-T., 02 | 20 |

**Internet ma’lumotlari:**

1. www.ziyo.net
2. www.thinsan.com
3. www. uforum.uz
4. https://www.youtube.com/watch?v=DVdDkE09KUc
5. https://www.youtube.com/watch?v=MHpzj1wqG2w
6. https://uz.wiktionary.org/wiki/punktuatsiya
7. www.literature.uz
8. https:G‘G‘lex.uz.
9. https:G‘G‘uz.wikipedia.orgG‘wikiG‘Punktuatsiya
10. https:G‘G‘samarapedsovet.ruG‘uzG‘finansovyjjG‘punktualnyi-razbor-predlozheniya-chto-znachit-i-kak-delat-punktuacionnyi-razborG‘
11. https:G‘G‘quiz.directoryG‘quizG‘XG7AQ1xq
12. https:G‘G‘meduza.ioG‘featureG‘2022G‘07G‘19G‘materialy-meduzy-teper-mozhno-skachat-v-pdf
13. https:G‘G‘ru.sputnik.kgG‘20220604G‘ya-tak-vizhu-chem-avtorskaya-punktuatsiya-otlichaetsya-ot-oshibok-1064923806.html
14. https:G‘G‘aim.uzG‘prezentatsii.html

**O‘quv dasturi Guliston davlat universiteti tmonidan ishlab chiqildi.**

**Tuzuvchi:** Abdullayev J.X.- filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

**Taqrizchilar:** Mengliyev B.V. - filologiya fanlari doktori, professor (TDO‘TAU)
Yodgorov H.E.- filologiya fanlari nomzodi, dotsent.(GulDU)

“O‘zbek tili puktuatsiyasi” fanining o’quv dasturi GulDU O‘quv-uslubiy kengashining 29.08. 2022 yil 1-sonli majlisida muhokama etildi va universitet Kengashiga tavsiya qilindi.

O‘quv dasturi Guliston davlat universitet Kengashi tomonidan (2022 yil 31 avgustdagi 1-sonli bayonnoma) ma’qullangan.

**T A RQATMA**

## didaktik materiallar

**Esda saqlang.** *Umumlashtiruvchi so'z uyushgan bo'laklardan oldin kelsa, yozuvda umumlashtiruvchi so'zdan keyin ikki nuqta qo'yiladi. Umumlashtiruvchi so'z uyushgan bo'laklardan keyin kelsa, uyushgan bo'laklar bilan umumlashtiruvchi so'z o'rtasiga tire qo'yiladi.*

**Juda muhim**. *Ajratilgan sifatlovchi aniqlovchilar yozuvda boshqa bo'laklardan doimo vergul bilan, agar sifatlovchi aniqlovchilarni o'zi uyushgan bo'lib, ichida vergul bilan ajratilgan bo'lsa, ajratilgan bo'lak boshqa bo'laklardan tire bilan ajratiladi.*

**Juda muhim**. *Undalmalar gapning boshqa bo'laklari bilan grammatik aloqaga kirishmaganligi uchun yozuvda doimo boshqa gap bo'laklaridan vergul bilan ajratiladi. Gap boshida kelib, kuchli undash ohangi bilan aytilsa, undalmadan so'ng undov belgisi qo'yilishi ham mumkin. Masalan: Odamlar! Eshitmadim demanglar.*

**Eslab qoling.** *Undalmalar oldidan undov so'zlar ishlatilganda, yozuvda undalma bilan undov so'zlar orasiga hech qanday tinish belgi qo'yilmaydi.*
*Undov so'zlar undalmadan so'ng kelganda esa undov bilan undalma chiziqcha bilan ajratib yoziladi.*

**Eslab qoling.** *Gapning asosiy mazmuniga qo'shimcha axborot qo'shuvchi va alohida ohang bilan ajralib turuvchi qismga kiritmalar deyiladi.*

Kiritmalar asosan, kitobiy uslubga xos. Kiritmalar fikrga qo'shimcha ma'lumot berganligi uchun, asosan, gap o'rtasida keladi va yozuvda doimo gapning boshqa qismlaridan qavs bilan ajratiladi.

**Eslab qoling.** *Kesimi shart-istak maylidagi fe'llar bilan ifodalangan gaplar istak gaplar deyiladi.*

*Yozuvda istak gaplar oxiriga nuqta qo'yiladi.*

# “ O‘zbek tili puktuatsiyasi” fani masalalarini mustahkamlash va talabalar o‘zlashtirishini sinash uchun
# TEST SAVOLLARI

**1.** ***Jismimiz yo‘qolur G’G’ o‘chmas nomimiz,* (*G‘. G‘ulom*). Ushbu gapdagi G’G’ belgisi o‘rnida qaysi tinish belgisi qo‘yiladi?**
*A) vergul B) undov belgisi C) ko‘p nuqta D) tire*
**2. Undashni kuchaytirish uchun undalmadan oldin kelgan undov so‘zdan so‘ng qanday tinish belgisi qo‘yiladi?**
*A) undov belgisi B) vergul C) chiziqcha D) nuqtali vergul*
**3. Gapda tinish belgilari o‘z o‘rnida ishlatilmasa, gap qaysi jihatdan o‘zgarishi mumkin?**
*A) faqat mazmuni o‘zgaradi B) faqat sintaktik tuzilishi o‘zgaradi C) mazmuni va sintaktik tuzilishi o‘zgaradi*
*D) mazmuni va sintaktik tuzilishi o‘zgarmaydi*
**4. Qo‘shma gap qismlari oralig‘ida *yoki* bog‘lovchisi yolg‘iz holda qo‘llanganda, bog‘lovchidan oldin qanday tinish belgisi qo‘yiladi?**
*A) vergul qo‘yiladi B) ikki nuqta qo‘yiladi*
*C) tire qo‘yiladi D) nuqtali vergul qo‘yiladi*
**5. Tire noto‘g‘ri qo‘llangan qatorni aniqlang.**
*A) O‘zbekiston – mustaqil davlat B) Til –millatning boyligi va bebaho mulki. C) Men – o‘qituvchiman D) Ona erim – oltin tuprog‘im.*

### “Tinish belgilari va ishorat qoidalari” mavzusini mustahkamlash va talabalar o‘zlashtirishini sinash uchun testlar

**6. Qaysi qatorda tinish belgilari to‘g‘ri qo‘yilgan?**
*A) - Xo‘sh, qanday yangiliklar bor? - dedi O‘ktam. B) - Xo‘sh, qanday yangiliklar bor - dedi O‘ktam. C) - Xo‘sh qanday yangiliklar bor?- dedi O‘ktam. D) - Xo‘sh qanday yangiliklar bor! - dedi O‘ktam.*
**7. Qaysi gap tarkibida tire (–) ishlatilishi kerak?**
*A) Men uchuvchiman. B) Do‘stlik o‘lkamizning qudrati, shoni. C) Bilim baxt belgisidir. D) Ishning boshi boshlanganchadir.*
**8. Takrorlangan *yo, yoki, goh, dam, ba’zan* bog‘lovchilari yordamida bog‘langan uyushiq bo‘laklar orasiga qanday tinish belgisi qo‘yiladi?**
*A) nuqtali vergul B) tire C) ikki nuqta D) vergul*
**9. *Bugun havo ochiq G’G’ derazalarni lang ochib ko‘ysa ham bo‘ladi.* Ushbu gapdagi G’G’ belgisi o‘rnida qanday tinish belgisi qo‘yish kerak?**
*A) tire B) vergul C) nuqtali vergul D) ko‘p nuqta*
**10. *Aytilgan so‘z G’G’ otilgan o‘q. (Maqol)* Ushbu gapdagi G’G’ belgisi o‘rnida qanday tinish belgisi qo‘yiladi?**
*A) ikki nuqta B) nuqtali vergul C) vergul D) tire*

### “Tinish belgilari va ishorat qoidalari” mavzusini mustahkamlash va talabalar o‘zlashtirishini sinash uchun testlar

**11. *- Hafizaxon, tog‘angizga Mavlon akaga havasim keladi*. Ushbu gapda *Mavlon akaga* bo‘lagi ikki tomondan qanday tinish belgilari bilan ajratiladi?**
*A) qavs va qavs B) tire va tire*
*C) vergul va vergul D) tire va vergul*
**12. Fikrning tugallanmaganligi ko‘rsatish uchun yozuvda qanday tinish belgisi ishlatiladi?**
*A) undov va so‘roq belgilari B) nuqtali vergul*
*C) ikki nuqta D) ko‘p nuqta*
**13. Qaysi gapda tinish belgisi noto‘g‘ri qo‘llangan?**
*A) -Bu Nazarovdan chiqqan aql emas, - dedi Qalandarov. B) Bir kuni rais kelib qurtni ko‘zdan kechirdi-da: - Yashasin havaskor kampirlarimiz! - deb qichqirdi. C) -Sen ham bitirding, shekilli, - so‘radi ikkinchi yigit. D) - Voy, Huriniso opa, kelin qildingizmi? - dedi Tojixon.*
**14. *Yaxshi so‘z G’G’ jon ozig‘i, yomon so‘zG’G’ bosh qozig‘i (Maqol)* Ushbu gapda G’G’ belgilari o‘rnida qanday tinish belgilar qo‘yish kerak?**

*A) vergul va tire B) ikki nuqta va ikki nuqta C) vergul va vergul D) tire va tire*

**15. Quyidagi qaysi gapda ega bilan ot kesim orasida tire ishlatilishi lozim?**

*A) Qo'shnilarim ham halol odamlar. B) Hamma yoq top-toza, yovvoyi o'tlar yo'q. C) O'g'limdan umidim ko'p. D) Yaxshi qiz yoqadagi qunduz, yaxshi o'g'il ko'kdagi yulduz.*

**"Tinish belgilari va ishorat qoidalari" mavzusini mustahkamlash va talabalar o'zlashtirishini sinash uchun testlar**

**16. Qaysi qatordagi gapda ega bilan ot kesim orasida tire noto'g'ri qo'yilgan?**

*A) Otalar so'zi – aqlning ko'zi. B) Ginali do'st –adovatli dushman C) Men ham – kichik paxtakor. D) B, C*

**17. *Ha* va *yo'q* so'zlari gap boshida kelib, his-hayajon bilan aytilsa, ulardan so'ng qanday tinish belgilari qo'yiladi?**

*A) vergul B) undov belgisi*

*C) ko'p nuqta D) so'roq va undov belgisi*

**18. Ajratilgan bo'laklar gap o'rtasida kelsa, ularning ikki tomoniga nima qo'yiladi?**

*A) tire va tire B) qavs va qavs*

*C) tire va vergul D) vergul va vergul*

**19. Umumlashtiruvchi bo'lak uyushiq bo'laklardan oldin joylashgan bo'lsa, undan so'ng qanday tinish belgi qo'yiladi?**

*A) ko'p nuqta B) ikki nuqta C) tire D) nuqtali vergul*

**20. *Hozirgina bo'lgan voqeani unutib, childirmani qo'lga olib, «Ho-hoy bola»ga o'yin qilishyaptimi?* Mazkur gapdagi *«Ho-hoy bola»* so'z qo'shilmasi nima sababdan qo'shtirnoqqa olingan?**

*A) o'zgalarning kulgi bilan aytilgan gapi bo'lgan uchun*

*B) o'zgalarning kinoya bilan aytilgan gapi bo'lgani uchun*

*C) asar nomini bildiruvchi atoqli ot bo'lgani uchun*

*D) ko'chirma gapni muallif gapidan ajratib ko'rsatish uchun*

**"Tinish belgilari va ishorat qoidalari" mavzusini mustahkamlash va talabalar o'zlashtirishini sinash uchun testlar**

**21. Bog'lovchisiz qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarning mazmuni bir-biriga zid bo'lsa, ular orasiga qanday tinish belgisi qo'yiladi?** *A) vergul B) nuqtali vergul C) tire D) ikki nuqta*

**22. *Gazetachilikning bitta yomon tomoni bor ishda tartib bo'lmaydi*. Yordamchilarsiz bog'langan bu qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplar orasiga tinish belgilardan qaysi biri qo'yiladi?**

*A) nuqtali vergul B) vergul C) ikki nuqta D) tire*

**23. Tinish belgilari noto'g'ri qo'llangan qatorni aniqlang.**

*A) Karim otani necha yillardan buyon katta-kichik ajoyib bog'bon sifatida, mehribon ota sifatida taniydi. B) Otam Ne'mat Anorboev qalbi pok, bilimli inson edilar. C) Mashhur bastakorning, G'anijon Toshmatovning shogirdi bo'lganimdan behad xursandman. D) Taniqli bolalar shoiri Quddus Muhammadiy bir necha marta maktabimizga tashrif buyurganlar.*

**24. Qaysi gapda tinish belgi noto'g'ri qo'llangan?**

*A) Uy, buyum, mol-hol, hammasi senga qolsin. B) Ulardan uchtasini: Sayyorani, G'ayratni, Shavkatni ko'rib turamiz. C) Anvar har bir kishidagi shunday xislatni: odamoxunlik, mehmondo'st, ochiq chehralikni yoqtiradi. D) Qayoqdan keldi shuncha olomon: bolalar, xotinlar, chollar?*

**25. Qo'shtirnoq noto'g'ri qo'llangan gapni toping.**

*A) Erining "kirdikori"dan xabardor bo'lganday o'smoqchiladi Shakarxon. B) Gul - dedi: "Ayt, nechun ketolmaysan yonimdan?" C) A.Qahhorning "Bemor" asari realistik asardir. D) Sirdaryo qirg'og'ida "Mingbuloq" degan so'lim bir qishloq bor.*

**"Tinish belgilari va ishorat qoidalari" mavzusini mustahkamlash va talabalar o'zlashtirishini sinash uchun testlar**

**26. *Faqat bitta iltimos G'G' ishda tartib bo'lsin*. Ushbu gapda G'G' o'rnida qanday tinish belgisi ishlatiladi?**

*A) vergul B) tire C) ko'p nuqta D) ikki nuqta.*

**27. *Andijon, Namangan, Qo'qon, Marg'ilon G'G' O'zbekning chamani, bog'u bo'stoni.(G'.G'.)* G'G' belgisi o'rniga qanday tinish belgisini qo'yish kerak?**

*A) vergul B) nuqtali vergul C) tire D) ko'p nuqta.*

**28.** ***“O, Alisher G’G’ xush kelibsiz, ichkariga marhamatG’G’”*** **gapidagi** ***G’G’*** **belgisi o‘rnida qanday tinish belgilari bo‘lishi zarur?**
*A) vergul, nuqta B) vergul, undov belgisi C) undov belgisi, nuqta D) ikki o‘rinda ham undov belgisi*
**29.** ***“Do‘stim, senga takror, takror aytaman G’G’ Bilakni shimarib ishga tush, ishgaG’G’” (U.)*** **Bu erda G’G’ belgilari o‘rnida qaysi tinish belgisi zarur?**
*A) vergul, undov belgisi B) ikki nuqta, undov belgisi*
*C) vergul, nuqta D) tire, undov belgisi*
**30. Yarim qavs bilan ajratilgan raqam yoki harflardan keyingi gaplar oxiriga nima qo‘yiladi?**
*A) nuqta B) vergul C) qavs D) nuqtali vergul*

**“Tinish belgilari va ishorat qoidalari” mavzusini mustahkamlash va talabalar o‘zlashtirishini sinash uchun testlar**

**31. Ko‘p nuqtaning qo‘yilish o‘rinlarini aniqlang.**
*A) fikr tugallamaganda B) jumlalar qisqartirilganda C) kuchli hayajon anglashilgan ifodalarda D) A, B, C.*
**32. Qaysi qatorda tinish belgilari to‘g‘ri qo‘yilgan?**
*A) Bu yil o‘qishni “a’lo” baholarga bitirishim shubhasiz B) Barcha qatordagi gaplarda to‘g‘ri qo‘yilgan. C) Jahon kitobxonlari qirg‘iz yozuvchisi Chingiz Aytmatovni yaxshi bilishadi. D) Men har gal qishloqqa borganimda hozir u er shahar tipidagi tuman, o‘sha jonajon tepalikka intilaman.*
**33. Mamnunlik ma’nosi ifodalangan quyidagi gapdan so‘ng qanday tinish belgisi qo‘yiladi?** ***Unday bo‘lsa, juda yaxshi***
*A) undov B) ko‘p nuqta C) nuqta D) so‘roq*
**34.** ***Gazetachilikning bir yomon tomoni bor: ishda tartib bo‘lmaydi*****. Gapda nima uchun ikki nuqta qo‘yilgan?**
*A) umumlashtiruvchi so‘z bo‘lgani uchun B) uyushiq bo‘lakli gap bo‘lgani uchun C) qo‘shma gap bo‘lgani uchun D) yordamchilarsiz bog‘langan qo‘shma gap bo‘lib, uning tarkibidagi keyingi sodda gap oldingi sodda gapdan anglashilgan fikrni izohlab kelgani uchun.*
**35. Tire noto‘g‘ri qo‘llangan gapni toping.**
*A) Beodoblik – johillik urug‘i. B) Ota-onaga muhabbat – barcha yaxshi fazilatlarning asosi. C) Inson – nomi bo‘la turib, o‘zini tiya bilmasa, uyat. D) 8-mart – xotin qizlar bayrami.*

**“ O‘zbek tili punktuatsiyasi” fanidan baholash mezoni**

**1. Oraliq nazorat** yozma test va yozma ish tarzida o‘tkazilib, undan 25 ta test yoki 2ta savolga yozma javob berish so‘raladi. Har bir test savol 0,4 ball, yozma ishning har bir savoli javobi **5,6-10** ballgacha baholanadi. **Jami: 10 ball.**

- Topshiriq to‘liq bajarilgan, asosli xulosa chiqarilgan bo‘lsa, kamchiliklari juz’iy yoki yo‘q bo‘lsa– 8,6-10 ball.
- Topshiriq mohiyati ochilgan, natijalar to‘g‘ri, xulosasi bor, kamchiliklar juz’iy bo‘lsa – 7- 8,6 ball.
- Tophiriq mohiyati yoritilgan, natijalar to‘liq asosllanmagan, ayrim kamchiligi bo‘lsa – 5,6- 6,9 ball beriladi.

**2. TMI:** «“O‘zbek tili va adabiyoti” jurnalining so‘nggi 5 yil ichidagi sonlarida punktuatsiya mavzulariga bog‘liq maqolalarni o‘rganish *(Suhbat)»* yuzasidan amaliy ish daftariga konspekt qilib kelish va qisqacha mazmunini so‘zlab berish **(10 ball)**:

- Topshiriq to‘liq bajarilgan, asosli xulosa chiqarilgan bo‘lsa, kamchiliklari juz’iy yoki yo‘q bo‘lsa– 8,6-10 ball.
- Topshiriq mohiyati ochilgan, natijalar to‘g‘ri, xulosasi bor, kamchiliklar juz’iy – 7- 8,5 ball.
- Tophiriq mohiyati yoritilgan, natijalar to‘liq asosllanmagan, ayrim kamchiligi bo‘lsa – 5,6- 6,9 ball beriladi.

**Eslatma**: Ushbu TMIni baholash me’zoni boshqa (– 3-,4-)TMIlarga ham taalluqlidir.

**3. TMI:** «“Til va adabiyot ta’limi” jurnalining so‘nggi 5 yil ichidagi nashrlarida punktuatsiya mavzulariga bog‘liq maqolalarni o‘rganish *(Suhbat*)» yuzasidanamaliy ish daftariga konspekt qilib kelish va qisqacha mazmunini so‘zlab berish **(10 ball)**:
**4. TMI:**«“Tinish belgilarining ishlatilishi bo‘yicha yuzaga kelgan muammolar tahlili(“ Ma’rifat”,“ Sirdaryo haqiqati”, “ Universitet ovozi” gazetalaridagi zamonaviy matnlar tahlili misolida ). *(Suhbat*)» yuzasidanamaliy ish daftariga konspekt qilib kelish va qisqacha mazmunini so‘zlab berish **(10 ball)**:

**5. JN:** Amaliyot darslari bo‘yicha berilgan TMI topshiriqlarining bajarilish hajmi va sifatiga qarab 6 balldan 10 ballgacha beriladi **(jami 10 ball):**

- Topshiriq to‘liq bajarilgan, asosli xulosa chiqarilgan bo‘lsa, kamchiliklari juz’iy yoki yo‘q bo‘lsa– 8,6-10 ball.
- Topshiriq mohiyati ochilgan, natijalar to‘g‘ri, xulosasi bor, kamchiliklar juz’iy bo‘lsa – 7- 8,5 ball.
- Tophiriq mohiyati yoritilgan, biroq natijalar to‘liq asosllanmagan, ayrim kamchiligi bo‘lsa –5,6- 6,9 ball beriladi.

**5. JN:** Seminar darslari bo‘yicha berilgan TMI topshiriqlarining bajarilish hajmi va sifatiga qarab 6 balldan 10 ballgacha beriladi **(jami 10 ball):**

- Topshiriq to‘liq bajarilgan, asosli xulosa chiqarilgan bo‘lsa, kamchiliklari juz’iy yoki yo‘q bo‘lsa– 8,6-10 ball.
- Topshiriq mohiyati ochilgan, natijalar to‘g‘ri, xulosasi bor, kamchiliklar juz’iy – 7- 8,5 ball.
- Tophiriq mohiyati yoritilgan, natijalar to‘liq asosllanmagan, ayrim kamchiligi bo‘lsa – 5,6- 6,9 ball beriladi.

Amaliy va seminar mashg‘ulotlari uchun jami 20 ball beriladi.

**6. Yakuniy nazorat**da har bir talaba 30 ta yozma test yechishi yoki 3 ta nazorat ishi savoliga yozma javob berishi lozim bo‘ladi. Har bir test savoliga 1 ball, nazorat ishining har bir savoliga 10 ball, jami 30 ball ajratiladi.(30x1=30 ball; 3 x10=30 ball ).

**Eslatma:** Talabaning umumiy bali hisoblanganda, sonlar yaxlitlab olinadi. Misol uchun, jaboblar bali: 81,1; 81,2; 81,3; 81,55 bo‘lsa, 81 butunga; 81,56dan 81,9 gacha bo‘lsa, 82 butunga teng bo‘ladi. Yaxlitlab olingan natija quyidagi mezonga ko‘ra baholanadi:

| Baho | Baholash mezonlari | To‘plangan ball |
|---|---|---|
| **“ A’lo”** | Etarli nazariy bilimga ega. Topshiriqlarni mustaqil yechgan. Berilgan savollarga to‘liq javob beradi. Masalaning mohiyatiga to‘liq tushunadi. Auditoriyada faol. O‘quv tartib intizomiga to‘liq rioya qiladi. Topshiriqlarni namunali rasmiylashtirgan. | **90-100** |
| **“ Yaxshi”** | Etarli nazariy bilimga ega. Topshiriqlarni echgan. Berilgan savollarga etarli javob beradi. Masalaning mohiyatini tushunadi. O‘quv tartib intizomiga to‘liq rioya qiladi. | **70-89** |
| **“ Qoniqarli”** | Topshiriqlarni echishga harakat qiladi. Berilgan savollarga javob berishga harakat qiladi. Masalaning mohiyatini chala tushungan. O‘quv tartib intizomiga rioya qiladi | **60-69** |
| **“ Qoniqarsiz”** | Talaba amaliy mashg‘ulot darsi mavzusiga nazariy tayyorlanib kelmasa, mavzu bo‘yicha masala, misol va savollariga javob bera olmasa, darsga sust qatnashsa bilim darajasi qoniqarsiz baholanadi | **0-59** |

**Eslatma:** Nazorat turlari bo‘yicha olingan ballar kredit tizimiga o‘girib boriladi.